One of the purposes of the customs audit is to check the correctness of the goods nomenclature of goods subject to foreign trade code declared by the declarant. First of all, it should be noted that the classification of goods according to the Foreign Economic Activity Commodity Classification in customs practice is one of the key areas of activity of customs authorities associated with checking customs declarations, accompanying documents, referring to scientific and technical literature, and conducting expert research. It is the identification of goods and their subsequent classification of goods according to the Commodity Nomenclature that is the basis for applying tariff and non-tariff regulation measures to goods, determining the customs value, using customs and tax benefits.

To date, the development of a methodology for the implementation of customs control after the release of goods, i.e. customs audit is one of the most urgent tasks facing the customs authorities of our republic. In the process of carrying out a customs audit in terms of checking the correctness of the classification of goods, the World Customs Organization recommends answering the following questions:

1. What procedures are used to classify goods?
2. What types of goods does the authorized person import / export?
3. What types of goods make up the largest volume? What types of brands have the most value?
4. Are there tariff classifications that are close to anti-dumping duties or other restrictions? Has the authorized person changed the classification method? Could this affect changes in legislation?
5. Does the authorized person use commodity codes with low or zero customs duties?
6. Does the authorized person use codes of goods for which there are deferred payments? If so, have all the deferral requirements been met?
7. Do the classified commodity codes correspond to the type of activity of the authorized person?
8. Are the goods of the authorized person included in the subheading "other"? It is right?
9. Has there been any previous classification of goods? If so, what were the results?
10. Does the authorized person import goods that may be subject to anti-dumping or countervailing duties? If so, who is the manufacturer? Is the certificate issued correctly? (It is necessary to take into account a tariff classification close to this product or alternative to the published one)
11. Did the authorized person declare the components? Are anti-dumping duties or finished goods reflected?
12. Has the authorized person taken the samples? Looking for brochures, specifications, etc.? What were the end results?
13. Has the product been analyzed in a laboratory? Was the analysis carried out by a customs authority or an authorized person? What were the results of the analysis? Is there any correspondence / communication with suppliers that allows you to identify products?

Following these recommendations will undoubtedly bring positive results.

However, given the fact that the Resolution of the Cabinet of Ministers No. 101 of February 25, 2021 "On approval of the regulation on the procedure for conducting customs audit" provides for a period of customs control within 3 years after the release of goods for free circulation, this presents certain difficulties in terms of exercising control over the correctness of the declared code of goods, since sampling and samples for the identification examination of goods in some cases may simply be impossible due to the possible sale of goods in production, their sale, physical wear and tear and changes in their original properties, or any other reasons. Thus, it is necessary to develop a separate mechanism that allows the customs authorities, when carrying out customs control after the release of goods, to determine their code according to the Commodity Nomenclature, or that gives guarantees that the code was declared correctly. As a mechanism giving such guarantees, it would be advisable to issue a

preliminary decision on classification for each product imported into the republic. The use of this mechanism will significantly facilitate and speed up the process of passing customs procedures, as well as give the customs authorities guarantees that the objects of customs audit have been correctly classified according to the TN VED. Considering the fact that this service is currently paid, according to the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 700 dated 09.11.2020 "On approval of customs duty rates", the cost of a preliminary decision for one product is 75% of BRV (as of 01.06.2021 year, this amount is 183,750 soums), in order to support entrepreneurs engaged in export-import operations, it is advisable to provide this service free of charge.

REFERENCES:

1. International Convention on the Simplification and Harmonization of Customs Procedures, Kyoto, 05/18/1973;
2. Customs Code of the Republic of Uzbekistan;
3. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. 6005 of 05.06.2020 "On reforming customs administration and improving the activities of the state customs service of the Republic of Uzbekistan";
4. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 700 dated 09.11.2020 "On approval of the rates of customs duties";
5. Resolution of the Cabinet of Ministers No. 101 dated February 25, 2021 "On approval of the regulation on the procedure for conducting a customs audit";
6. Azizov Sh. U. "Improving the methodology of customs audit" // scientific work for the scientific degree of Doctor of Science, 2017;
7. Korniyakov K.A. "Automatic release of goods - the highest degree of innovation" // Customs. 2015. - No. 1.

SECTION: INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES

Karimova Gulnoza
o'qituvchi,
Ismoilova Gulnoza
talaba,
Xomidova Shaxnoza
talaba,
Mirzamaxmudova Nazokat
talaba,
Farg'ona davlat universiteti
(Farg'ona, O'zbekiston)

GLOBALLASHUV DAVRIDA AXBOROT MADANIYATINING IJTIMOY AHAMIYATI

Annotatsiya: *Globalashuv sharoitida ta'lim shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bugungi tezkor davr ta'lim oluvchilar, shu jumladan o'quvchilarni ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.*

Kalit so'zlar: *internet, axborot, axborot madaniyati, tarbiya, barkamol avlod.*

Mamlakatimizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy xayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bunda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida belgilab olingan va izchil ravishda amalga oshirilayotgan ulkan vazifalar mustahkam zamin yaratmoqda.

Respublikamiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida tub sifat o'zgarishlar amalga oshirilayotgani bilan belgilanmoqda. Bu ulkan vazifani hal etish fuqarolarimiz aqliy salohiyatini oshirib borish bilan bog'liq holda amalga oshirilishi inkor qilib bo'lmaydigan haqiqatdir. Bu esa, ta'lim va tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish bilan chambarchas bog'liq. Buning uchun, birinchi navbatda, ta'lim-tarbiyaning nazariy asoslarini tartibga tushirib olish talab qilinadi.

Bugungi kunda jahon taraqqiyoti informacion-innovatsion davrida kechmoqda. Bu jarayonning harakatlantiruvchi kuchi - bu ilmiy yutuqlar, yangi texnologiyalarni jadal o'zlashtirish va samarali boshqarishga asoslanadigan o'zgarishlardir. Natijada iqtisodiy faoliyat sub'yektlari o'rtasida innovatsiyalarni ayirboshlash va amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlar tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda.

Agar tarixga nazar tashlasak, kishi o'z xayot faoliyati davomida boshi berk ko'chaga kirib qolganda, hamma vaqt ilmiy - texnikaviy yangilikka intilgan va erishilgan muvaffaqiyat

evaziga o'zi uchun berk bo'lgan ko'chani ochiq qilib olgan: olov paydo bo'lishdan to bug' mashinasi, yadro, atom energiyasi paydo bo'lishiga qadar biz bu voqealarning guvohi bo'lganmiz.

Dunyoda masofaviy o'qitishning, ochiq ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida keng qo'llanilishi, shuningdek, ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari va INTERNETdan foydalanish uning sifatini yuqori ko'tarish omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, oliy pedagogik ta'lim tizimida turli fanlarni o'qitishda keng joriy etilmoqda.

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan modellar orasidan quyidagilarni alohida ta'kidlash mumkin:

- yangi o'quv materiallarini tushuntirishda kompyuterning namoyish imkoniyatlaridan foydalanuvchi darslar;

- INTERNET o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturiy mahsulotlar asosida tashkil etilgan darslar;

- pedagoglarning darslarga metodik tayyorlanishi, qo'shimcha axborotlarni izlash va tizimlashtirishi, didaktik materiallarni tayyorlashi;

- kompyuter texnologiyalaridan o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda foydalanish.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, internet jamiyatning barcha sohalariga shiddat bilan kirib kelayapti. Internet tarmog'ining imkoniyatlari naqadar keng va cheksizligi bugun barchaga ayon, u gazeta, radio va hatto televideniadan ham kuchliroq ta'sirga ega, axborot oqimi juda keng. Lekin uning o'ziga yarasha boshqa jihatlari ham mavjud, ya'ni, internetning ijtimoiy tarkibi turfa xil ekanligi qator salbiy holatlarni o'zida namoyon etib, bu o'z o'rnida qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Kishilik jamiyatida ijtimoiy-siyosiy, madaniy, milliy, etnik va boshqa omillarning muvozanati muayyan darajada mavjud bo'lsa hamki, internet tarmog'ida bunday tenglikni ko'rib bo'lmaydi. Bunday holat ma'naviy va milliy an'analarga to'g'ri kelmaydigan, virtual olamning o'zigagina xos bo'lgan internet "madaniyat"ni yuzaga keltirib chiqardi. Tarmoq ichida insoniyatga qarshi, yoshlarga qarshi tajovuzlarni ko'rish mumkin. Internet nazoratsizlik tufayli giyohvand moddalarini targ'ib etib, axloqsizlik, zo'ravonlik, qotillik va terrorchilikka da'vat etuvchi g'oyalar bilan sug'orilgan resurslar to'lib-toshgan tajovuzkor axborot makoniga aylanib bormoqda. Tabiiyki, hali axborotga "o'ch bo'lgan" aholi kirib kelayotgan axborotni saralamay turib, "iste'mol" qila boshlaydi. Ular hali yaxshi va yomon, kerakli va keraksiz axborotning farqiga bormasdan, bir so'z bilan aytganda, aholida xolis axborot oqimidan noxolisini ajratib olish uchun idrok shakllanib ulgurmagan edi. Shuning asorati hozirgi kunda, ayniqsa, sezilmoqda. Bu ba'zan yoshlarimizda har qanday axborotni mutloq haqiqat sifatida qabul qilinishini keltirib chiqarmoqda.

Pedagogik ta'limni, umuman, ta'lim tizimini axborotlashtirishning muhim yo'nalishi sifatida telekommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni ko'rsatish mumkin. Telekommunikatsiya texnologiyalari tarmoq texnologiyalari bo'lib u lokal va global INTERNET tarmoqlaridan sinxron va asinxron rejimlarda foydalanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot texnologiyalari muhitini hozirgi zamon talablari darajasida ilmiy tashkil etish muhim muammolardan biridir. Zero, ta'lim islohotlarining zamonaviy bosqichi jamiyatda yuz berayotgan yangilanishlarning tezkorligi, ta'lim

muassasalariga qo'yilayotgan yangi, yanada yuqori talablarga tezroq moslashish bilan bog'liq dolzarb vazifalarni ilgari surmoqda. Bunday sharoitlarda ta'lim muassasasini rivojlantirish, uning zamonaviy talablar darajasida faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar salmog'i uzluksiz ravishda ortib boradi. Qo'yilayotgan vazifalarning ko'pchiligi printsiplari jihatdan yangi talablarni keltirib chiqaradi va ularni hal qilishda jamoaning faqatgina mavjud tajriba asosida ish ko'rishi yetarli bo'lmay qoladi. Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi va amaliyoti borasidagi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy sharoitda ta'lim muassasasini boshqarish undagi axborotlar almashinuvini boshqarish bilan bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. Bu esa ta'lim muassasasi ishini yaxshilashga axborot texnologiyalaridan foydalanishni yaxshilash hisobiga erishish mumkinligini ko'rsatadi va bu yo'nalishda maqsadli izlanishlar olib borish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Internetning ulkan imkoniyatlari, unda axborot oqimining tezkorligi, auditoriyaning cheklanmaganligi, o'z maqsadlarini terroristik yo'l bilan amalga oshirishni odat qilib olgan – yovuz kuchlarning manfaatlariga ham xizmat qiladi. Endilikda Internet tizimida yuzlab terroristik saytlarning manzillari aniqlangan. Terrorizm – Internetda o'ta izchil voqeelik: saytlar to'satdan paydo bo'ladi va tez-tez formatini o'zgartirib turadi. Kutilmaganda esa, o'z mundarijasini saqlagan holda, ammo manzilini o'zgartirish yo'li bilan ko'zdan g'oyib bo'ladi.

Ko'pgina mutaxassislar kiberterrorizmning xavfi haqida bot-bot gapirishsada, terroristlar tomonidan Internetdan shunchaki foydalanishni nazardan chetda qoldirar ekanlar. Zamonaviy terroristik guruhlar Internetdan asosan quyidagi besh usul orqali foydalanadilar:

- Psixologik urush
- Reklama va targ'ibot
- Qo'lga tushirish va safarbar etish
- Tizimlar tashkil etish
- Axborot ta'minoti

Aholini (jamiyatimizni) kiberterrorizm va Internetdagi terroristik saytlardagi harakatlardan himoya qilish bilan birga, bir qator antiterroristik harakatlar majmuini ishlab chiqish talab etilmoqda. Internetdagi faoliyatning ijobiy tomonlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- dunyoqarashning kengayishi;
- obyektiv va negatv axborotlarni qabul qilib, ularni tahlil qilish imkoniyati;
- masofaviy o'qishlarda ishtirok etish imkoniyati;
- axborotlarni tanlash imkoniyati borligi.

Bugungi yoshlarning aksariyati asosiy axborot manbai sifatida internetga murojaat qilishadi. Lekin ularda axborot immuniteti shakllanmagan mish-mishlar dunyosi bo'lmish "Internet" orqali ma'naviyatga salbiy ta'sir vujudga kelishi mumkin. Nega ta'sir qiladi? Balki yoshlar ma'naviyatining yetarli darajada shakllanmaganligi emasmi? Bugungi kunda yoshlarimiz – turli xil G'arb seriallari ta'sirida, milliy qahramonlarimiz jasoratidan bexabar o'sayotganligi sababli ma'naviyatga chuqur e'tibor qaratmas ekanmiz, ularning zehni o'tkir, dunyo bilimlarini egallagan bo'lishlariga qaramasdan, Vatana manfaati yo'lida xizmat qilishlariga, begona g'oyalarga berilmasligiga kafolat ham berolmaymiz. Ularni eng avvalo Vatanga e'tiqodni, urf-odat va qadriyatimizga sadoqatli qilib tarbiyalasak, istalgan buzg'unchi axborotlarga nisbatan mafkuraviy immuniteti shakllanadi, deb o'ylaymiz.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, informatsion madaniyat jahondagi umumiy taraqqiyotdan ortda qolayotgan mamlakatlarga turli yoʻnalishlarda yordam koʻrsatish, inson muammosiga, ayniqsa uning mahnaviy dunyosiga har qachongidan koʻra eʼtibor qaratish, jamiyat va inson hayotining barcha tomonlarini qamrab olayotgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning murakkab muammolarini hal etish kabi global masalalarni oʻrtaga qoʻymoqda.

Bizningcha, jamiyatning maʼnaviy-axloqiy jihatlari chuqur tadqiq etish, hozirgi insoniyat jamiyatida sodir boʻlayotgan mahnaviy jarayonlar tendentsiyasini va mahnaviy hayot imkoniyatlarini butun murakkabliklari bilan tahlil qilish hamda muayyan xulosalar chiqarish mavjud inqirozlarning oldini olish uchun oʻziga xos imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda axborot xurujidan himoyalaniish uchun mustaqil fikr boʻlishi lozim. Shuningdek, jamiyatda yoshlarning oʻzini-oʻzi himoya qilishiga eʼtibor berish kerak. Avvalo, har bir inson uchun mustaqil fikr zarur. Mustaqil fikrga ega boʻlgan insongina yaxshi yoki yomon maʼlumotning mohiyatiga yetib, ularga qarshi kuch topa oladi.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov, U., Kaxarov, S., Yokubjonov, S., & Ziyodov, D. (2018). USING NEW INFORMATION TECHNOLOGIES IN DISTANCE LEARNING SYSTEM. In *НОВАЯ ПРОМЫШЛЕННАЯ РЕВОЛЮЦИЯ В ЗЕРКАЛЕ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ* (pp. 9-11).
2. Abdurakhmonova, M. M., ugli Mirzayev, M. A., Karimov, U. U., & Karimova, G. Y. (2021). Information Culture And Ethical Education In The Globalization Century. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(03), 384-388.
3. Каримов, У., Хакимова, Д., & Халилов, Л. (2018). ИНФОРМАЦИОННОЕ И КОММУНИКАЦИОННОЕ ТЕХНОЛОГИИ ВЛИЯНИЕ НА ОБРАЗОВАНИЕ В ТЕХНИЧЕСКОМ ОБСЛУЖИВАНИЕ. *Мировая наука*, (10), 193-197.
4. Каримов, У., & Каримова, Г. (2018). ГЕОПОЛИТИЧЕСКАЯ КОНКУРЕНЦИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ПРОСТРАНСТВЕ. In *Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018)* (pp. 1368-1372).
5. Каримов, У., Хакимова, Д., & Тулкинов, З. (2018). ЗАДАЧИ ПОСТРОЕНИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА. *Теория и практика современной науки*, (10), 193-195.

Tuxtanazarova Gulchexra Nosirjonovna
Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) 1-kurs magistranti
Namangan Davlat Universiteti
(Namangan, Uzbekistan)

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHDA ELEKTRON RESURLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada "Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslari tashkil etishda elektron resurslardan foydalanishning ahamiyati" to'g'risida so'z boradi. Chunki bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o'qish darslarining ham tub mohiyatini tashkil etadi. Sinfdan tashqari o'qish darslari erkin dars hisoblanadi, bunday maxsus darslarda bolalarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodi rivojlanadi hamda faol kitobxonlar uchun zarur ko'nikma va malakalar shakllanadi.

Tayanch iboralar: AKT, Sinfdan tashqari o'qish, faol kitobxon, elektron resurslar, axborot-kommunikatsiya, Microsoft Power Point.

Аннотация. В статье рассматривается «Важность использования электронных ресурсов в организации внеклассных занятий в начальной школе». Ведь привить детям любовь к добру, ненависть ко злу, развитие связной речи, развитие литературного и эстетического мышления – суть внеклассных уроков чтения. Внеклассные уроки чтения - это бесплатные уроки, на которых дети развивают читательский интерес, знания, эстетические впечатления, восприятие художественных образов, творческие способности и развивают необходимые навыки и умения для активного чтения.

Ключевые слова: ИКТ, внеклассное чтение, активный читатель, электронные ресурсы, информация и коммуникация, Microsoft Power Point.

Annotation. The article discusses "The importance of the use of electronic resources in the organization of extracurricular activities in primary school". Because instilling in children a love of goodness, a hatred of evil, the development of their connected speech, the development of literary and aesthetic thinking is the essence of extracurricular reading lessons. Extracurricular reading lessons are free lessons in which children develop their reading interests, knowledge, aesthetic impressions, perception of artistic images, creativity, and develop the necessary skills and abilities for active readers.

Keywords: ICT, Extracurricular Reading, Active Reader, Electronic Resources, Information and Communication, Microsoft Power Point.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida maktab fanlarini o'qitishda AKT dan samarali foydalanish dolzarb masaladir. Aynan axborot texnologiyalari ta'limning universal vositasi hisoblanib, nafaqat o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga qiziqishlarini qondiradi. Pedagogik va

psixologik tadqiqotlarda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, AKT o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad – aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarini paydo bo'lishidir. Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim-ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich maktab o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta'lim tizimida boshlang'ich maktab "ko'nikmalar maktabi" bo'lib keldi, ya'ni o'quvchi keyingi ta'lim olish uchun o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan ta'lim bosqichi sifatida qaralgan. Bugungi kunda boshlang'ich maktab boshqacha tasavvur etiladi. Bugungi kunda u ta'lim tizimida bolaning birinchi tajribasi – ta'lim olish kuchlarini sinash joyi bo'lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o'quvchilarning aynan mana shu sifatleri ta'lim jarayoniga AKT ni joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qishga kichik yoshdagi o'quvchilarning o'qish daralarini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi – o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan ongli kitobxonni tarbiyalashdir. STO' darslariga qo'yiladigan talablar:

- har bir darsni kirish suhbatini bilan boshlash;
- har bir darsda o'quvchilar o'qigan kitoblarni asarlarni hisobga olish;
- har bir darsda o'qish uchun yangi asarlar tavsiya qilish;
- har bir darsda o'qilgan asar yuzasidan suhbat metodida tahlil ishlarini amalga oshirish;
- o'qilgan asarlar yuzasidan ko'rgazmalar tayyorlash, asarga taqriz yozish, asar muallifi haqida ma'lumotlar to'plash, albomlar tayyorlash, kitobxonlik kundaligini yuritish;
- har bir darsda tahlil qilingan asarlar yuzasidan umumlashtiruvchi, yakunlovchi suhbat uyushtirish;
- asar o'qish asar tanlashda o'quvchida mustaqillikni tarbiyalash, buning uchun mustaqil bajarish uchun topshiriqlar berish;
- qiziqarli mashq turlaridan foydalanish, eng yaxshi insholarni, taqrizlarni, yozuvchi haqida to'plangan ma'lumotlarni o'qitishga "Tez aytish", "Topishmoqlar" toppish, "Ifodali o'qish", "Maqollar aytish musobaqasi", "Ertak to'qish", "Bilimdonlar anjumani", konkurslar tashkil qilish, muayyan mavzular bo'yicha savol-javoblar uyushtirish, o'yin tarzidagi ish turlaridan foydalanish zarur.

Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus STO' darslari tashkil etilgan. Bunday darslar 1-2 sinfda haftada 1 marta, 3-4 sinfda 2 haftada 1 marta o'tkazilib kelindi. Hozirgi dasturga ko'ra, bunday darslar 1-4 sinflarda 2 haftada bir marta o'tkaziladi. Savod o'rgatish jarayonida esa haftadagi oxirgi alifbe darsining 17-20 daqiqasi ajratiladi. Sinfdan tashqari o'qish o'quv dasturi

bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish talab etiladi. O'quvchilarda kitobga havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir. Sinfdan tashqari o'qish tanish bo'lmagan mualliflarning ham kitoblari muqovasi, titul varagi, kirish so'zi, mundarijasi va suratlariga qarab asarning taxminiy mazmunini aniqlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o'qish darslarining ham tub mohiyatini tashkil etadi. STO' sinfdan o'qish bilan uzviy bog'liq ravishda uyushtiriladi. Sinfdan o'qish STO' uchun zarur bo'lgan o'qish malakalarini shakllantiradi, o'qigan asarni tushunishga o'rgatadi, lug'atni boyitadi. STO' qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfdan o'qish – hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir. Hozirgi paytda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun sinfdan tashqari o'qishga mo'ljallangan "Kitobim-oftobim" nomli qo'llanmalar ham chop etilgan.

STO' darslari o'quvchilarda mustaqil kitob tanlash va o'qish malakalarini shakllantiradi. Mustaqil o'qish malakasini shakllantirish 3-bosqichga bo'linadi:

1. Tayyorlov bosqichi. Bu 1-sinfning savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Unga darsning bir qismi – 17-20 daqiqasi ajratilgani uchun "STO' ma'lumoti" deb yuritiladi.

2. Boshlang'ich bosqich. Bu 1-sinfning 2-yarim yilligiga to'g'ri keladi. Bu bosqichda haftada 1 marta 45 daqiqalik dars uyushtiriladi.

3. Asosiy bosqich. Bu bosqich 2-4-sinflarga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilarning o'qish malakalarini mustahkamlanadi. Bunda o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qiganlari baholanadi.

STO' bosqichlari, dastur talablari, tarbiyaviy vazifalari o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. Masalan, tayyorlov bosqichida kichik hajmdagi asarni o'qituvchi o'qib bersa, o'qilganlar yuzasidan suhbat, qayta hikoyalash o'tkazilsa, boshlang'ich bosqichda butun sinf o'quvchilari bir xil kitob bilan 6 ta'minlanadi, barcha o'quvchilar bitta matn ustida ishlaydilar. Bunda bitta yozuvchi yoki bir mavzudagi asarlar ko'rgazmasi tashkil qilinadi. Asar ichda o'qishga topshirilishi, albomlar tayyorlanishi, kinofilm va videofilmlardan parchalar ko'rsatilishi, musiqiy daqiqalar o'tkazilish hamda asar mazmuni yuzasidan ijodiy rasmlar chizdirilishi ham mumkin. Bu jarayonda kitobni saqlash maqsadida uni yamash, o'rash o'rgatiladi, "Ertaklar bayrami", "Ifodali o'qish tanlovi", "Kitobxonlar ustaxonasi" kabi tadbirlar o'tkaziladi. Asosiy bosqich yakunida kichik yoshdagi o'quvchilar faol kitobxon uchun zarur bo'lgan yaxshi o'qish ko'nikma va malakalarini egallashlari, eng muhimi, ularning kitob hamda mustaqil o'qishni yaxshi ko'rishlariga erishish juda muhimdir.

Umumiy o'rta ta'limning Davlat standartlari va o'quv dasturiga ko'ra 1-sinfdan sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning ona vatan, istiqlol, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlari kengaytiriladi, boyitiladi. Sinfdan tashqari o'qish va qiroatxonlik savodlari 1-sinfdan haftada 1 marta savod o'rgatish darslarining 20 daqiqasida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtiriladi. Maqsad kichik yoshdagi bolalarda kitobga mehr uyg'otish, mustaqil uquvlarini paydo qilishdir. Asosan, bu sinf

o'quvchilariga kitob bilan muamola qilish, kitob o'qish qoidalari, kitobni asrash, asar qahramonlarining hatti-harakatlarini kuzatish, ijobiy tamonlarni o'rganish, obrazli qilib qayta hikoya qilib berish, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir. Bu sinf o'quvchilari uchun asosan rasmlarga boy kitoblar olinadi. Birinchi sinfdagi sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarning mazmuni va metodikasi boshqa sinflardagi sinfdan tashqari o'qishdan farq qiladi. Bunda quyidagilarga etibor beriladi:

1. O'quvchilar har bir darsda faqat birgina kichik hajmli kitob bilan tanishtiriladi. O'quvchilar o'qituvchining kitobiga ishlangan rasmlarni ko'rsatishi va asarni o'qib berishi asosida shu kitob haqida mulohaza yuritiladi. Shunga ko'ra, olti yoshlarga ko'rsatiladigan va o'qib beriladigan kitoblar rangdor bezakli, undagi rasmlar asar mazmuniga moslab ishlangan bo'lishi kerak.

2. Mashg'ulotda o'qib beriladigan kitob oldindan tanlab qo'yilishi lozim. Kitob ustida ishlab bo'lingach u sinf kutubxonasiga qo'yiladi. O'quvchilarga bo'sh vaqtlarida uni varaqlab kuzatishlari aytiladi.

3. Qiziqarli ertak, masal va she'riy asarlar o'quvchilarda o'qishga qiziqish uyg'otadi.

4. Sinfdan tashqari o'qish jarayonida nutq o'stirish ishlariga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilardan savollarga to'g'ri, tushunib va so'zlarni o'rinni ishlatib javob qaytarishlari talab qilinadi.

Bundan tashqari sinfdan tashqari dars mashg'ulotlarini tashkil etishda AKT dan to'g'ri foydalanish yaxshi samara beradi. Microsoft Power Point dasturlari yordamida yaratilgan taqdimotlar ta'lim jarayonida AKT dan foydalanish juda samarali shakli hisoblanadi. Taqdimotda asosiysi – axborotliligi, ko'rgazmaliligi, qiziquvchanligi hisoblanadi. Mazkur dastur orqali turli mavzu va fanlar bo'yicha taqdimotlar yaratishda fotosuratlar, rasmlar, animatsiya, qo'shimcha axborotlardan foydalanish mumkin. 1-sinfda o'qish darsida elektron o'quv qo'llanmalarni tayyorlab, foydalanish mumkin. Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarda o'qish darsiga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'yin shaklida o'quv materialini bilan tanishish imkonini beradi, o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiya uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu qo'llanma bo'yicha ta'lim jarayonini differentsiyalashga turli darajadagi murakkablikdagi topshiriqlarni tanlab olish yordamida erishiladi. Savodxonlikka o'qitish bo'yicha tematik rejalashtirishni ishlab chiqishda rejalashtirishga tegishli elektron mavzular va bo'limlarni kiritish mumkin. Dars rejasini ishlab chiqishda frontal, individual va guruhli ishlash uchun kompyuterni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lgan dars bosqichlarini ishlab chiqish lozim.

Hozirgi kunda barcha umumta'lim maktab xonalari televizor bilan ta'minlangan. Sinfdan tashqari darslarni tashkil etishda aynan o'quv xonasidagi televizordan foydalanib dars o'tish o'qitishning samarali yo'lidir. O'qituvchi o'rganilishi kerak bo'lgan ertak, hikoya yoki rivoyatni elektron nusxasini televizor orqali namoyish etib berilsa, o'quvchilar yanada qiziqib tushunadilar, ertak qahramonlarini jonli ko'radilar va ovozi eshitadilar. O'qituvchi bolalarning his tuyg'ularini o'stiradigan Ona vatanimiz to'g'risidagi videoroliklarni qo'yib berishi orqali mustaqil mamlakatimizning go'zal shaharlari, qishloqlari, milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, o'tmishi, insonlarning orzu istaklari bilan tanishadilar. Ularda bilimga havas uyg'onadi.

2-sinfda o'quvchilar kichik hajmdagi asarlarni o'qituvchining yordami va topshirig'i asosida mustaqil o'qishga o'tadilar. Bu sinfdan 2 haftada bir marta sinfdan tashqari o'qish

dashlari o'tkaziladi. Ona Vatan va ota-bobolar jasorati, o'simliklar, qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlarini o'qituvchi topib, tanlab o'quvchilarga o'qish uchun tavsiya qiladi. Bundan tashqari, o'qituvchi Vatan, ota-bobolarimiz ko'rsatgan jasorat haqida hikoya qiluvchi turli xildagi videodarslar, buyuk ajdodlarimizning mardonavor rasmlari, ular qoldirgan nodir asarlar sur'atlarini, ona tabiatning mo'jizakor tabiat manzaralarini, qushlar va hayvonlarning turli-xil rang-barang rasmlarini taqdimot orqali o'qituvchi tomonidan ko'rsatilishi o'quvchilarning mavzuni yanada chuqur va teran anglashiga xizmat qiladi. 2-sinfda STO' mashg'uloti quyidagi tartibda olib boriladi:

1. O'quvchilarga o'qib beriladigan asarni diqqat bilan tinglash va eng muhim o'rinlarini eslab qolish kerakligini aytish;
2. Tanlangan asarni o'qituvchining ifodali (ayrim o'rinlarini takrorlab) o'qib berishi.
3. O'quvchilarning tinglagan asarlari yuzasidan birgalikda mulohaza yuritishlari, ayrim voqea va hodisalarni eslashlari.
4. O'quvchilarning kitobni ko'rib, undan o'qituvchi o'qib bergan asarni topishlari.
5. O'quvchilarga darsdan keyin sinf kutubxonasi yoki uylardagi kitoblar bilan ishlashga doir tafsiyalar berish.

O'quv yili davomidagi sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarining hammasi shu tartibda olib boriladi. Darsning boshlanish qismida esa hafta davomida o'tilgan darslarning o'quvchilar tomonidan bo'sh o'zlashtirilgan o'rinlarini mustahkamlashga e'tibor beriladi. Sinfdan tashqari o'qishning birinchi soatida o'quvchilarga shunday darslarning bir yilgi maqsad va vazifalari aytiladi. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotining boshlanish qismida o'quvchilar diqqatini to'plash maqsadida shunday murojaat qilinadi: Bolalar, bugun ajoyib bir kitobcha olib keldim. Bunda (o'qituvchi kitobni ko'rsatadi) juda qiziq ertaklar bor. Mana shu ertaklardan o'qib beraman. Mazmunini yaxshilab tushunish uchun e'tibor berib eshitib o'tirasiz. Eshiting...

O'qituvchi ertakni shoshilmay, muhim o'rinlarini takrorlab va ovozi ertak qahramonlari xarakteriga moslab o'qiydi. Ertak o'qiganidan keyin ertak qahramonlarini nomini aytishini so'raladi va o'qituvchi ekran orqali qahramonlarning suratini ko'rsatadi. O'quvchilar rasmga diqqat bilan e'tibor berib qaraydilar, qahramonlarga ta'rif beradilar. O'qituvchi shunday ketma-ketlikda rasmlarni ko'rsatib, uning mazmunini ochish va o'quvchilar tushunchasini kengaytirish maqsadida savol-javob o'tkazadi. So'ngida o'qilgan ertak yuzasidan test savollari o'tkaziladi. Bu ham albatta ekran orqali bajariladi.

3-4 sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil o'qishlari uchun kishilarning hayoti, yorqin tasvirlardan, ularning ma'naviy axloqiy turmush tarzi aks ettirilgan badiiy va ilmiy-ommobop asarlar tavsiya etiladi. 3-4 sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslari ikki haftada bir marta o'tkaziladi. Bu sinflarda o'qituvchi sinf kutubxonasida kerakli bo'lgan o'quvchilar yoshiga mos kitoblarni o'qish darslari ikki haftada bir marta o'tkaziladi. Bu sinflarda o'qituvchi sinf kutubxonasiga kerakli bo'lgan o'quvchilar yoshiga mos kitoblarni to'plashni davom ettiradi. Sinfdan tashqari o'qish burchagi turlicha bezatishi mumkin. Bunda o'qituvchi va o'quvchilar hamkorlikda ish olib boradilar. Badiiy va ilmiy-ommobop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina, o'quvchilarning dunyoqaraslarini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari o'qish bolalarda ezgulikka muxabbat, yozuvlikka nafarat uyg'otish, boglanishli nutqni o'stirish, adabiy-estetik tafakkurlarni yuksaltirishga xizmat qiladi. Bolalar adabiyoti avvalo o'zining qiziqarli

mazmuni, badiiy obrazlarning go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. Bolalar adabiyoti o'quvchilarga jonajon o'lka, tabiatni, kishilarning mehnati, hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklari, bolalar hayotidan olingan voqeelikni, bolalarning o'yinlarini tushunishga o'rgatadi. O'quvchilar ikki hafta davomida kitoblar bilan tanishadilar. O'zlariga yoddan asar qaxramonlarining rasmlarini chizadilar, aplikasiyalar bilan bezatilgan rasmlar ham tayyorlashlari mumkin. Pafta yakunida o'qigan kitoblari asosida sahna ko'rinishlari tayyorlaydilar, monolog va diologlar o'qiydilar. Savol-javob, test uslublaridan foydalaniladi. O'rganilayotgan mavzu yuzasidan oldinga tayyorlab qo'yilgan IceSpring Quizmarker dasturi orqali yaratilgan rasmlar testlar mavzuni oson yetkazishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari Internetdan mustaqil foydalanishni, kerakli axborotni tanlashni, uni saqlab qolish va taqdimotlar tuzish yoki turli xildagi loyihalarni ishlab chiqish va bajarishda keyingi ishlarida foydalanishni biladilar. 2-sinfdanoq o'quvchilar faqat daftarda emas, balki bevosita kompyuterda ham topshiriqlarni bajara oladilar. O'quvchilar kompyuter bilan ishlash birinchi ko'nikmalarni oladilar, o'zlarining nazariy bilimlarini doimiy chuqurlashtirib va amaliy ko'nikmalarini takomillashtirib boradilar. Boshlang'ich sinflarda fikrlash operatsion uslubini shakllantirishda informatika kursining roli juda muhim. Informatikaning ushbu roli harakatlari tuzilishini rejalashtirish, axborot izlash, muloqotni rejalashtirish, axborot modellarini qurish, faoliyatni vositalashtirish kabi dastlabki ko'nikma va malakalar to'plami ko'rinishida qaraladi. Kompyuterni o'qishda yordamchisi, ijodkorlik, o'zini ifoda etish va rivojlantirish vositasi sifatida tushunish katta ahamiyatga ega. Katta sinflar o'quvchilarida fikrlash uslubi shakllanib bo'ladi, yangi shakllarini ular qiyinchilik bilan qabul qiladilar. Ushbu kurs o'quvchilarida axborot bilan amaliy ishlashga o'rgatishi kerak. Boshlang'ich maktabda kompyuterni o'zlashtirib o'quvchilar undan o'z faoliyatlari vositasi sifatida boshqa sinflarda ham foydalanishlari mumkin, kompyuterni qo'llash bilan olib boriladigan darslar ularda qiyinchilik tug'dirmaydi. Shunday qilib, ushbu kursni boshlang'ich maktabda o'rganish o'quv jarayonini modernizatsiyalash, samaradorligini oshirish bilan birga, har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini hisobga olib, uni tabaqalashtirishga imkon beradi. Taklif etilayotgan kurs o'qituvchiga ta'limni erkin boshqarish va o'quv axborotlarini taqdim etish turli usullarini qo'llash imkonini beradi. Kursda loyiha-tadqiqotchilik faoliyatiga alohida o'rin ajratilgan. O'quvchilarning loyihachilik faoliyatlari mustaqil tadqiqotchilik malakalarini, ijodiy qobiliyatlarini va mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishga yordam beradi; o'quv jarayonida olgan bilimlarini birlashtiradi va o'quvchilarni aniq hayotiy muhim masalalarni hal qilishda ishtirok ettiradi, ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilar va o'quvchilar munosabati uslublarini demokratlashtirishga yordam beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarni qiziqarli olamga olib kirishda o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytiradi, bunda o'quvchilar axborotlarni mustaqil ravishda izlab topadilar, oladilar, tahlil qiladilar va boshqalarga yetkazadilar.

Xulosa qilib aytganda, bolani axborot bilan ishlashga, o'qishga o'rgatish – zamonaviy boshlang'ich sinflarning muhim vazifasi hisoblanadi. Boshlang'ich sinflar ta'lim jarayonida AKT dan foydalanish faqat asosiy yo'nalishlari shakllanadi. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarini tashkil etishda AKT dan keng foydalanish birinchi navbatda, bu turli hisobotlarni tayyorlash, sinfdan tashqari tadbirlarni o'tkazish va shu kabilardan iborat bo'ladi. Sinfdan

tashqari o'qish darslari o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi juda xilma-xil bo'ladi. Har bir dars o'qituvchi bilan o'quvchining ijodi hisoblanadi. Darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka yondashilsa, o'qituvchi o'z sinfida shunchalik katta muvaffaqiyatga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S. Matchonov va boshqalar. O'qish darslari. 2007-yil.
2. To'rt yillik boshlang'ich sinflarda "Sinfdan tashqari o'qish". Toshkent. "O'qituvchi", 2009-yil.
3. K. Qosimova. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi", 2005- yil.
4. B. Ma'qulova, D. Nasriddinova. Kitobim-oftobim. Toshkent. 2017-yil.
5. Farg'ona viloyati Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrasida "Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqini o'stirishda sinfdan tashqari o'qish darslarining ahamiyati" (boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik ko'rsatma). Farg'ona. 2016 yil.
6. 1-4 sinflar uchun "Sinfdan tashqari o'qish" kitoblari.

SECTION: MEDICAL SCIENCE

Бегижонова Дилфуза Тохировна
Ферганский медицинский институт общественного здоровья,
Бегижонов Бахтиёржон Кодиралиевич
Ферганский филиал Республиканского научного центра
экстренной медицинской помощи
(Фергана, Узбекистан)

**КЛИНИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ
У ПАЦИЕНТОВ С ИНТЕРСТИЦИАЛЬНОЙ ПНЕВМОНИЕЙ В г. ФЕРГАНА**

Ключевые слова: *коронавирусная инфекция, интерстициальная пневмония, диагностика.*

Введение: Коронавирусы – это большое семейство РНК - содержащих вирусов, способных инфицировать человека и некоторых животных. Пути передачи: воздушно - капельный и контактно - бытовой. В данное время COVID - 19 и связанные с ним осложнения занимают первое место по заразности среди всех инфекционных заболеваний. В связи с пандемией, а также из - за своих последствий COVID - 19 привлёк к себе всемирное внимание. Заболевших по миру составляет 175401190 человек, летальных случаев - 3783300 больных. На сегодняшний день болеют 12662039 человек, выздоровело с начала пандемии 158955851 человек. Количество стран, а также автономных территорий, в которых обнаружен коронавирус, составило в общей сложности 220 стран.

Цель: разработка отдельных мер профилактики заболевания, ранней диагностики пациентов и своевременное начало интенсивной терапии для снижения заболеваемости и смертности.

Материалы и методы исследования: Было проведено исследование заболеваемости населения в г. Фергана по статистическим данным в Ферганском филиале Республиканского научного центра экстренной медицинской помощи при отделении пульмонологической фармакологии **Результаты исследования и их обсуждение.** У 80% пациентов заболевание протекает в легкой форме ОРВИ. Средний возраст пациентов в г. Фергана составил 60 лет. В стационаре было 1829 больных. Из них: 956 мужчин (52,3%) и 873 женщины (47,7%).

Анализируя пациентов по возрасту:

6 больных в возрасте 0 - 9 лет (0,3%)

23 больных в возрасте 10 - 19 лет (1,2%)

67 больных в возрасте 20 - 29 лет (3,6%)

250 больных в возрасте 30 - 39 лет (13,6%)

333 больных в возрасте 40 - 49 лет (18,2%)

450 больных в возрасте 50 - 59 (24,6%)

480 больных в возрасте 60 - 69 лет (26,2%) и 220 больных (12,0%) в возрасте 70 лет и старше. Наибольшая частота заболеваемости и её тяжелые формы, по показаниям результатов анализа, развивались у пациентов в возрастной группе 60 - 69 лет (26,2%). У этой категории пациентов тяжесть течения заболевания усугублялась патофизиологическими изменениями, связанными с возрастом, метаболическим синдромом, синдромом гиперкоагуляции. Пациенты жаловались на сильный кашель, одышку, обильное потоотделение, общую слабость, потерю аппетита, диарею и лихорадку. У многих пациентов с коронавирусной пневмонией в анамнезе отмечались имеющиеся уже заболевания такие, как сахарный диабет (20%), артериальная гипертензия (15%) и другие сердечно - сосудистые заболевания (15%). На момент постановки диагноза проведено рентгенологическое обследование 945 пациентов. Из 726 пациентов, перенесших МСКТ, у 230 больных было 70-80% повреждений лёгких, а у 496 пациентов наблюдалось всего 20-30% повреждений лёгких. Изучение конституционных особенностей пациентов с коронавирусной инфекцией позволяет прогнозировать предрасположенность человека к какому - либо заболеванию, условий пребывания, по которым можно предвидеть снижение реактивности организма и разработать наиболее эффективные методы терапии. Кроме того, изменения в организме, вызванные коронавирусной пневмонией, являются важным фактором развития гипертонии, сахарного диабета, ИИС, атеросклероза и необходимости разработки отдельных профилактических мер. Из 1829 пациентов, пролеченных в больнице, общее состояние у 1724 (94,3%) пациентов после лечения стабилизировалось. Летальность наблюдалась у 105 (5,7%) пациентов.

Выводы. Исходя из вышеуказанных данных можно сделать выводы что, для достижения цели при борьбе с коронавирусной инфекцией необходима разработка отдельных мер профилактики заболевания, а также ранняя диагностика заболевания и своевременное начало процедур интенсивной терапии снижают заболеваемость населения и смертность среди больных. Для учета и анализа показателей клинических особенностей течения COVID - 19 необходимо введение единой отчётной формы, предусматривающей выделение в разделе «Коронавирусная инфекция »

Даминов Адхам Гиёсиддин угли, Давуров Жасур

1-курс,

Курбонов Наврузбек Зайниддинович

2-курс,

Резидент магистратуры кафедры анестезиологии и реаниматологии

Самаркандского Государственного Медицинского Института

Научный руководитель: профессор: Матлубов М. М.

(Самарканд, Узбекистан)

ОПТИМИЗАЦИЯ СПИНАЛЬНОЙ АНЕСТЕЗИИ В СОЧЕТАНИИ С ВНУТРИВЕННОЙ ИНФУЗИЕЙ ДЕКСМЕТОМИДИНА У БОЛЬНЫХ ПРИ ПРОКТОЛОГИЧЕСКИХ ОПЕРАЦИЯХ

Аннотация: В данной статье рассматриваются надежная анестезия в послеоперационном периоде - одно из важнейших звеньев в лечении проктологических больных, выраженность хирургического стресса, методы регионарной анестезии, гипнозный компонент, искусственная вентиляция легких, основная функция сопровождения хирургического наркоза почти все распространенные анестетики и опиоиды отрицательно влияют на когнитивные и психомоторные функции, «тяжелым» арсенал и дексметомидин.

Ключевые слова: хирургический стресс, осложнения, Гипнотический компонент, анестетики и опиоиды, наркоз, гипнозный компонент, дексметомидин

Актуальность: Надежное обезболивание хирургического вмешательства и послеоперационного периода при заболеваниях дистальной части прямой кишки и окружающих тканей, чрезвычайно богатых чувствительными нервными окончаниями – одно из важнейших звеньев лечения проктологических больных. Любое хирургическое вмешательство сопровождается изменениями нейроэндокринного, метаболического и воспалительного характера, составляющими в совокупности хирургический стресс-ответ. Происходят изменения и в системе гемостаза/фибринолиза, причем осложнения, прямо или косвенно с ними связанные, такие как инфаркт миокарда, инсульт, тромбоэмболия легочной артерии, составляют до половины причин послеоперационной летальности. Выраженность хирургического стресс-ответа зависит, в первую очередь, от травматичности оперативного вмешательства; открытые операции на органах брюшной полости являются высоко травматичными. Именно при этих операциях ограничение хирургического стресс-ответа становится важнейшей целью анестезии и послеоперационной интенсивной терапии. Одним из наиболее рациональных и патофизиологически оправданных подходов к решению этой задачи является повышение адекватности анестезии и послеоперационного обезболивания. Наиболее отчетливым стресс-лимитирующим эффектом обладают методики регионарной анестезии, в первую очередь, нейроаксиальные блокады местными анестетиками. С этой целью чаще всего применяется эпидуральная анестезия, она имеет определенные недостатки, технически сложен, особенно у гериатрических больных, сопровождается развитием

осложнений (артериальная гипотензия, повреждение твердой мозговой оболочки, спинного мозга, спинальный блок и т.д.). Основная задача анестезиологического сопровождения операции – адекватное обезболивание [2]. Гипнотический компонент, искусственная вентиляция легких и т.д., безусловно, важны, но они вторичны по отношению к анальгезии и напрямую от нее зависят: если обезболивание неадекватное, то значительно возрастают дозы, например, гипнотиков, миорелаксантов. Более того, применение такого арсенала анестезиолога значительно удлиняет время послеоперационного восстановления и, соответственно, удорожает анестезиологическое пособие, а также несет потенциальные риски для больного. Практически все общие анестетики и опиоиды оказывают неблагоприятное воздействие на когнитивные и психомоторные функции [6]. Так как опиоиды – базовая составляющая любой общей анестезии, то серьезные проблемы могут возникнуть в случае опиоидной толерантности и гипералгезии [7]. Соответственно, если можно обойтись без применения вышеуказанного «тяжелого» арсенала, то позитив очевиден и замечательно вписывается в концепцию FTS. Спинальная анестезия (СА) испытывает очередной всплеск популярности в XXI столетии благодаря своим преимуществам для пациента и врача [3]: идеальная анальгезия и миорелаксация превосходят самый глубокий наркоз, дешевизна и простота выполнения, отсутствует необходимость в медикаментозном сне и искусственной вентиляции легких, вызываемое укорочение кишечника позитивно влияет на визуализацию при работе в брюшной полости, снижается кровопотеря, стимулируется перистальтика, снижается риск инфекции и иммунодепрессии. При сравнении СА с эпидуральной анестезией первая имеет преимущества для интраоперационного обезболивания за счет большей интенсивности (плотности) блока [4]. Качество периоперационного обезболивания значительно возрастает, когда у СА появляется длительный «аналгетический хвост». Дексмедетомидин, пожалуй, можно смело назвать самым новым из препаратов, используемых для седации в практике анестезиологии и реаниматологии. И хотя хронологически впервые он был зарегистрирован в США под маркой Precedex® ("HospiraInc", США) еще в 1999 г., в Европе и России процесс согласования по клиническому применению препарата затянулся до 2011 и 2012 г. соответственно. Поэтому отечественные специалисты фактически не имели возможности до последнего времени оценить возможности этого препарата и использовать его преимущества в реальной клинической практике.

Цель работы:

Усовершенствовать способы спинальной анестезии в сочетании с внутривенной инфузией дексмедетомидина у больных при проктологических операциях.

Задачи исследования:

1. Определить частоту сопутствующей сердечно-сосудистой патологии, характер и клинические проявления возможных сердечно-сосудистых осложнений у больных с колопроктологическими патологиями в интра- и послеоперационном периоде.
2. Изучить и оценить результаты контроля показателей гемодинамики, после проведения спинальной анестезии стандартными дозами гипербарического раствора бупивакаина.

3. Изучить и оценить результаты контроля показателей гемодинамики, после проведения спинальной анестезии в сочетании с внутривенной инфузией дексметомидина у больных при проктологических операциях.

Материалы и методы исследования

В работе будут обследованы 120 больных, поступивших в клинику СамМИ-1 в плановом порядке для оперативного вмешательства по поводу хронической геморрой, трещина анального отверстия и свищ прямого кишечника. Все пациенты будут подобраны с имеющейся сопутствующей сердечно-сосудистой патологией (ИБС, ГБ). Возраст больных от 40 до 60 лет. Все пациенты будут разделены на три группы (контрольная А и Б, основная группа).

В контрольной группе будет проведена спинальная анестезия стандартными дозами гипербарического бупивакаина без применения преинфузии.

В основной группе будет проведена седельная анестезия низкими дозами дозами гипербарического бупивакаина с преинфузией кристаллоидами и синтетическими коллоидами (ГЭК) в предоперационном периоде.

- Ta'lim jarayonini tashkil etishda didaktik o'yinlardan, interfaol usullardan foydalanish

mahorati;

- Ilg'or pedagogik texnologiya bo'yicha bilimlarni o'zlashtirib borishi;
- Dars jarayonida harakatli o'yinlardan unumli foydalana bilishi;
- O'z ustida tinmay ishlashi, har sohaga oid yangiliklarni kuzatib borishi;

O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmogi lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustinligi ko'p qirrali samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib, o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo'ladilar, o'zgalar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar. Bu esa darsning samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi. //https://www/lex.uz.
2. Shavkat Mirziyoyev, 2017-yil, 22-dekabr, Oliy majlisga murojaatnomasidagi nutqidan.
3. Islomov.O.A,Nazarov.Sh.Q. "Ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar" Toshkent -2012 yil
4. D.A. Abduraxmonova, R.A. Mavlonova "Pedagogik mahorat" Toshkent-2012
5. www. "Ziyonet".uz tarmog'idagi ma'lumotlar.

Ражабова Лобар Чориевна
преподаватель кафедры дошкольного образования,
Абдихоликова Ханифа Икромжон кизи
студент кафедры дошкольного образования
Бухарский государственный университет
(Бухара, Узбекистан)

МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ ПЕДАГОГИКАСИНИНГ БОШҚА ФАНЛАР БИЛАН БОҒЛИҚЛИГИ

Аннотация. Ушбу мақолада мактабгача тарбия педагогикасининг бошқа фанлар билан боғлиқлиги, яъни фалсафа, тарихий материализм, этика, эстетика, физиология билан боғлиқлиги ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: мактабгача тарбия педагогикаси, фалсафа, тарихий материализм, этика, эстетика, физиология.

Бола туғилган кундан бошлаб, уни мактабга боргунга қадар бўлган даврда ҳар томонлама етук баркамол этиб тарбиялаш қонуниятларини ўрганиш мактабгача таълим педагогикасининг мувзуйидир. У мактабгача таълим муассасалари ва оиланинг тарбиявий таъсир кўрсатиши бирлигини, мактабгача таълим муассасаси ва мактаб ишидаги алоқадорлиқни, болаларни мактабда ўқишга тайёрлашни таъминлаб, ижтимоий мактабгача тарбия шароитида тарбия ва таълим бериш ишларининг вазифаларини, тамойилларини, мазмунини, методларини, шаклларини ва уни ташкил этишни ишлаб чиқди. Мактабгача таълим педагогикаси педагогика фанлар тизимида унинг ажралмас қисми бўлиб шаклланди



Мактабгача таълим педагогикасининг назарияси ва амалиёти мактабгача ёшдаги болаларга ҳар томонлама тарбия беришнинг мақсади, боланинг имкониятлари ва уни илк ёшдан бошлаб тарбиялашнинг роли, мактабгача тарбияни ҳаёт, замон билан боғлаб олиб боришнинг зарурлиги, бола шахсининг шаклланишида ижтимоий муҳитнинг ҳал қилувчи аҳамиятига асосланади.

Педагогика фани тарбияни педагогик ходиса сифатида ўрганиб, бир қатор тушунчаларни ўз ичига олади. Педагогикада тарбия, таълим, маълумот асосий тушунчалар ҳисобланади. Мактабгача таълим педагогикаси жамият ва инсонни ўрғанувчи фанлар билан чамбарчас боғланган. Педагогика ижтимоий ҳодиса сифатида тарбияни ўрганар экан, социология, анатомия, физиология, психология, умумий педагогика фанлари, фалсафа билан чамбарчас боғлиқдир. Чунки мазкур фанлар тарбиянинг мақсади ва вазифаларини ўрганиш методологиясини белгилайди.

Жамият тўғрисидаги материалистик **фалсафа** тарбия масаласига асосланган ҳолда ёндашиш имконини беради. **Тарихий материализм** педагогика тарбиянинг синфий моҳиятини очиб бериш, унинг пайдо бўлиши ва ривожланиши ижтимоий ходиса эканлигини, жамият ҳаётида ва киши шахсининг ривожланишида тарбиянинг ролини баҳолашга ёрдам беради. Дидактик масалаларни ишлаб чиқишда педагогика билиш назариясига суянади, ахлоқий тарбия масалаларини ўргатишда педагогика этиканинг ахлоқ тўғрисидаги таълимотига, эстетик тарбиянинг мақсадини, йўлларини, методларини белгилашда этика фанига асосланади.

Этика ахлоқни назарий жиҳатдан асослаб, ёш авлодни, унинг ахлоқий тарбияси муаммоларини, инсон шахсини шакллантиришда ахлоқий ғоялар ролини тушунишни чуқурлаштиради.

Эстетика – инсонларни воқеликка, санъатга эстетик муносабатларни ривожланишининг умумий қонуниятларини ўрғанади, нафосат тарбиясининг илмий асоси бўлиб хизмат қилади.

Физиология педагогиканинг табиийилмий базаси бўлиб, у биринчи навбатда инсон олий нерв фаолиятининг ривожланиши, нерв системасининг хусусиятлари, сезги органлари, таянч ҳаракат аппарати, юрак-томир ва нафас олиш системалари ва шу кабиларнинг ривожланиши ҳақидаги маълумотларга таянади. Ҳозирги замон физиологияси энг муҳим педагогик муаммоларни тўғри ҳал этишда: бола ривожланишига, унинг қобилиятларини шакллантиришга муҳит, ирсият ва тарбиянинг таъсири ва шу сингариларни бегилашда педагогикага ёрдам беради. Ўсиб бораётган организм тузилишининг ва ҳаракат қилиш қонуниятларининг асосий тамойилларини очиб берувчи ёш физиологияси таълим-тарбия бериш масалаларини ишлаб чиқиш учун катта аҳамиятга эга. Физиологиянинг олий нерв фаолияти, нерв системасининг типологик хусусиятлари тўғрисидаги хулосаларни педагогикага ўқув-тарбия жараёни методикасини ишлаб чиқишда, болалар фаолиятлари учун яхшироқ шароитлар яратишда ёрдам беради.

Мактабгача педагогика бола тарбиясида унинг ёш ва психологик хусусиятларини ҳисобга олиб боради. Шу боис педагогика учун педагогик психологиянинг бола хусусиятлари, уларда ўтадиган психик жараёнларининг қонуниятлари ҳақидаги маълумотлар муҳимдир. Шунга кўра педагогиканинг психологик фани билан боғлиқлиги анъанавий тус олган.

Мактабгача педагогика ўз тадқиқот объектига ва тадқиқот методларига эга. Илмий тадқиқот барча фанлар каби мактабгача педагогика фанини ҳам ривожланиб боришига, айрим педагогик ҳодисаларни такомиллаштиришга, уларни тўғри ҳал этиш йўлларини аниқлашга ёрдам беради.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Эргашева Г.Б., Рахматова Г.Б. Некоторые вопросы обеспечения взаимосвязи методов и средств обучения в учебном процессе // Проблемы педагогики. № 1 (46). 2020. С. 26-28.

УДК 37.013

Расулов Гиёсиддин Файзуллаевич
студент, факультет военного образования,
Бухарский государственный университет
(Бухара, Узбекистан)

БОШЛАНГИЧ СИНОФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ВАТАНПАРВАРЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ

Резюме. Ушбу мақолада умуминсоний қадриятлар ва миллий маънавий мерос ҳақида, Ватан тушунчаси ва ундан келиб чиқадиган Ватанпарварлик ҳақида, Ватанни муқаддаслиги ҳақида ўтмиш алломаларимизнинг қолдирган ўчмас фикрий асослари таҳлил қилинган. Бу хусусиятлар ўқувчиларнинг кейинчалик ҳаётда таркиб топган ватанпарварлик ҳисси билан шаклланади. Шунинг учун ҳам болага ғамхўрлик қилиш, унга ҳурмат муносабатига бўлиш ва кенг жамоа орасида ана шундай муҳитни вужудга келтириш ундан ватанпарварлик ҳиссига хос хусусиятларнинг намоён бўлишига олиб келади.

Калит сўзлар: маънавий мерос, Ватанпарварлик, меҳрибонлик, ижтимоий фаолият, фазилат, меҳнат, шахс ҳиссиёти, ҳамкорлик, дўстлик, ҳалоллик, поклик.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПАТРИОТИЗМА У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Резюме. В статье анализируются бессмертные интеллектуальные основы общечеловеческих ценностей и национального духовного наследия, оставленные нашими прошлыми учеными, концепция Родины и вытекающий из нее патриотизм, святость Родины. Эти качества формируются патриотическим чувством, которое ученики испытывают в своей жизни. Поэтому забота о ребенке, уважительное отношение к нему и создание такой среды среди широкой публики приводит к проявлению в нем патриотических качеств.

Ключевые слова: духовное наследие, патриотизм, доброта, социальная активность, добродетель, труд, личность, сотрудничество, дружба, честность, чистота.

Таълим ва тарбия жараёнида ёш авлод бугунги кунни ва янгича тусга кираётган жамиятимиз фаолиятни ўтмиш қадриятларсиз тўғри тасаввур этиши мушкулдир. Бугунги ва эртанги фаровонлик негизида албатта ўтмиш маънавият асоси мавжуддир. Умуминсоний қадрият миллий маънавий мерос, ўтмиш хотираларни тиклаш миллий ғурурни юзага келтиради. Ватанимизни ўтмиш тарихини одилонга ойдинлаштиради. Ана шунда Ватанимизни ўтмиши ҳақида кенгроқ тасаввурга эга бўлишади. Дарҳақиқат Ватанпарварлик –Ватан туйғуси қадриятлари миллий истиқлол мафқурасини ажралмас бир бўлаги ҳисобланади. Бу туйғу қадим - қадимдан ўтмиш бобоколонларимиз фаолиятида мужассам ўрин топган эди. Ватан учун курашиш ва керак бўлса жон фидо

этиш, уни ҳис туйғуси билан яшаш ҳар бир тарихий босқичда яшаган инсоният олдида турган юксак бурч ҳисобланган.

Ватан тушунчаси жамиятимизни ўтмиш тарихи жараёнида ҳам буюк инсоният томонидан таърифланган ва мадҳ этилган. Йирик истиқлолчи ва Абдулла Авлоний, “Ватан ҳар бир кишини туғилиб ўсган шаҳар ва мамлакатини шул кишининг Ватани дейилур. Ҳар ким туғилган ўсган ерини жонидан ортиқ суяр” деган фикрлари мазмунида Ватан шу қадар азиз эканлигини таъриф этишини кўрамиз.

«Маълумки, дунёда яшаган ҳар бир кишининг энг аямлик қизғаниб сақлайдиган беш нарсаи бордир: Биринчи – жони, кейингилари дини, моли, оиласи, Она – Ватандир»

Ватанни муқаддаслиги ҳақида ҳар бир алломанинг қолдирган ўчмас фикрий асослари мавжудки уларни ҳар бирини фикри ёш авлодлар учун тарбия мезонидир.

Ўтмиш тарихига эътибор қаратар эканмиз, Ватаннинг ҳудуди ва ҳаттоки, бир қарич ери учун ҳам жон куйдирган, эл юрт тинчлигини ўйлаб жон берган Широқ, Фрада, Самирис, Спитамен, Дадаршиш каби Ватанпарвар фарзандлар ҳақида кўплаб маълумотлар қолдирилган.

Попиен асарларида кўрсатилишича Чўлпон Широқ 2 кун мабойнида Доро II қўшинларини сувсиз саҳрода адаштириб, босқинчиларни мағлубиятга учратиб Ватан ҳимояси учун ўз жонини қурбон қилди. Ватанпарварлик тарбияси ҳақида гап юритар эканмиз Ватан учун эл юрт учун уни равнақи учун курашганлар Жалолоддин Мангуберди, соҳибқирон Амир Темур, Имом Бухорий, Имом Термизий, Мирзо Улуғбек, Хожа Аҳмад Яссавий, Хожа Баҳоувуддин Нақшбандий, Алишер Навоий ва бошқаларни мисол олиш мумкин.

Ўқитувчи болани кенг билимлар дунёсига етаклайди. Бола билим олишга қадам қўйган кундан бошлаб ўқиш унинг асосий машғулоти бўлиб қолади. Энди бола ўқувчи бўлганидан кейин эса мактабнинг маълум қоидаларига бўйсунган ҳолда ўқув топшириқларини бажаришга, фақат ўзига ёққан нарсаларнигина бўлиб қолмасдан, балки зарур бўлган пайтда ўзини қизиқтирмаётган нарсаларни ҳам бажаришга тўғри келади. Ана шундай вақтда болалар ўртасида дўстлик ўрнатиш, бир - бирларига ёрдам берадиган даражада тарбиялаш муҳим аҳамиятга эга. Чунки бундай хусусиятлар болани ҳар қандай қийинчиликларни энгишга, уларда мустақкам иродани таркиб топиб боришига, қизиқишлар доирасининг кенгайишига асос бўлади.

Буларнинг ҳаммаси ватанпарварлик ҳиссини тизимини яратишга замин бўлади.

Ўқувчиларнинг ватанпарварлик ҳиссини ҳақидаги билимлари, малакалари дастлаб дарсларда намоён бўлади. Ўқитувчининг педагогик маҳорати натижасида болаларда ўқишдаги дастлабки қадамлари муваффақиятли бўлади. Ўқишга бўлган қизиқиши, унинг виждонийлиги, тиришқоқлик, ўз кучи билан муваффақиятга эришишга интилиш каби ажойиб хусусиятлари шаклланиб боради. Хусусан, ўқишга тайёргарлик жараёнида билим, кўникмалар билан бирга кўпгина психологик сифатлар ҳам

таркиб топади. Бу сифатлар эса боланинг ҳатти - ҳаракатида, синфдошларига бўлган муносабатида акс этади. Ўқиш жараёнида ватанпарварлик ҳиссини бола онгига сингдириб борилади. Таълим жараёнида ўқувчининг ўқишга бўлган муносабати ўқитувчи томонидан доимо баҳоланиб борилади. Бу баҳо бола учун алоҳида маъно касб этади.

Албатта бунда ўқувчиларнинг фаолиятини тўғри ташкил этиш, уларда ватанпарварлик ҳиссини хусусиятларини шакллантириш ва уни мустаҳкамлаш керак. Шунини айтиш керакки, болаларда учрайдиган беихтиёрлик, ўзини тутат билмаслик жараёнининг кучсизлиги натижасида намоён бўлиши мумкин. Умуман, болалар қалбида ватанпарварлик ҳиссини пойдевори қўйилади. Булар: ростгўйлик, ҳалоллик, тўғрилик, дўстлик, ўртоқлик, сахийлик, ҳамжиҳатлик, ватанпарварлик ҳиссини, ватанпарварлик ҳиссини, хушмуомалалик, бошқаларга ҳурмат-иззат, катта-кичикка муносабат кабилар. Ўқувчиларда ватанпарварлик ҳиссини шакллантиришда давр мобайнида муҳим ўзгаришлар рўй беради. Бу ёшнинг охири даврларига келиб ватанпарварлик ҳиссини ҳақидаги билимлар, тасаввурлар ва мулоҳазалар сезиларли даражада бойийди, онглироқ тус олади, умумийлашади. Ўқувчилар ўз ҳатти-ҳаракатлари тажрибасига, ўқитувчилари ҳамда ота-оналарнинг берган кўрсатмаларига ва тушунтиришларига асосланган ҳолда ватанпарварлик ҳиссини ҳақида мулоҳазалар юритадилар.

У муваффақиятсизликка учраган пайтда ўз кучига ва имкониятларига бўлган ишончни йўқотиб қўйиши мумкин. Ўқувчиларда ватанпарварлик ҳиссини шакллантиришда қарама-қаршиликларни ҳам учратиш мумкин. Бу камчиликлар оила тарбиясида йўл қўйилган нуқсонлар оқибатида пайдо бўлиши мумкин. Бунда бола ўзининг барча талаб ва ҳоҳишлари қондирилишига одатланиб қолган бўлади. Боладаги бу салбий иллатлар асосан ўз олдига мактаб томонидан қўйган талабларга, норозилик аломатларида намоён бўлади. Шунингдек, бу ёшдаги ўқувчиларда меҳрибонлик, билимга қизиқувчанлик каби ижобий хислатлар мавжуд бўлади. Бу ёшдаги ўқувчиларнинг муҳим ёш хусусиятларидан бири тақлидчиликдир. Улар катта ёшли кишиларга ва баъзан тенгқурларига, шунинг билан бирга яхши кўрган китоблари ва кино фильмларидаги қаҳрамонларга тақлид қиладилар. Бу эса шахсий намуна бўлиш орқали шахсга хос ижтимоий қимматли хислатларини тарбия топиш имконини беради. Аммо буни хавфли томони ҳам йўқ эмас. Чунки бу ёшдаги ўқувчи катталардан фақат ижобий томонларинигина қабул қилмайди, балки тақлид объектидаги салбий хислат, қилиқ ва одатларни ҳам шундайлигича кўчириб олиши мумкин. Болалар ўз хурсандчиликларини, ташвишларини, ғамгинликларини, кўрқувларини, қаноат ҳосил қилганликларини ёки қаноатланмаганликларини самимий равишда, очиқ - ойдин изҳор қиладилар.

Шунингдек, бу ёшдаги болалар ҳиссиётларининг беқарорлиги, кайфиятларининг тез-тез ўзгариб туриши, руҳий ҳаяжонланишга мойилликлари, хурсандлик, ғамгинлик, ғазаб, кўрқувларининг қисқа муддатли ва жўшқин бўлиши билан ажралиб турадилар. Ёшлари улғайган сари уларда ўз ҳиссиётларини бошқариш ва бу ҳиссиётларнинг ёқимсиз намоён бўлишига йўл қўймаслик қобилияти ривожлана боради. Агар ўқитувчилар болада ватанпарварлик ҳиссини мақсадга мувофиқ равишда ҳосил қила борсалар, ватанпарварлик ҳиссини англаш сезиларли равишда намоён бўла бошлайди. Лекин, бу ёшдаги болаларда ватанпарварлик ҳиссини ҳали етарли даражада барқарор ва батамом мустақил бўлмайди.

Психологларнинг таъкидлашларига кўра, ўқувчиларда айрим далилларга, айрим ҳодисаларга нисбатан қизиқишлар ҳосил бўлади. Дастлаб, умуман китоб ўқишга, ундан сўнг эса мазмуни чуқур ва қизиқарли бўлган муайян адабиётларни, эртақларни, кейинроқ бориб қийин бўлмаган илмий, фантастик ва саргузашт асарларни ўқишга

қизиқиш пайдо бўлади. Кўпинча ўғил болаларда космик ракета, ой станцияси каби ҳозирги замон техникасига, энг янги турдаги автомобиль ва самолётларнинг янги турларига бўлган қизиқиш тез таркиб топади. Ўқувчиларда ўқишга бўлган қизиқишнинг ривожланиши асосан таълимий ишларнинг ташкил қилинишига боғлиқдир.

Шунинг учун ўқитувчи ўқувчилар билан ишлашда улар қизиқишларининг ривожланиш қонуниятларини назарда тутиши керак. Шуни ёдда сақлаш керакки, қизиқишларнинг ривожланиши оддийдан мураккабга, маълумдан номаълумга, яқиндан узоққа тасвирлашдан тушунишга, далиллардан умумлаштиришга қараб боради. Ўқувчида ўқишга бўлган қизиқишларни тарбиялаш борасида ўқувчилар қанчалик ёш бўлсалар, таълим шунчалик кўргазмали бўлиши лозимлигига эътиборни қаратиш керак.

Болада ўз қийинчиликлари ва нуқсонларини тушуниб, англаб олишда унга ўқитувчининг худди катта доно ўртоқдек ёрдам бериши унинг шахсига таъсир этишининг муҳим шarti ҳисобланади. Бу ерда ўқитувчи эътибор бериши лозим бўлган руҳий олам билан боғлиқ бўлган муҳим нозик нарса бор. Болаларнинг ижтимоий ишларни жамоа бўлиб амалга оширишда иштирок этишлари уларнинг бир-бирларига бўлган ишончни шакллантиради.

Айнан мана шундай ишларда бола жамоа орасида амалга ошириладиган ижтимоий фаолиятнинг асосий тажрибасини эгаллаб олади.

Ўқувчиларнинг ватанпарварлик ҳиссини фазилатларини камол топишида биргалашиб, жамоа бўлиб ўйнайдиган болалар ўйинлари ҳам катта роль ўйнайди. Чунки болалар ўйини фақат ирода, батартиблик, ҳозиржавоблик ва ташаббускорликни тарбиялаш билан бирга ўртоқлик, аҳиллик ҳиссини ва ўз ҳатти - ҳаракатларида жамоа манфаатларини кўзлаб иш кўриш фазилатларини ҳам тарбиялайди.

Хулоса қилиб айтганда юқорида кўрсатиб ўтилган ва бошқа қатор вазифаларни бажариш халқ таълими ходимларидан катта куч ва масъулиятни талаб этади.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Мамуров У.И. Формы и методы военно-патриотического воспитания // Вестник науки и образования. Часть 2. № 22 (100), 2020. С. 43-46.
2. Темиров У.Х. Принципы военно-патриотического образования// Вестник науки и образования. Часть 2. № 22 (100), 2020. С. 49-52.
3. Хамраев К.К. Организация тематических вечеров и встреч с ветеранами войны и труда в рамках военно-патриотического воспитания // Вестник науки и образования. Часть 2. № 22 (100), 2020. С. 52-55.

УДК 004

Расулов Гиёсиддин Файзуллаевич
студент, факультет военного образования,
Бухарский государственный университет
(Бухара, Узбекистан)

СПЕЦИФИКА ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Резюме. В данной статье обсуждается специфика дистанционного обучения в высшем образовании

Ключевые слова: дистанционное образование, образовательная среда, учебная информация, методическое обеспечение, имитационное моделирование.

THE SPECIFICS OF DISTANCE LEARNING IN HIGHER EDUCATION

Summary. В данной статье обсуждается специфика дистанционного обучения в высшем образовании.

Key words: distance education, educational environment, educational information, methodological support, simulation modeling.

Дистанционное образование - комплекс образовательных услуг, предоставляемых широким слоям населения в стране и за рубежом с помощью специализированной информационной образовательной среды, базирующейся на средствах обмена учебной информацией на расстоянии (спутниковое телевидение, радио, компьютерная связь и т.п.).

Информационно-образовательная среда ДО представляет собой системно-организованную совокупность: средств передачи данных, информационных ресурсов, протоколов взаимодействия, аппаратно-программного и организационно - методического обеспечения, ориентированную на удовлетворение образовательных потребностей пользователей.

Наиболее трудоемкой и, более того, пока еще не очень ясной остается задача реализации лабораторного практикума в системе дистанционного обучения. Это особенно важно для технических университетов.

Возможными решениями, кроме тривиального – исключения лабораторного практикума, могут быть:

- применение имитационного моделирования, заменяющего натурный эксперимент;
- реализация удаленного доступа к результатам эксперимента;
- реализация удаленного доступа к проведению эксперимента.

Имитационное моделирование позволяет с минимальными затратами на аппаратное обеспечение смоделировать практически любой лабораторный эксперимент. Может даже оказаться, что компьютерная реализация исследуемого на лабораторном стенде процесса в методическом смысле будет наиболее удачной и полной.

Однако, при всем богатстве возможностей имитационного моделирования, кроме психологического ощущения нереальности происходящего, остаются эксперименты, которые невозможно заменить моделями просто потому, что их результаты принципиально не просчитываются заранее.

В этих случаях должен быть обеспечен доступ к реальному эксперименту. Наиболее простой вариант – удаленный доступ к результатам эксперимента. Исходя из этого варианта, лабораторная работа проводится обычным (очным) образом, а экспериментальные данные передаются в Internet на соответствующую Web-страницу, содержащую подробный теоретический материал, описание лабораторного стенда, контрольные вопросы, литературу и т.п.

Подобное участие в лабораторном практикуме можно назвать режимом «наблюдения». Для наиболее активного участия в эксперименте должна быть обеспечена возможность удаленного управления экспериментом.

О тенденциях развития системы дистанционного обучения. Впервые за несколько лет экономической кризис августа 1998 года заставил задуматься об эффективности образовательного процесса, его рентабельности в целом и, в том числе, различных систем дистанционного обучения. Рассмотрим оценку некоторых проблем эффективности ряда систем дистанционного обучения.

Так, несмотря на кризисное состояние, наборы студентов по системам дистанционного обучения вузов не уменьшились, а кое-где даже увеличились. Хотя объективно казалось, что в условиях снижения платежеспособности населения возлагать надежды на расширение рынка образовательных услуг нецелесообразно. Причин для этого несколько. Основная из них заключается в непродуманной стратегии ценовой политики вузов в регионах, приводящей к резкому увеличению цен на образовательные услуги в традиционных формах обучения. Кроме того, анализ ситуации на рынке образовательных услуг показывает, что потребности в образовательном процессе не уменьшились. Основная масса студентов прекрасно понимает, что качественное высшее образование сегодня - это их устойчивое экономическое положение в будущем. При этом большей популярностью не всегда пользуются вузы, оплата за обучение в которых значительно меньше. Студенты предпочитают платить несколько больше, но получать образование в более престижном вузе либо в вузе, использующем новые перспективные образовательные и информационные технологии.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Журнал PCWEEK Russian edition №5 (227) 2000 год
2. <http://www.informika.ru/>
3. dlc.miem.edu.ru

Рахимова Мадина Хасановна
психолог, юридический техникум Бухарской области
(Бухара, Узбекистан)

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА БОЛАЛАР НУТҚИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ

Аннотация. Нутқ – инсонларнинг тилдан таълим олиш, яъни ахборотни қабул қилиш ва узатишда фойдаланиш жараёни сифатида тушунилади. Нутқни ривожлантириш методикаси – мактабгача ёшдаги болаларда нутқни ривожлантиришга йўналтирилган педагогик фаолият қонуниятларини ўрганувчи фандир. Ушбу мақолада мактабгача таълимда болалар нутқини ривожлантиришнинг дидактик асослари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: она тили, нутқ, оғзаки нутқ, қобилияти, психолингвистик, лингводидактик асослар, мантиқий ҳамда эмоционал-образли ифодалилик.

Илк ёшдаги ва мактабгача ёшдаги болалар тарбиячисининг болаларга уларнинг ўз она тилини ўргата олиш қобилияти унинг касбий тайёргарлигининг муҳим кўрсаткичи ҳисобланади. Болага табиат ато қилган барча ақлий қобилиятлар она тилини ўзлаштириш, айниқса уни мактабгача ёшда ўрганиб олиш туфайли юзага чиқади ҳамда ривожланади. Болаларнинг она тилида авлоддан-авлодга ўтиб келаётган халқ маънавий бойликларини қанчалик мерос қилиб олишлари, тарбияланувчиларнинг келгусида ўз даврининг илмий ютуқларини ўзлаштира олишлари, яъни мустақил Ўзбекистонда демократик жамиятнинг тўлақонли курувчилари бўла олишлари тарбиячига боғлиқдир. Болаларга она тилини ўргатиш учун бўлажак тарбиячи нутқни ривожлантириш методикаси назариясини чуқур ўрганиши ва ушбу соҳанинг фанга маълум бўлган методларини ўзлаштириши, боланинг она тилини ўзлаштириш қонуниятларини тушуниб етиши лозим.

Нутқни ривожлантириш методикаси – мактабгача ёшдаги болаларда нутқни ривожлантиришга йўналтирилган педагогик фаолият қонуниятларини ўрганувчи фандир. Методиканинг асосий вазифаси – илмий-педагогик асосда нутқни ривожлантиришнинг энг самарали воситалари, методлари ва усулларини ишлаб чиқиш ҳамда болаларда зарур нутқий кўникмаларни муваффақиятли равишда ривожлантиришлари учун болалар боғчалари тарбиячиларини улар билан куруллантиришдан иборатдир. Нутқни ривожлантириш методикасининг асосий мазмуни – болаларда оғзаки нутқни, унинг атрофдагилар билан нутқий мулоқоти кўникмаларини шакллантиришдир.

Нутқни ривожлантириш методикаси қуйидаги асосий саволларга жавоб топиш имконини беради: нимани ўқитиш (болаларда қандай нутқий кўникмани тарбиялаш), қандай ўқитиш (болалар нутқини шакллантиришда қандай шароитларда қайси метод ва усуллардан фойдаланиш лозим), нега айнан шундай ўқитиш зарур (нутқни ривожлантиришнинг тақлиф этилаётган усуллари назария ва амалиётнинг қайси маълумотларига асосланмоқда). Методик назарияни билмайдиган тарбиячи фақат ўз

фаразларидан келиб чиқиб ёки бошқаларнинг тажрибаларидан нусха кўчирган холда болаларни кўр-кўрона тарбиялайди. У кўп нарсани назардан қочиради, чунки ранг-баранг методлар ва усулларни билмайди. Нутқни ривожлантириш методикаси мактабгача таълимдаги бошқа хусусий методикалар билан узвий боғлиқ бўлади, чунки нутқ – бола шахсини тўла-тўқис ривожлантиришнинг энг муҳим воситаларидан биридир. Атрофдагилар нутқини тушуниш ва боланинг ўз фаол нутқи хар қандай педагогик жараёнда зарур. Нутқ боланинг бутун фаолиятида унга йўлдош бўлади.

Мактабгача ёшдаги болаларда оғзаки нутқни шакллантиришга доир фаолиятга тайёрлашда асосан қуйидаги вазифаларни ҳал этишни кўзда тутати:

- турли ёш босқичларида бўлган мактабгача ёшдаги болалар нутқини ривожлантириш хусусиятларини кўра олиш ва тушуниш қобилиятини шакллантириш;

- нафақат бола ёшини, балки унинг ўзига хос хусусиятларини ҳам ҳисобга олган холда унинг нутқига таъсир кўрсатиш ва у билан ҳамкорлик қилишнинг энг самарали йўлини тўғри танлашни ўргатиш ҳамда олинган натижаларни таҳлил қилиш;

- болалар нутқининг турли қирраларини ривожлантиришнинг аниқ методлари ва усулларига доир билимлар ҳамда уларни дидактик нутқий мулоқот вазиятларида қўллаш ўзлаштирилишини таъминлаш;

- ўқув-методик қўлланмаларни танқидий таҳлил қилишга таянган холда мактабгача ёшдаги болалар нутқига таъсир кўрсатиш борасида ўзининг оригинал усуллари ва йўлларини яратишга интилишни рағбатлантириш;

- замонавий ўзбек тилини, илк ва мактабгача ёшдаги болалар нутқини ривожлантириш хусусиятлари, она тилини ўқитишнинг психолингвистик, лингводидактик асосларини билиш асосида уларни амалиётда қўллаш методикаси асосларини ўзлаштириш;

- ўқишда ва нутқда мантиқий ҳамда эмоционал-образли ифодалиликни ўрганиш қобилияти ва кўникмаларини эгаллаш; бадий асарни таҳлил қила олиш ва уни ижро этишни билиш; болаларда луғат бойлигини ривожлантириш, талаффуз кўникмаларини, грамматик жихатдан тўғри нутқни шакллантириш мақсадида уларнинг нутқий фаолиятини йўлга қўйиш ҳамда болаларнинг бир-бирлари билан ҳамда бошқа шахслар билан мулоқотларини ташкил этиш кўникмаларини ўзлаштириш.

Нутқни ривожлантириш – боланинг яқка тартибдаги психологик ривожланишида марказий ўрин тутадиган ижтимоий – тарихий тажрибани ўзлаштиришдаги ўта мураккаб кўп омилли жараёндир. Бу ижодий жараён, аммо у педагогик раҳбарликни талаб этувчи тасодифий жараён эмас. Болалар нутқини ривожлантиришга доир ишларни ўзида болаларга нисбатан қадриятли муносабатларни шакллантирган, яхши назарий ҳамда амалий тажрибага эга бўлган мутахассис ташкил қилиши ва амалга ошириши лозим.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Эргашева Г.Б., Рахматова Г.Б. Некоторые вопросы обеспечения взаимосвязи методов и средств обучения в учебном процессе//Проблемы педагогики. № 1 (46). 2020. С. 26-28

Уразбаева М. Р.
Студентка 4 курса УрГУ,
Дусметова М. М.
Старший преподаватель кафедры НО и СВР, УрГУ,
Дусметова С. М.
Магистрант УрГУ
(Ургенч, Узбекистан)

ПРОЕКТНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности мотивации в дидактической процессе используемых в учебном процессе начальной школы, а также их роль в духовном и умственном развитии детей.

Ключевые слова: исследовательская деятельность, мотивация, информация, образовательное пространство, деятельность, исследование, проблема, результат.

Annotation: This article deals with the importance of teaching primary school in educational process.

Key words: research process motivation, information, study, problem, result.

В настоящее необходимо создать условия для повышения качества учебно-воспитательного процесса. Ученики современной школы должны обладать практико-ориентированными знаниями, необходимыми для успешной адаптации в обществе. Вместо того, чтобы давать ученику готовые знания, умения и навыки нужно помочь ученику развиваться как личность, развить его творческие способности, привить самостоятельность мышления и чувство ответственности. Для этого нужно использовать проектно-исследовательскую деятельность.

Проектно-исследовательская деятельность ученика не является новой в образовании. Метод проектов применялся раньше, в советской школе. В странах, где учителя применяли метод исследований, считают, что его необходимо применять в качестве дополнения к другим видам обучения. На современном этапе развития образования, обучение в проектно-исследовательской форме не отрицает систематического усвоения знаний. Этот вид деятельности сегодня используется в учебно-воспитательном процессе и позволяет ученикам осуществить свои первые шаги в самостоятельной исследовательской работе.

Умения и навыки, которые ученики получают в работе над проектом, помогают им в учебной деятельности. Они более уверенно чувствуют себя на уроках, не боятся выступать на публике, умеют выражать своё мнение.

Есть мнение, что использование проектно-исследовательской деятельности не очень эффективно в начальных классах, так как проекты, сделанные учениками младших классов не такие грандиозные, как у старшеклассников. Но всё равно они считаются

проектами, нужно приучать учеников к самостоятельной поисково-исследовательской деятельности.

Чтобы привить детям начальные навыки исследовательского поведения ученику нужно:

- видеть проблему;
- выдвигать гипотезы;
- классифицировать;
- наблюдать;
- делать выводы;
- привести аргументы;
- защитить выдвинутую гипотезу.

При организации проектно-исследовательской деятельности учитель должен учитывать возрастные и психолого-физиологические особенности учеников.

1. Что же такое проект? Проект – это «пять П»:

- проблема;
- проектирование (планирование);
- поиск информации;
- продукт;
- презентация.

2. Необходимо выбрать тему проблемы для ученика.

3. Необходимо спланировать действия по разрешению проблемы.

4. Любой проект требует исследовательской работы учащихся. Отличительная черта проектной деятельности – это поиск информации.

5. Результат работы - продукт.

6. Готовый проект должен быть защищён, то есть представлен общественности.

На завершающем этапе ученики должны предоставить презентацию.

Однако мы знаем, что ученики начальных классов не смогут самостоятельно найти информацию. И в этом им могут помочь родители.

При выборе темы исследования родители могут помочь выбрать лучшую тему и объяснить, почему они выбрали именно её.

Дальше идёт выдвижение первоначальной гипотезы. Здесь родители могут помочь ребенку выдвинуть как можно больше идей и записать их, а потом систематизировать.

При сборе материала родители могут посоветовать, дополнить список необходимых источников по теме исследования или исключить из него те, которые не совсем соответствуют выбранной теме.

При обобщении родители могут помочь ребенку кратко изложить самое главное, то есть, выделить суть. Для этого нужно приготовить текст выступления и подготовиться к ответам на вопросы по результатам исследования.

Приведём пример проектно-исследовательской деятельности в 1 классе

Задание. В стране Математика живут три друга, Ниф, Наф и Нуф. Между их домами проложены дорожки, по которым они ходят друг к другу в гости. Однажды они поспорили, какая из этих дорожек самая короткая, а какая самая длинная, но так и не

смогли прийти к одному мнению. Нужно помочь друзьям: раскрасьте самую короткую дорожку красным карандашом, а самую длинную синим.

Смысл задания. Это задание на сравнение *величин*, если говорить конкретно то на сравнение *длин*, *где* начинается исследование. Дети высказывают свои предположения-гипотезы, которые потом они могут подтвердить или же наоборот, опровергнуть. Самая короткая дорожка может быть определена визуально, на глаз, что тоже подходящий способ действия. Но выбор на глаз самой длинной из двух оставшихся дорожек может привести к ошибке. Наиболее естественный на данный момент способ состоит в использовании линейки, нитки, края листа бумаги и т.д.

Проектная деятельность, которой учитель уделяет много внимания на уроках очень важна для формирования умения вести исследовательскую работу.

Ученики обычно охотно включаются в самостоятельный поиск новой информации.. В результате у детей развиваются речевые умения, формируется монологическая речь.

Таким образом, используя проектно-исследовательский метод, учитель позволяет активизировать познавательную деятельность учащихся, оживляет традиционный учебный процесс, способствует прогрессу в развитии индивидуальных качеств каждого ученика.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Проектные задачи в начальной школе./под редакцией А.Б. Воронцова. - М. «Просвещение»-2011 г.
2. Журнал «Начальная школа» - №2 /2012 г.

SECTION: PHILOLOGY AND LINGUISTICS

Abdusattorova Maftuna Bahodirovna
Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti
"Folklorshunoslik va Dialektologiya" yo'nalishi talabasi
(Samarqand, Uzbekistan)

“XUSHKELDI” DOSTONIDA LEKSIK DIALEKTIZMLARNING QO‘LLANILISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining o'lmas durdonalaridan biri bo'lgan Ergash Jumanbulbul o'g'li kuylagan dostonlar tarkibiga kiruvchi "Xushkeldi" dostoni matni va unda uchraydigan leksik dialektal so'zlar tadqiq etilgan bo'lib, shevaga xos so'zlarning doston badiiyatidagi o'rnini, semantik va funksional jihatlari o'rganilgan. Tahlillar shevaga xos birliklarning guruhlanishi asosida ekanligi ishning ilmiy-nazariy ahamiyatini oshirgan. Maqolada shevaga xos birliklarning doston tilida uchrashi asarning tilini jozibador va jonli qilganligi xulosasi ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar. *Leksik dialektizmlar, doston tili qipchoq shevasi, baxshi mahorati, ota va o'g'il bir biriga murojaati, shevaga xos ko'rinishi, lug'atlardagi izoh, so'zlarning qo'llanilish o'rnini.*

Kirish. Hozirgi kunda o'zbek dialektologiyasi bo'yicha o'rganilishi kerak bo'lgan muammolar anchaginani tashkil qiladi. Dialektlar xalqlarning qadimiy tarixini, ijtimoiy holatini, madaniyatini yaqqol namoyon qiluvchi oyna vazifasini o'taydi. Prezidentimiz urf-odatlarimiz, milliy an'analarimizni qayta tiklashga va xalqimizni o'zini anglashga, ota-bobolarimizning qilgan ishlari va tilimizning naqadar boy ekanligini anglashimiz uchun bizga barcha yo'llarni ochib berdilar. Tilimizdagi kamchiliklarni o'rganish va tahlil qilish bizning asosiy vazifalarimizdan biridir. Xalqlarning eng katta merosi uning avlodlarga qolgan asarlari va xalq og'zaki ijodida yaqqol namoyon bo'ladi. Xalq og'zaki ijodining eng yirik janrlaridan biri dostonidir. Dostonlar baxshilar tomonidan mohirona kuylanib xalqning o'tmishini va hayot tarzini ochib berib kuylangan. Dostonlarda insoniyatning eng qadimgi ijtimoiy holatlari va o'sha davrning muhitini ko'rish mumkin. Shuning uchun dostonlar adabiyotimizdagi eng muhim janrdir. Baxshilar tomonidan kuylanadigan dostonlarda qanday dialektal birliklarning ifodalanishi, ularning qay o'rinda qanday ma'noni ifodalashi, shevalarning qay yo'sinda qo'llanilishi va hozirgi xalq tilida ham ishlatilish o'rnini, adabiy tilimizda qanday o'rin tutishini aniqlash ishimizning dolzarbligini belgilab beradi.

Nazariy asos. Tilshunosligimizda dostonlarning leksikasi, ularda shevalarning qo'llanilishi, dialektal birliklarning fonetik, semantik va funksional jihatlari ochib berish uchun bir qancha tadqiqotlar ham amalga oshirilgan. Jumladan dostonlarning leksikasi, dialektal birliklarning tahlili doston tili yuzasidan bir qancha olimlar o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab o'rganib kelmoqdalar Xususan Sh. Shoabdurahmonov, X. Doniyorov, X. Abdurahmonov, A. Ishaev, R. Rasulov va S. Tursunovlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni keltirish mumkin. Mustaqillik yillarida ham tilshunosligimizda bir qancha tilshunos olimlarimiz

O'rinboeva D, Shavkat Mahmadiyev, Guljahon Jumanazarova, Abdurahabjon Xaliqov Farida Hayitova, Muhabbat Jumaniyozova, Jamila Xolmurotova, Ahmad Rahimov, Bibish Jo'rayeva, Muhabbat Yoqubbekova, Muyassar Saparniyozova tadqiqotchilarimizni ishlarini ko'rishimiz mumkin! Yuqorida keltirilgan tadqiqotchilarimizning ishlari anchagina muammolarimizni yechib bergan bo'lsa ham dostonlarimizdagi dialektal birliklar to'laonli hanuzgacha yoritilib berilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun biz yuqorida keltirilgan tadqiqotchilarimizning ishlariga tayangan holda Ergash Jumanbulbul kuylagan "Xushkeldi" dostonini dialektal tahlil qilishga kirishdik va ishimizda birliklarni ochib berishga harakat qildik.

Natijalar. O'zbek xalq dostonlari leksikasining sezilarli qismi dialektizmlardan iborat. Agar xalq baxshilarining ko'pchiligi qipchoq dialekti vakillari ekanligini inobatga olsak, dostonlar matnida uchraydigan dialektal elementlarning ham asosiylari ana shu shevaga daxldor ekanligi ayon bo'ladi. Shu sababdan o'zbek xalq og'zaki ijodining yuksak namunalarida qipchoq dialekti va shevalariga xos bo'lgan xususiyatlarni ko'ramiz. Jumladan, «Xushkeldi» dostonining Ergash Jumanbulbul o'g'li tomonidan kuylanganligi, baxshining je-lovchi sheva vakilli ekanligi tabiiy ravishda bu doston matnidani ma'lum bo'lib turadi. Ammo matndagi dialektizmlarning hammasi ham lug'atlarda aks etgan emas. Matnda berilgan izoh va ma'lumotlar olim doston matni ustida uzoq izlanishlar olib borganligini ko'rsatadi. Keltirmoqchi bo'lgan misolimizda ota va o'g'il o'rtasidagi suhbatda ularning bir birlariga qilgan murojaatlarini turlicha ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin. Avazxonning otasiga qarab aytgan g'azali:

Barchani yaratgan qudratli jabbor,
Har kimni bir kuyga qildi girifdor,
Arzimga quloq sol
Chambil to'rasi, Otim Avaz aytadigan arzim bor.

Ushbu misralarda Avazning otasini Chambil to'rasi ekanligini takidlaydi. **To'ra** so'zining adabiy tilimizda ma'nosi "**boshliq**" deganidir. Bu murojaat orqali Avaz otasining Chambil elining **boshlig'i** ekanligini ayatyapti.

Arila bilmagan tog'larning qori,
Tirama pishadi bog'ning anori,
Otim Avaz, aytadigan arzim bor
Arzimga quloq sol, **Yovmit sardori**.

Bu misralarda Avaz otasini **Yovmit yurtining sardori** deb ta'rif qiladi. Bu ta'rif orqali shoir takrorlardan holilikni, dostonning yangicha jozibasini ko'rsatib beradi. Bu orqali baxshining kuylagan dostonidagi topqirli, o'zining dostonini kuylayotganda mohrlilik bilan so'zlardan foydalanayotganligiga guvoh bo'lamiz. Bundan tashqari yuqorida keltirilgan baytda "**tirama**" so'zini ham qo'llaganligini uchratamiz bu so'zning lug'atlarda keltirilgan ma'nosi **kuz fasliga nisbat** berib shevalarda ishlatiladi.

Arila bilmagan tog'ning tumani,
Adolatli elimizning zamoni,
Bol Avazning sizga aytar arzi bor,
Arzimga quloq sol **Yovmitning xoni**.

Yuqoridagi fikrlarimizni ushbu misrada qo'llangan, Yovmit xoni ta'rifiga ham keltirishimiz mumkin. Savol tug'iladi nima uchun baxshi ham Yovmit sardori, ham Yovmit xoni deya ta'rif berayapti? Javob shundayki Go'ro'lini shoir nafaqat yurtning egasi va shu yurtning lashkarboshisi, bundan tashqari Go'ro'g'lining naqadar qirrali ekanligini baxshi shu ta'riflar orqali keltirayapti.

Kumush bo'lar tarlon qushning chegasi,
G'ola bo'lar bedov otning to'g'asi,
Makkamsan, Madinam-qiblagohimsan,
Arzimga quloq sol, **yurtning egasi.**

Avazning tilidan keltirilgan bu ta'riflar Go'ro'lini butun bir yurtning egasi ekanligi, uning janglarda mardlik, jasurlik ko'rsatganligini yuqoridagi ta'riflar orqali keltiradi. Shuning uchun u har bir misralarda otasiga turlicha ta'riflarni keltiradi.

Yetti yoshda olib kelding o'zimni.
O'zim o'lmay g'anim bosmas izimni,
Omin de qo'lingni ko'tar **otajon,**
Xizmat qilib haqlab kelay tuzingni.

Bu misradagi **otajon** so'zi vaziyatni yanada yumshatish, otasidan safarga ruxsat berishini yaliniib so'rayotganligini ko'ramiz. Yuqoridagi ta'riflarda Avaz Go'ro'g'lini maqtab ta'rifini keltirib endi yumshatish holatiga o'tganligini ko'ramiz.

Shoir vaziyatlarni sinchiklab o'rganib dostonning ichidagi qahramonlar bilan birga yashab kun kechirganligini baxshining ijrosini mohirligini isbotlaydi.

Keyingi misralarda Go'ro'g'lining farzandiga aytgan gaplarini tahlilini keltiramiz.

Chor hokim emasman, Chambilgadir xon,
Azamatga berdim kark teri qalqon
Niyati g'azoga talab aylama,
G'azo uchun talab qilma **Avazjon.**

Go'ro'g'li farzandiga Avazjon deb gapiradi. Bunda uning maqsadi farzandini olib qolish va ahddan qaytarishdir. Tilimizda "**jon**" qo'shimchasi erkalash, suyish ma'nolarini ifodalaydi. Go'ro'g'li bolasini qanchalik yaxshi ko'rishini ko'rsatib berish maqsadida shoir **Avazjon** so'zini qo'llagan

Yosh bolasan senga nima dey endi,
Davlating bor, turli libos kiy endi,
G'azo uchun talab qilma, **farzandim,**
Hali yoshsan, bolam, g'azo qiyindir.

Farzandim, bolam so'zlarini keltirish orqali shoir Go'ro'lini bolasini juda avaylashini, doim oldida bo'linishini, u istagan narsalarini muhayyo qilishini ko'rsatib beradi.

Yig'latib ko'zimni giryon aylama,
Alag'da qib yuragim qon aylama,
Farzandim, **ko'zimning oqi-qorasi,**
Qarigan otangni sarson aylama.

Bu misrada Go'ro'g'lining befarzandligi yolg'iz Avaz uning ko'zining **oqi-qorosi ekanligini**, farzandini juda yaxshi ko'rishini Go'ro'li tilida Avazga baxshi yetkazayapti.

Uzoqdan chopilar otning sarasi,
Yigitni maytarar baxtning qorasi,
G'azo oson emas, qaytgin Avazjon,
Bu rayingdan qaytgin, **Chambil to'rasi.**

Go'ro'gli endi bolasini Chambil to'rasi ekanligini aytadi. Bu bilan men Chambil to'rasi emas asli sensan bolam, mening yoshim o'tayapti. Agar sen safarga ketsang yurt egasiz qoladi. Menday qari otangni sarson qilma degan fikrlar kelib chiqadi.

Mard o'g'longa davron ikki kemasdi,
Mard o'lmay haqini dushman yemasdi,

Bol Avaz, 'azoni qo'ygin farzandim,
Bolam, qo'ygin g'azo oson emasdir.

Go'ro'g'lining o'g'li bilan suhbatida farzandiga "**Bol Avaz**" so'zini ishlatadi. Biz bilamizki, "**bol**" so'zi "**kuch qudrat**" ma'nolarida ham ishlatiladi. Otaga farzandiga Bol Avaz beb gapirishi erkalab "**Pahlavonim, polovonim**" degan ma'noni keltirib chiqaradi. Yuqoridagi ota-o'g'lining bir biriga ta'riflarida shoirning so'zga chechanligi, uning so'z qo'llash mahorati yuqori ekanligini ko'ramiz. Biz dostonni o'qiyotganimizda bu ta'riflar e'tiborimizni tortmasligi mumkin, ammo hech bir adabiyotshunos va folklorshunos, tilshunoslarning e'tiboridan qolmaydi.

Shevaga xos **leksik** birliklar: **Xangama**(102)-gaplashmoq, suhbatlashmoq ikki va undan ortiq kishilar orasidagi suhbat. barno suluv qizlarva barno juvonlar, shul zamonning zavqiga, o'ziga munosib **hangama** bazmini qurub, o'yin kulgusini qilib...matnda hangama bazmi deya so'zning ma'nosini yumshatishga erishilgan. Ammo ba'zi shevalarda ushbu so'z salbiy ma'nolarni ochib beradi, ya'ni bekor o'tirib gap qilib o'tiribsan. **Saylab (103)** - Tanlamoq, biror narsa yoki kishilarning orasidan kimnidir yoki nimanidir tanlash. G'azo deb jondan kecharmiz,

Ajal sharobini icharmiz,
Biz qachon yovdan qocharmiz,
Saylab kattasin sancharmiz,
Maydonda qib javlon sanga.

--**dim** – **hech, sira**. O', yigitlar, baring qo'yinglar hammangni erlik-yigitlikdan dim kaming yo'q, lekin Chambilga ikkita g'azalay oyoq, shumtuyoqlar kelib, alhol beklilik shularniki.

Umuman, "Xushkeldi" dostoni matnida **opkeb** (19) "OTIL" da, olib kelmoq, olib ketmoq, **chuvlagan**-tartibsiz, har yoqdan so'zlamoq, g'ovur-g'ovur, qiy chuv qilmoq (41), **muno-mana bu** (138), **og'ziman** – so'z bilan (55), **shuytib-shunday qilib** (78), **alag'da qilmoq** – bezovta, alag'da holatni kechirmoq (11), **dovush** – tovush (38), **do'ng** – do'ng er, tepalik (136), **bad** – yoman, yaramas, **yoppa-jovlik** yoki **javlik** (222), **boya, bog'ana** – yaqin vaqtga nisbatan berish, **beadad**-katta miqdorda, son-sanoqsiz(79) **sayis**-otboqar(157)**g'azo** – safar (10) va boshqa leksik birliklarni kuzatish, tahlil qilish mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Ergash shoir dostonlarida ohori to'kilmagan, tilimiz lug'at boyligining bir necha asrlik taraqqiyotini ko'rsatuvchi dialektal birliklar ham borki, ularning barchasini birgina tadqiqot asosida yoritish yoki ochib berish mumkin emas. Kelajakda bunday tadqiqotlarni davom ettirish, nafaqat shoir tili va uslubi, shu bilan birga ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan boy xazinani kelajak avlodga etkazish kabi mas'uliyatni ham yuklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент, 1979. – Б. 146-147.
2. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990. -140 б.; Шу муаллиф. Халқ дostonлари лексикасига оид кузатишлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1970. -№5. – Б. 56-62.; Шу муаллиф. Дostonлар тилининг баъзи бир

- хусусиятлари // «Эргаш шоир ва унинг дostonчиликдаги ўрни» тўплами. 2-китоб. - Тошкент, 1971. - Б. 173-179.
3. А. Ишаев. Халқ дostonлари лексикасидан. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. – Фан.1967.
 4. А. Ишаев. Дostonлар тилининг баъзи бир хусусиятлари // Эргаш шоир ва унинг дostonчиликдаги ўрни. – Т.: Фан, 1971.
 5. Хушкелди.Т.;ЎзФАН нашриёти,1972. – 200 бет.
 6. Б. Тўйчибоев.”Алпомиш” ва халқ тили. – Т.:Адабиёт ва санъат,2001.
 7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.Беш томлик. Т. 2. Тошкент: Ўзбекистон нашриёти.2020. – 672 бет.
 8. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент, 1979. – Б. 146-147

Hayitova Laylo
(Urganch, Uzbekistan)

AHMAD A'ZAM QISSALARIDA PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING QO'LLANILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada iste'dodli adib Ahmad A'zamning so'z qo'llash mahorati, xalq hikmatlaridan, frazeologizmlardan foydalanish va yangi hikmatli so'zlar yaratish mahorati haqida so'z yuritiladi. A. A'zam qissalaridagi hikmatli so'zlar tasnif qilinadi.

Kalit so'zlar: obraz, xarakter, aforizm, maqol, matal, ibora, uslub, tasiriy vositalar, hikoya, qissa

Ijodkordagi so'z qo'llash mahoratining bir qismi aforizm, xalqona ifoda, maqol, matal va boshqalarni qay shaklda o'z asariga olib kirishida ko'rinadi.

A. A'zam ilk hikoyalaridayoq aforizmlardan unumli foydalanib, ularni mahorat bilan qo'llagan. Natijada o'sha lo'nda va qisqa hikmatli so'zlar hikoyaning boshdan oyoq butun mazmunini o'z ichiga qamrab olgan.

Adib maqol, matal, umuman hikmatli so'zlardan uch yo'nalishda foydalanadi:

1. aforizmlarni xalqda keng tarqalgan shaklda o'zgarishsiz, o'z holicha asarga olib kirish;

2. ularni qisman o'zgartgan, muayyan qo'shimchalar bilan boyitgan holda;

3. yangi individual, hikmatli so'z va iboralarni yaratadi.

Bular o'z xarakteriga ko'ra asarning muayyan qismlarida - sujet, kompozitsiya, obraz, xarakter, tasvir bayoni va boshqa komponentlar tarkibida keladi va ma'lum badiiy vazifa bajaradi.

“Quroq” qissasi A. A'zamning eng sara asarlaridan biri. Unda yozuvchiga xos asosiy xususiyatlar - mavzu va so'z tanlash, zamonaviylik, uslub ravonligi, mazmun teranligi, xalq tili boyliklaridan ilhomlanish kabilar o'zaro sintezlashib ketgan. Asar qahramoni- yozuvchining o'zi. Qissada muallifning bolalik xotiralari tasvirlanadi. Yozuvchi o'sha davr ruhini, qahramonlar tabiatini ochib berish uchun xalq jonli tilidan unumli foydalanadi. Masalan, “Quroq”da “Nafs o'sun- balodur, yong'on o'tga solodur”, “Chiqasi kelsa, egasi boshchi”, “Xudoy organ tuyani vaysilqora ne qilsin?” kabi xalq orasida keng tarqalgan hikmatli so'zlar ko'p uchraydi. Asardagi aforistik ifodalar ko'pincha bosh qahramon tilidan aytiladi. Qissada “Kichik gunohidan bir uyalgan odam keyin katta gunohlardan tiyilib qoladi”² qabilidagi bir nechta individual aforizmlar uchraydi. Shu bitta hikmatli so'z vositasida qissadagi kichkinagina voqea - qahramonning bolalikda bodring o'g'irlaganligi voqeasi, bir qarashda uncha jiddiy tuyilmaydigan bu tasvirning bola ruhiyatida chuqur iz qoldirganligi, kelajagiga qanchalik ta'sir ko'rsatganligi oydinlashadi.

Adibning “Bu kunning davomi” qissasidagi aforizmlar nisbatan ko'lamdorligi, mavzu rang-barangligi bilan katta qiziqish uyg'otadi. Ular muallif nutqida ham, personajlar nutqida ham mavjud bo'lib, individual va ommalashgan shakllarda ko'rinadi, bevosita muallifga tegishli ibratli iboralar ustuvorlik qiladi. Muhimi shundaki, ularning ko'pchiligi mazmunan qat'iy fikr, xulosa ohangiga ega. Qissaning bosh qahramoni hali oila qurmagan- bo'yoq yigit bo'lganligi

² A. A'zam. Quroq. // Yoshlik, 2013. № 1 – B 19

bois oila, turmush haqida hikmatli so'zlar anchagina. Masalan, "Oq uy- oshxonasi yo'q", "Odam hamma narsani yasashi mumkin, lekin turmushni yasolmaydi", "Yigit odamning hayotda bir marta omadi keladi – buyam bo'lsa, uylanganida" singari aforizmlarda oilaning hamma narsadan ustunligiga va muqaddasligiga urg'u beriladi. Ma'lumki, qissa sujetining asosini psixologiya bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan yosh olimning ko'ngil olamidagi sarguzashtlar tashkil etadi. Ayni kundagi hayotidan ko'ngli to'lmayotgan, bunday hayot uchun o'zidan norozi qahramon ertangi kunga katta umid bilan ko'z tikadi. Qissaning "Bu kunning davomi" deb nomlanishi bejizga emas. Qahramon uzoq o'ylab o'zidagi bu holatning sababini shu paytgacha birovga tuzukroq mehr ko'rsatmaganligida deb topadi. Zero, inson mehr bersa, mehr ko'radi, ardoqlanadi. A. A'zam qahramonning bu holatini quyidagi aforizm orqali juda yorqin tasvirlab beradi: "Tabiat odamni mehrlil qilib yaratgan- o'zga vujudga bag'ishlashi uchun. Vujudida mehrni to'plab, hech kim, hech narsaga sarflamay yurgan odam dard topadi. O'zini yomon ko'rish dardini". Xuddi shu satrlar qissaning butun mohiyatini va yozuvchi badiiy niyatini to'la ifodalay olgani bilan ahamiyatli. "Insonlarga mehr bering, o'zingizga qaytadi, bu, avvalo, odamning o'zi uchun muhim" qabilidagi nasihatbozlik yo'lidan bormasdan, shu fikrlarini obrazli tarzda, esda qolarli satrlarda ifodalashi A. A'zamning so'z qo'llash borasida ham e'tirof etishga arzigulik mahorat sohibi ekanligidan dalolat beradi. O'z baxtini uzoq kutgan, uchrata olmayotganidan havotirda yurgan yigit shu paytgacha qizlar bilan bo'lgan barcha munosabatlarini qayta xotirlaydi va ko'ngliga taskin bo'ladigan quyidagi to'xtamga keladi: "Sevsang, poksan. Sevgi hamma narsani poklaydi". Ko'rinadiki, bu aforizm muhabbatning bebaho ne'mat ekanligi va inson har qanday vaziyatda bo'lishidan qat'iy nazar, noumid bo'lmasligi lozimligini uqtirish uchun kiritiladi va tezda o'quvchi xotirasiga muhrlanib qoladi. Bundan tashqari qissalarda quyidagi individual va xalq hikmatlari mavjud:

• **"Asqartog' tomonlarda" qissasida:**

1. Odamning umri tasodiflardan to'qilgan.
2. Odamzoddan balandi yo'q.
3. Har boshlangan narsa yakun topadi.
4. Olamdagi hamma narsa nasldan naslga o'tadi.
5. Sizga yomonlik qilmaganga hargiz yomonlik qilmang- o'zingizga qaytadi.
6. Tog'da yashagan odamning ko'ngli ham tog' bo'ladi.
7. Shubha- gumon qirqoyoqqa o'xshaydi, ming tikil, qaysi oyog'ini bosganini ko'rolmaysan- hammasi birdan qimirlaydi.
8. Yaxshi er-u xotin, aslida, bitta odam.

• **"Bu kunning davomi" qissasida:**

1. Oq uy- oshxonasi yo'q.
2. Dunyo shunaqa: ish joyi bo'sh turmaydi, odamlar bo'sh turishi mumkin.
3. Ilm- muhtasham imorat.
4. Yoshlarning eng katta kamchiligi o'zboshimchalik, kattalarga hurmatsizlik emas, laqillash.
5. Har kim o'z hayoti – imoratiga usta.
6. Odam hamma narsani yasashi mumkin, lekin turmushni yasolmaydi.
7. Yigit odamning hayotda bir marta omadi keladi- buyam bo'lsa, uylanganida.

8. Ikki narsadan odam kasal topadi: biri – xudo bergan darddan, ikkinchisi, o‘y o‘ylashdan. O‘y o‘ylashning tabii yo‘q.

9. Odamning o‘zini o‘zi yomon ko‘rishida ham xudbinlik bor.

10. Yaxshi odamlarga yaqinlash. Yaxshi odam dilingga dil qo‘shadi.

11. Fikrlashning o‘zi ham – yorug‘lik. Fikr fikrlaydigan odamning ko‘ziga ko‘rinmaydigan narsalarni ham ko‘radi.

12. Eng asosiysi – ishonch. Yilt etgan yorug‘liksiz zulmat bo‘lmaydi.

• **“Quroq” qissasida:**

• Ishtoni yo‘q tizzasi yirtiqqa kulibdi.

• Nafs o‘lsin – balodur, yong‘on o‘tga solodur.

• Kichik gunohidan bir uyalgan odam keyin katta gunohlardan tiyilib qoladi.

• Xudoy urgan tuyani vaysilqora ne qilsin?

• Chiqasi kelsa, egasi boshchi.

• Bu dunyoda odamning o‘ligi beega qolishiga odamlarning o‘zi qo‘ymaydi.

Yuqoridagi talqinlardan ma‘lum bo‘ladiki, yozuvchi umumxalq tili asosida badiiy obraz va xarakter yaratadi. Obraz va xarakterlarning tipik va individual bo‘lishi uchun turli-tuman tasviriy vositalar, shu jumladan, jonli tilning qaymog‘i bo‘lgan maqol, matal, hikmatli so‘zlar va iboralardan foydalanadi.

Ahmad A‘zam xalq maqollari va iboralarni o‘z ijodida qo‘llash bilan kifoyalanib qolmay, ularga asoslangan holda aforizm darajasida turuvchi yangi hikmatli so‘zlar yaratadi. Ular yuqorida qayd etilganidek, iiodiy xarakterda. Uning aforizmlari, ko‘pincha, maqollarning davomi va rivoji sifatida maydonga keladi. Xalq maqollari bilan muallifning to‘qigan iboralari bir-birlarini to‘ldirib bir butunlikni tashkil qiladi. Yangidan ijod qilingan aforizmlar xalq tilining imkoniyatlarini namoyish qilish, asardagi voqealarni yaxlit falsafiy umumlashtirish, yozuvchining o‘ziga xos badiiy san‘atini ko‘rsatib berish jihatidan katta badiiy ahamiyatga ega. Yozuvchilar ijod qilgan hikmatli iboralarning badiiy adabiyotda qayta-qayta takrorlanishi ularning asta-sekin adabiy tilga o‘tib borishini tezlashtiradi. Bir yozuvchining yaratgan aforizmi shu asarning o‘zida yoki shu yozuvchining boshqa bir necha asarlarida qayta takrorlanib turishi mumkin. Bir yozuvchining yaratgan aforizmiga boshqa yozuvchilar ham murojaat qiladilar va biroq o‘zgartirib qo‘llaydilar.

Umuman A.A‘zarning aforizmlardan foydalanish tajribalari har bir adibning uslubi, xalq tilining imkoniyatlaridan foydalanish mahorati, individual mayli bilan izohlanadi.

Ahmad A‘zam o‘z qissalarida folklor namunalari qator maqollardan ham foydalanadi. “Quroq” qissasida “Mard bo‘lsang, Eski Juvada hangra”, “Eshak eti go‘sh t bo‘lmas, savdogar hech do‘st bo‘lmas”, “Eshak minganning oyog‘i tinmas, ikki xotinlikning qulog‘i”, “Eshak baxshi bo‘lmas, yomon yaxshi bo‘lmas” singari maqollar uchraydi. Ko‘rinadiki, qissaga eshak obrazi mavjud maqollar kiritilgan. Aynan eshak obrazi ishtirok etgan maqollarning tanlanishi bejizga emas. Chunki, “Quroq” qissasida eshak muhim ramziy obraz hisoblanadi. Muallif bolaligini xotirlar ekan, bu xotiralarning hammasi bir uchi bilan eshakka borib taqalaveradi. Eshak bir o‘rinda befarosat, madaniyatsiz, fe‘li tor odamlarning ramzi bo‘lsa, boshqa o‘rinda o‘z mansabini suiste‘mol qilayotgan mansabdorlarning, yoki har narsadan o‘z manfaatini ustun qo‘yadigan noinsof savdogarlarning timsoli bo‘lib keladi. Yozuvchi yon atofidagi turli xarakterga, tabiatga ega shaxslarga, hayotdagi har xil vaziyatlarga munosabatini maqol

vositasida ifodalaydi. Bosh qahramonning lug'at titish jarayonida go'yoki tasodifan ko'zi tushib qolayotgan maqollarning har birida aslida muallif aytmoqchi bo'lgan eng asosiy fikrlar o'z aksini topadi. Muallif har bir maqol vositasida odamlar tabiatidagi qandaydir illatga ishora qiladi va shu bilan bog'liq qiziqarli voqealarni bayon qilib boradi. Natijada maqollar qahramon xarakteri, ruhiyati tasvirida eng muhim vositalardan biriga aylanadi. O'zbekiston xalq shoiri E. Vohidov maqolga quyidagicha ta'rif bergan edi: "Yo'l yurib ketayotgan insofli odam bexosdan chuqurlikka toyib ketsa, o'rnidan turib etak qoqib ketavermaydi. Men yiqildim, boshqalar yiqilmasin, deb chuqurni tekislab qo'yadi, yo bo'lmasa, biror tayoqni suqib belgi qo'yib ketadi. Bu ey, yo'lovchi, ehtiyot bo'l, bu yerda chuqur bor, ko'zingga qara, degan ishora bo'ladi. Bobolar hikmati ana o'sha tayoqdir".³ Aytish mumkinki, A. A'zamning "Quroq" qissasida bu xosiyatli "tayoq" o'ziga yuklangan vazifani to'la ado etolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shomaqsudov Sh.,Shorahmedov Sh. "Hikmatnoma". – T.,1990.
2. A. A'zam. Hali hayot bor...- Toshkent:O'zbekiston, 2011
3. A. A'zam. Bu kunning davomi.www.ziyouz.com
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. T. 2010
5. A. A'zam. Quroq. // Yoshlik, 2013. № 1

³ Shomaqsudov Sh.,Shorahmedov Sh. "Hikmatnoma". – T.,1990. -B 5

Namozova Manzura Urakovna
Toshkent davlat pedagogika universiteti Shahrisabz filiali
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrası o‘qıtuvchisi,
Ismatova Nasiba
Nizomiy nomidagi TDPU Shahrisabz filiali 1-kurs talabasi
(Toshkent, Uzbekistan)

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA SINTAKTIK ALOQA

Annotatsiya. *Tilni takomillashtirish - bu ichki vositalar asosida va boshqa tillar bilan aloqa asosida amalga oshiriladigan rivojlanish. Rus tilini bilish o‘zbek tilida rus tilining leksik birliklaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Maqolada ham ayanan rus va o‘zbek tillarining o‘zaro sintaktik jihatdan o‘xshashligi va farqi jiyahlati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *sintaksis, sintaktik aloqa, tilning boyish manbalari, qiyosiy grammatika, teng bog‘lanish, tobe bog‘lanish*

Annotation. *Language improvement is a development that takes place on the basis of internal means and communication with other languages. Knowledge of Russian allows Uzbek to use lexical units of Russian in their native language. There is even talk of automating this process. The article also highlights the syntactic similarities and differences between the Russian and Uzbek languages.*

Keywords: *syntax, syntactic connection, sources of language enrichment, comparative grammar, equivalence, subordination*

Aksariyat tilshunoslarning fikriga ko‘ra, rus tilidagi so‘zlarni o‘z nutqida ishlatish sababi quyidagilardan: 1) ikki til o‘rtasidagi farq tufayli mavjud bo‘lgan leksik "defitsit"; 2) xalqlarning geografik joylashuvi; 3) obro‘-e‘tibor, bu ikkinchi tilni bilishini ko‘rsatishga urinishdan iborat.

Yuqoridagi uchta shartga rioya qilish va ikkilamchi (til - nutq) yoki trixotomiya (nutq faoliyati - til tizimi - til material) ni belgilash muqarrar ravishda olimlarni uchta xulosadan biriga olib keldi: aralash tilni shakllantirish, aralash nutqni shakllantirish, yagona ikki tilli til faoliyati mavjudligining imkoniyati. Biroq, ushbu tushunchalarni aniqlashning yagona mezonlari ishlab chiqilmagan.

Sintaksis (grekcha – syntaxis – «tuzish» so‘zidan olingan) grammatikaning bir bo‘limi bo‘lib, so‘zlarning birikish yo‘llari, so‘z birikmasi, gap, uning turlari, xususiyatlarini tekshiradi.

O‘zbek tilida sintaksis, bir tomondan, so‘z va so‘z shakllarning, shuningdek, gaplarning aloqa qilish, birikish yo‘llarini tekshirsa, ikkinchi tomondan, ma‘lum bog‘lanish asosida yuzaga keladigan sintaktik birliklarni o‘rganadi. So‘z birikmasi, gap, gap bo‘laklari asosiy sintaktik birliklar, sintaktik kategoriyalar hisoblanadi. Sintaktik aloqa turlari. O‘zbek tilida so‘zlarning, shuningdek, gaplarning orasidagi bog‘lanish, aloqa ikki xil bo‘ladi: 1) teng bog‘lanish yoki teng aloqa; 2) tobe bog‘lanish yoki tobe aloqa.

Zamonaviy rus tilida sintaktik aloqaning ikkita asosiy turi mavjud – kompozitsion (mustaqil) va bo‘ysunuvchi (tobe).

Soʻz birikmasi - bu subordinatsiya qilingan sintaktik aloqaga asoslangan mustaqil soʻzlarning birikmasi. Soʻz birikmasidagi soʻzlar maʼno va grammatik jihatdan oʻzaro bogʻliqdir. Misollar: любить озером, голубым озером, долго любить.

Fraza mustaqil sintaktik birlik emas. Soʻz birikmalari toʻliq fikrni anglatmaydi, muloqotdagi birlik emas. Bu faqat yuqori sintaktik darajadagi birliklar - jumlar uchun zarur boʻlgan materialdir.

Lugʻaviy va grammatik tuzilishidagi jumla bilan omonim boʻlishi mumkin. Biroq, takliflar bir qator xususiyatlarga ega. Ularsiz bu ibora gap emas. Ushbu iborada ifoda maqsadi, semantik va intonatsion toʻliqlik, grammatik asos yoʻq. Ushbu ibora toʻliq fikrni oʻz ichiga olmaydi va aloqa birligi emas. U xuddi soʻz singari nominativ rolni bajaradi, yaʼni voqelikning turli xil tarkibiy qismlari: obʼektlar, harakatlar, belgilar, holatlar va boshqalarni nomlash rolini bajaradi. Shu bilan birga, ibora ushbu rolni bajaradi, soʻzdan koʻra batafsil maʼlumotni ifodalaydi.

Frazadagi soʻzlar tobe: biri asosiy narsa, ikkinchisi qaram. Ushbu teng boʻlmagan elementlarning aloqasi boʻysunuvchi sintaktik aloqadir.

любить (чем?) озером – главное слово любить

озером (каким?) голубым – главное слово озером

любить (как?) долго - главное слово любить [13]

Oʻzbek tilida teng bogʻlanish sintaktik jihatdan teng huquqli boʻlgan biri ikkinchisiga boʻysunmagan soʻzlarning yoki gaplarning aloqasidir. Bunda teng aloqadagi soʻzlar yoki gaplar oʻzaro teng bogʻlovchilar, teng bogʻlovchi vazifasidagi yuklamalar, ohang yordamida munosabatga kirishadi. Masalan: 1. Beminnat qilingan ezgulik eng maqbul va goʻzal ezgulikdir. (Oz-oz oʻrganib dono boʻlur). 2. Bilmaslik ayb emas, bilishni istamaslik aybdir. (Oz-oz oʻrganib dono boʻlur). Birinchi misolda eng maqbul, goʻzal soʻzlari oʻzaro teng bogʻlanib, gapda uyushiq sifatlovchi vazifasini bajargan. Ikkinchi misolda esa “Bilmaslik ayb emas” va “Bilishni istamaslik aybdir” gaplari bir-biri bilan teng aloqaga kirishgan.

Tobe bogʻlanishda biri hokim, ikkinchisi tobe boʻlgan aʼzolar (soʻzlar, ergash gapli qoʻshma gap qismlari) oʻzaro aloqaga kirishadi. Ularning biri ikkinchisini aniqlash, izohlash, toʻldirish uchun xizmat qiladi. Aniqlaydigan, izohlaydigan, toʻldiradigan aʼzosi tobe, izohlanadigan aʼzo hokim deb yuritiladi: 1. Kitobni oʻqimoq, qiziqarli voqea. 2. Kimning himmati baland boʻlsa, qadr-qimmat ham boʻladi (Oz-oz oʻrganib dono boʻlur). Birinchi misolda soʻz birikmasi tarkibidagi soʻzlardan biri hokim qism (oʻqimoq, voqea), ikkinchisi (kitobni, qiziqarli) tobe aʼzo boʻlib kelgan. Ikkinchi misolda ergashgan qoʻshma gapning qismlaridan biri «qadr-qimmat ham baland boʻladi» hokim aʼzo, bosh gap sifatida, ikkinchisi «kimning himmati baland boʻlsa» tobe aʼzo ergash gap sifatida qatnashgan. Shunday qilib, bogʻlanishning ikki xil turini soʻzlar orasida ham, gaplar orasida hamkuzatish mumkin. (Gaplar orasidagi bogʻlanish haqida «Qoʻshma gap» boʻlimida baxs yuritiladi).

Rus tilida boʻysunuvchi (tobe) aloqaning uch turi mavjud - muvofiqlashtirish, boshqarish va tutash.

Bogʻlash toʻliq yoki toʻliq boʻlmaligi mumkin. Toʻliq kelishuv bilan bogʻliq soʻz barcha grammatik xususiyatlarida asosiyga, toʻliq boʻlmagan bilan esa faqat ayrimlarida taqqoslanadi.

Misol:

Написанная книга – toʻliq muvofiqlashtirish (jinsi, soni, kelishiklar boʻyicha).

Доктор Иванова – toʻliq boʻlmagan muvofiqlashtirish (faqat son va kelishikda).

Boshqarish turida tobe so'z asosiy so'z talab qiladigan grammatik shaklda ishlatiladi. Prepozitsion (predlog bilan) va prepozitsiyasiz (predlogsiz) boshqaruvi jihatdan farqlanadi.

Misol: беспокоиться (О ком? О чём?) об экзамене, о ребёнке – пр. п.; изучить (Что?) карту – вин. п.

O'zbek tilida rus tilidan farqli o'laroq, kelishik "мой карандаш", "mening qalamim", "ваш друг" "sizing do'stingiz" kabi iboralar yashirin ifodaga ega bo'lishi mumkin. Ba'zi tadqiqotchilar bunday iboralarni bir martalik determinatsion konstruksiyalarda sifatida belgilaydilar, masalan, Rus va o'zbek tillarining nominal bo'lmagan konstruksiyalarda muvofiqlashtirilishi turlicha ekanligini hisobga olmaydi, bu lisoniy va grammatik ko'p funktsionallik qonuni bilan tavsiflanadi.

Sintaktik aloqalarni ifodalashda nafaqat shaxs, son, jins, holat grammatik kategoriyalarining fleksion ko'rsatkichlari, balki hol, son, shaxs grammatik kategoriyalarining affiksial morfemalari ham faol rol o'ynaydi; bog'lovchilar vazifasidagi bog'lovchilar, predloglar, ko'makchilar, barcha muhim nutq qismlarining leksik birliklari ham muhim rol o'ynaydi. Sintaktik aloqalarni ifoda etishda turli lisoniy vositalar ham ishlaydi, alohida muhim nutq qismlarining leksik birliklari bilan chambarchas bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizov O. Safaev A. Jamolxonov. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. T., 1986.
2. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. T., 1965.
3. Rahmatullaev Sh. O'zbek va rus tillarini qiyoslash. T., 1993; 19-22-betlar.
4. Reshetov V.V., Reshetova L.V. Rus tili grammatikasi. Toshkent: «O'qituvchi».
5. Аврорин Л.В. Проблемы изучения функциональной стороны языка. Л.: 1975.
6. Ахунзянов Э.М. Русские лексические заимствования в татарском языке. Казань. 1968.
7. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. М.: 1955.
8. Балли Ш. Французская стилистика. М.: 1961.
9. Белл Т. Роджер. Социоллингвистика. Цели, методы и проблемы. М.: 1980.
10. Белодед И.К. Ленинская теория национально-языкового строительства в социалистическом обществе. М.: 1972.
11. Бельдиян В.М. Научно-методические проблемы обучения фонетике современного русского языка. Ташкент. 1980.
12. Киссен И.А. Курс сопоставительной грамматики русского и узбекского языков. Т., 1979.
13. <http://russskiy-na-5.ru/articles/436>

Ollaberganova Sanobar Xamidovna
F.f.n. dotsent,
Madraximova Dinora Ismoil qizi
o'qituvchi
UrDU
(Urganch, O'zbekiston)

O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA ZAMON VA MAKON MASALASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek folklori janrlarining voqelikni aks ettirish mezonlarini o'rganish va o'zbek xalq ertaklarida zamon va makon masalasi haqida so'z borgan. O'zbek sehrli ertaklarida ba'zi makonlar aniq, jo'g'rofiy nom bilan atalishi haqida bayon etilgan. Ertaklardagi epik makon muammolari o'zbek folklorshunoslarining qator ilmiy ishlarida atroflicha tadqiq etilgan va ma'lum xulosalar chiqarilgani haqidagi masalalar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: zamon va makon, o'zbek folklori janrlari, maskan, vatan, yurt, mamlakat, uy, saroy, shahar, qishloq, joy, maydon kabi tushunchalar, epik makon.

Аннотация: В статье обсуждаются критерии отражения реальности узбекских фольклорных жанров и проблема времени и пространства в узбекских народных сказках. В узбекских сказках говорится, что некоторые места названы определенными географическими названиями. Проблемы эпического пространства в сказках подробно исследованы в научных трудах узбекских фольклористов, и сделаны определенные выводы и это отражается в этой статье

Ключевые слова: время и пространство, жанры узбекского фольклора, резиденция, родина, страна, дом, дворец, город, село, место, площадь, эпическое пространство.

Annotation. In this article, it is given the criteria for reflecting the reality of the genres in Uzbek folklore and the issue of time and space in Uzbek folk tales. The problems of epic space in fairy tales have been sufficiently studied in a number scientific works of Uzbek folklorists and have been drawn certain conclusions.

Key words: Time and space, genres of Uzbek folklore, homeland, country, home, place, town, village, place, concepts such as area, epic space.

O'zbek folklori janrlarining voqelikni aks ettirish mezonlarini o'rganish xalqning ma'naviy olami, madaniyati ma'rifiy – axloqiy, badiiy–estetik qarashlarini tatqiq etish imkonini beradi. Xususan, u istiqloq mafkurasi hamda milliy ma'naviyat asoslarini aniqlash, ularni boyitish, yosh avlod qalbida Vatan tuyg'usini o'stirish va mustahkamlash, adolatparvarlik va mardlik ko'nikmalarini tarbiyalash orqali tinchlik va ezgulikni yaratishda alohida ahamiyat kasb etadi. Makon borliqning ob'ektiv, real shakllaridan biri, boshqacha qilib aytganda, narsa va hodisalar sodir bo'ladigan, sub'ektlar harakat qiladigan joy. U nutqda maskan, vatan, yurt, mamlakat, uy, saroy, shahar, qishloq, joy, maydon kabi tushunchalar bilan yuritiladi. Sehrli

ertaklarda talqin etilgan makon realligi, ayni paytda g'ayritabiiyligi bilan ajralib turadi. U voqea va hodisalarning sodir bo'ladigan, personajlar harakat qiladigan joyni anglatadi.

O'zbek xalq sehrlari ertaklarida sujet voqealari epik makonda rivojlanib, barcha personajlar shu makonda faoliyat ko'rsatadi. Ertak voqealari makon doirasida boshlanadi, rivojlanadi va nihoyasiga yetadi. Ertaklardagi epik makon muammolari o'zbek folklorshunoslarining qator ilmiy ishlarida atroflicha tadqiq etilgan,⁴ ma'lum xulosalar chiqarilgan.

Ertaklardagi makon falsafiy kategoriya sifatida emas, balki epik hodisa shaklida yuzaga kelgan. Shunga qaramasdan har ikkisi bir butun umumiy yaxitlikda aks etadi. Epik makon falsafiy makonning ajralmas qismi sifatida, o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu xususiyatlar ajdodlarimizning milliy hayoti, dunyo qarashi, olamni tasavvur qilib, idrok etishi bilan bog'liqdir.

Sehrlari ertaklarda qo'llangan epik makonda turli xil voqealar sodir bo'ladi. Ertak davomida har bir sujet voqeasi o'z makoniga, aniqrog'i, mikromakonga ega bo'ladi. Epik makon dastlab ertak sujetining initsial formula (boshlama) qismida namoyon bo'ladi. Ertak boshlamasidagi epik makon o'ziga xos badiiy shakllarda tasvirlanadi. Boshqacha aytganda, syujet voqealari davomida yuz bergan makonlar o'zaro bir - biridan ajralib turadilar.

Avvalo, ular sehrlari ertak tabiatiga mos holda ifodalanadilar. Masalan bu ertak boshlamasidagi makonlar folklorning boshqa janrlarida deyarli qo'llanmaydi, xususan sehrlari ertak boshlamasida qo'llangan epik makon dostonida uchramaydi.

Sehrlari ertaklarda sujet voqealarining kirish qismidan, (ya'ni initsial formulalardan) keyin boshlanishi tipologik hodisadir. Shu tufayli epik makonlar talqini ham bir xil, umumiy shakllarda tasvirlanadi. Shunga qaramasdan, ular o'ziga xos tomonlari bilan ham ajralib turadilar.

Initsial (boshlama) aks ettirilgan epik makon unsurlari dastlab noaniq, haqiqatni anglatmaydigan shaklda keladi, ya'ni epik makon "Bor ekanda, yo'q ekan" ("Ilonshoh uzugi")kabi noaniqlikni ifoda etgan unsurlar bilan bog'liq holda keladi. Ko'rinadiki, epik makonning noaniq bo'lgan bo'lmaganligi sehrlari ertakni janr sifatida shakllantiruvchi o'ziga mos hossalardan biri bo'lib xizmat qiladi va u tinglovchini sehrlari ertak dunyosiga olib kiradi.

Initsial kelgan makonning noaniq shakllarda ifoda etilishi keyingi jummalarda o'zgaradi va oydinlashadi, ya'ni epik makon noaniqlikni ifoda etgan unsurlar bilan emas, balki reallashtiruvchi elementlar bilan bog'liq holda keladi. "Bor ekanda, yo'q ekan, qadim zamonda, bir shaharda ("Ilonshoh uzugi)". "Qadim zamonda bir mamlakatda ("Qirg'ilon"), Olatog' etagida bir chol bilan bir kampir yashar ekan" ("Ur to'qmoq"). Ko'rinib turibdiki, keyingi epik makon unsurlari noaniqlikni emas, balki aniqlik (bir shaharda bir bola yashar ekan) va hayotiylikni kasb etadi. Demak, o'zbek sehrlari ertaklarining boshlamalarida (real) aniq va noaniq shakllarda ifodalangan makonlar tasvirlanadi. Ular ertak tuzilishida an'anaviy mikro va makro makonlarni tashkil etadilar.

O'zbek sehrlari ertaklarida ba'zi makonlar aniq, jo'g'rofiy nom bilan ataladi. Xalq

⁴ Imomov K. O'zbek xalq prozasi. T.; Fan, 1981, Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. T., Fan, 1964, Jabbor Eshonqul, O'zbek folklori: Obraz va talqin. Qarshi, Nasaf, 1998., Jo'rayev M. O'zbek xalq ertaklarida "Sehrlari" raqamlari. - Toshkent. 1991., Jalolov G. O'zbek xalq ertaklari poetikasi. - Toshkent. 1976.

dostonlari poetikasiga bag'ishlangan tatqiqotlarida olim S.Mirzaeva shunday yozadi: xalq ertagidagi, ayniqsa romanik dostonlardagi epik makon jug'rofiy jihatdan real joylarga to'g'ri kelmaydi... Binobarin, bu makonlarni u yoki bu joydagi aniq shahar yoki joylar bilan almashtirish xalq eposidagi badiiy shartlilik tabiatini to'g'ri anglab ololmaslikning oqibatidan boshqa hech narsa emas.⁵ Aksariyat holda bu epik makonlar insoniyat madaniyati tarixida nom qoldirgan mashhur shahar, mamlakatlar bo'lib, ertak voqealari ana shu makonlarda sodir bo'ladi. Masalan, "Qorasoch pari" nomli o'zbek sehrli ertak boshlamasida sujet voqealari "Qadim zamonda, Shom mamlakatida" kechadi. Epik makonda sodir bo'layotgan sujet voqealari Eron va Shom mamlakatlarida yuz beradi, ular qadimgi madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotda katta ro'l o'ynagan, mag'rib va mashriq orasida mashhur bo'lgan afsonaviy manzillardir. Xalq ertaklarida bu tarixiy mamlakat, shaharlarni epik makon ma'nosida ishlatilishi ertak shartliligi bilan bog'lanib ketadi.

Epik makonning jo'g'rafiy yoki afsonaviy tushuncha bilan nomlanishi ertak voqealarining bo'lib o'tgan joyini oydinlashtirishga qaratilgan. "Ilonshoh uzugi" ertagida bir badavlat savdogar kishi o'g'liga qarab, "Ertaga seni Rum shahriga, savdogarchilikka yuboraman", deb unga ming tanga topshiradi. Bu yerda ishlatilgan Rum atamasi aniq shahar nomini anglatmaydi, balki u Vizantiya mamlakati o'rnida ishlatilgandir. Rum afsonaviy shahar bo'lib, ertaklarda ko'plab qo'llanadi. "Qorasoch pari" ertagida epik qahramonlar shahzoda Nodir va Qodir Qorasoch parini Rum shahriga olib ketadilar. Ertak boshlanishida voqealar Shom mamlakatida kechadi va ertak oxirida yana Shom shahrida yakunlanadi. Demak, sujet voqealari Shom va Rum shaharlari bilan bog'liq epik makonlar doirasida kechadi. Sehrli ertaklardagi makonlar ko'proq o'zbeklar yashab kelgan shahar nomlari bilan ataladi va asosiy voqealar ham shu epik makonlarda kechadi podsho o'tgan ekan".

"Muqbil toshotar" ertagida "Buxoro amirining go'zal qizi bo'lgan ekan", Bektemir botir", "Qadim zamonda Farg'ona tomonda Odilxon degan bir Shunindek "Shaxzoda Salmon" ertagida, "Qadim zamonda, Xorazm eli tomonda, bir podsho bo'gan ekan", deyiladi. Geografik toponimlarning ertaklarda qo'llanishi ularning xalq ma'naviy-ijtimoiy hayotida katta ro'l o'ynaganligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, ertaklarda chet eldagi qadimiy makonlar qo'llanadi. Bular (Rum, Misr) ning o'zbek ertaklarida qo'llanishi xalqlar o'rtasida madaniy iqtisodiy bog'lanish bo'lganligidan dalolat beradi. Demak, o'zbek xalqi ertaklarida chet elga aloqador epik mikromakonlarning borligini ta'kidlash joizdir. Bu epik mikromakonlar doirasiga Rum, Misr, Eron, Turon, Hindiston, Chin- mochin kabi madaniy-ma'rifiy hududlar kiradi.

Deyarli, har bir ertak voqealari nomi tilga olingan epik makonlarda kechadi va o'z yakunini topadi. "Bektemir boti" ertagida epik qahramon Farg'ona tomonda yashaydi va Oqbilakka goyibona oshiq bo'ladi, botir qizni axtarib Misrga jo'naydi. Voqealar qayerda boshlangan bo'lsa, o'sha yerda o'z yakunini topadi, ya'ni Farg'ona mamlakatida Bektemir botir bilan Oqbilakning to'ylari bo'ladi. "Tag'rimtosh" ertagida voqealar turli makonlarda kechadi. Ertak yakunida epik personajlar devlar makonidan o'z yurtiga, ya'ni "Mashhad shahriga yo'l oladi" lar "Momir bilan Somir" ertagida shoh "Turkman mamlakatida yashaydi", taqdir taqozosi bilan "Turkman mamlakati shohining o'tli Somir Hind shohining qiziga uyulanadi".

⁵ Mirzayeva S. O'zbek xalq romanik dostonlari poetikasi xususida. - Andijon. 2000, 35-b.

“Yurtga to‘y beribdi, to‘y tugagach, shoh ikki o‘g‘lini, kelinini va butun lashkarlarini olib o‘z eliga qaytib kelibdi”. “Qorasoch pari” ertagida qirq kun to‘ydan keyin Nodir bilan shaxzoda o‘zga yurtidan jo‘nab, o‘z yurtiga qaytadi. O‘zga makondan o‘z yurtiga qaytib kelib yashash aksariyat ertaklarda mavjud bo‘lib, an’anaga aylangan, bu hodisa ertak qahramonlarining vatan tuyg‘usi bilan yashaganligidan dalolat beradi. Ko‘rinadiki, vatan tuyg‘usi, o‘z eliga sodiqlik kabi g‘oyalar ota- bobolarimizda qadimdan mavjudligi o‘zbek xalq ertaklarida o‘z ifodasini topgan.

Demak, xalq ertaklarida ona yurt tuyg‘usi nihoyatda kuchlidir. Yurtni sevish, himoya qilish, unga sodiq bo‘lish o‘zbek xalq ertaklarining asosiy g‘oyalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ertak qahramoni qayerda bo‘lmasin, nimalar qilmasin, ne-ne orzularga yetishmasin, oxirida ota yurtni qo‘msab vatanga qaytadi. Ertaklarda voqealar epik makon, ota yurtidan boshlanib, shu makonda yakunlanadi.

O‘zbek sehrli ertaklarida epik makon o‘ziga xos ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi va syujet voqealari shu makonlarida kechadi. Epik makonlar quyidagicha bo‘linadi.

Epik makon	Osmon yer usti yer osti	Shahar, qo‘rg‘on, el yurt tog‘, tepalik cho‘l, dasht qir daryo, daryo bo‘yi quduq, g‘or va boshqalar.
------------	-------------------------------	---

Epik makon osmon, yer usti, yer osti kabi makromakonlardan iborat bo‘lib, bu makonlar o‘z navbatida syujet voqealari sodir bo‘ladigan mikromakonlarni ham qamrab oladi. Syujet voqealari sodir bo‘ladigan shahar, qo‘rg‘on, tog‘, g‘or, cho‘li biyobon, dasht, daryo, daryo bo‘yi, chorbog‘ kabi makonlarni mikromakonlar deb atashni lozim topdik.

Ertak personajlari o‘zlarining mavqei, bajarishi lozim bo‘lgan vazifalariga ko‘ra ma‘lum makonda istiqomat qiladilar. Shahar va qo‘rg‘onlarda, shohlar, savdogarlar, badavlat hunarmand odamlar yashasa, (“Oxirgi bir necha kundan keyin botir boyvachchanning qo‘rg‘oniga yaqinlashibdi” “Ilonshoh uzugi”), daryo sohili, dashtlarda aksariyat hollarda kambag‘al – qashshoqlar istiqomat qiladilar. “Cholning kulbasi dala - dashtda, odam kam joyda ekan”. (“Olov polvon”), Mifologik personaj (dev, yalmog‘iz)lar tog‘, g‘or, quduq kabi makonlarda yashaydilar.

Aytish mumkinki, yer usti, yer osti, suv osti, osmon, tush kechadigan makonlar ertak personajlari makoni hisoblanadi. Epik makonlar ma‘nosi, shakliy tuzilishi, asosiy vazifasi va syujet chizig‘ida tutgan o‘rniga ko‘ra o‘zaro farqlanadilar. Turklarning qadimgi asotirlarida ko‘ktangrilar, zolim odamlar makoni bo‘lsa, yer osti devlar, ajdaho va yalmog‘iz kampirlar kabi yovuz ruhlarning makoni hisoblangan.⁶ Yer usti sehrli ertaklarda ko‘lami keng makonlardan

⁶ Jabbor Eshonqul. Folklor. Obraz va talqin. - Nasaf., 19R9, 1S-6.

sanaladi.

O'zbek folklorshunosligida ertak voqealari sodir bo'lgan deb qaraladigan o'rin-joy, makonni ifodalovchi an'anaviy initsial formulalar maxsus taxlil qilinmagan. Faqat professor F. Jalolov O'zbek ertaklarining an'anaviy initsial formulasida o'rin-joy ifodalovchi toponomik atamalar ham qo'llanilishi haqidagi mulohazasini Xorazm ertaklarining materiallari ham tasdiqlashini aytib o'tadi, xalos⁷. Rus folklorshunosligida esa "ertakda sof topografik zachin qo'llanilmaydi" degan ilmiy qarash mavjud. Xususan, N.V. Novikov bu haqda shunday yozadi: "topografik zachinning o'zi, aytish joizki, ertak matnida sof holda uchramaydi. U hamisha xronologik boshlama bilan birgalikda qo'shib istifoda etiladi va bevosita ertak syujetidagi asosiy voqealar bayoniga o'tish vazifasini bajaradi"⁸.

Xorazm ertaklarining taxlili esa bu fikr to'g'ri emasligini ko'rsatadi. Ya'ni topografik boshlamaning alohida badiiy formula sifatida qo'llanilishi ertak poetik qurilishiga xos bo'lgan an'anaviy badiiy hodisalardan biri ekan. Bizning aniqlashimizcha, Xorazm ertaklarining faqat ikkitasida sof an'anaviy topografik boshlama mavjud. "Amudaryoning qiblasida to'rt dev makon etib, hammani qo'rqitib, mollarini olib, xazimga qochib yotaveribdi. Shu devlardan ozgina kun chiqqanda shog'ol uvlasa, uyiga qochadigan Shomrot degan yigit xotini bilan yashar ekan" ("Shomrod qo'rqoq").

Mazkur an'anaviy boshlama topografik belgi va biografik ma'lumot modeli asosiga qurilgan bo'lib, ertak voqealari sodir bo'lgan joy aniq jug'rofiy atama orqali lokallashtirilgan. Shu tariqa tinglovchida ertakda hikoya qilingan voqealarning chinligiga ishonch uyg'otishga harakat qilingan. Qayd qilingan ikkinchi holatda esa topografik belgi umumiy tarzda berilgan bo'lib, mavhum epik makon tushunchasi "bir yurtda" birikmasi orqali talqin qilingan: "Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir yurtda ota-onasi yo'q, qavm-qarindoshi yo'q, yolg'izgina bir kal yashar ekan" ("Kal botir").

Xorazm ertaklarining aksariyatida an'anaviy boshlamaning aralash tipi, ya'ni bir vaqtning o'zida ham biografik, ham xronologik, ham topografik ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan universal xarakterdagi zachin uchraydi. Bunday boshlamaning kompozitsion qurilishi odatda quyidagi badiiy formulalarning izchil tartibda poetik ifoda etilishiga asoslanadi: "tasdiq-inkor va yana tasdiq-inkor formulasi" ("bor ekanda, yo'q ekan, och ekanda, to'q ekan") ertak voqealari sodir bo'lgan vaqt ifodasi ("qadim zamonda va x.k.") ertak qahramonlari haqidagi biografik ma'lumot ("chol bilan kampir bor ekan va x.k.").

Xorazm ertaklariga xos an'anaviy boshlamaning aralash tipidagi topografik ko'rsatkich odatda voha toponimlaridan iborat bo'ladi. Ertaklarda Xorazm, Urganch, Amudaryo, Xazorasp, Sulaymon qal'asi kabi joy nomlari qo'llanilgan: "Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim uzoq o'tgan zamonda Xorazm tomonda bir chol bor ekan" ("Vafodorlik"); "bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda Sulaymon alayhissalom qal'asida usta Alovuddin otlig' bir yamoqdo'z epchil kambag'al yigit bo'lib, uning bor-u yo'gi birgina xotini bor ekan" ("Aqli ona va ahmoq podsho"). Ba'zan ertak voqealari bo'lib o'tgan makon mavhumlashtirilib, umumiy tarzda ifodalanadi: "Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonlarda o'zlari yashab turgan joyning qoq o'rtasida ikki kishi yashab o'tgan ekan" ("Makkor maymun").

⁷ Джалолов Г. А. Узбекский народный сказочный эпос. – С. 226-227.

⁸ Новиков Н. К. Художественной специфике. – С. 21.

Aralash tipdagi an'anaviy boshlamaning ayrim ko'rinishlarida tasdiq-inkor poetik modeli uchraydi, ya'ni initsial formula to'ridan-to'g'ri xronologik ko'rsatkichni bayon qilishdan boshlanadi: "Qadim zamonda, uzoq-uzoq tomonda, ushbu jahonda ikki aka-uka yashagan ekanlar" ("Aka- ukalar"); Qadim o'tgan zamonda, Ko'xna Urganch tomonda bir podsho bor ekan, davlat unga yor ekan, qo'shinlari ko'p ekan, yurtndan ko'ngli to'q ekan, oti Odilshoh ekan, adl unga hamroh ekan" ("To'rabekxonim bilan Sulton Sanjar"). Saj' asosiga qurilgan bu an'anaviy boshlanada voqealar bo'lib o'tgan zamon va makon, qahramonning epik sifatleri hamda ijtimoiy ahvoli haqida to'la ma'lumot berilgan. Bunday epik ma'lumot tinglovchini ertak eshitishga hozirlab, uning diqqat-e'tiborini Odilshoh mamlakatida ro'y bergan voqeahodisalar tafsilotiga jalb qiladi. An'anaviy boshlamaning aralash tipida ertak voqealari sodir bo'lgan epik vaqt hayoliy uydurma asosida bayon qilinadi. Biz yuqorida xronologik ko'rsatkichlarning "qadim zamonda" tipidagi shakillarini ko'rib o'tdik. Bunday til birliklari ertak voqealarining vaqt belgisini umumiy tarzda ifodalashga xizmat qiladi.

Yuqorida aytilgan mulohazalarni shunday umumlashtirsa bo'ladi: Xorazm xalq ertaklari matnining asosan an'anaviy boshlamalardan iborat bo'lib, umumozbek ertakchiligiga xos bo'lgan an'anaviy so'z boshi, ya'ni initsial formulaning ertak syujetiga aloqador bo'lmagan to'liq poetik ko'rinishi uchramaydi. Bu Xorazm ertaklari kompozitsion tuzilishining o'ziga xosligini ko'rsatuvchi poetik belgilardan biridir. Xorazm ertaklarida an'anaviy boshlamaning biografik, xronologik, topografik, tavsifiy va aralash tipi qo'llanilgan. Bu xil zachin tiplarining har biri o'ziga xos poetik ifodalanish va estetik vazifalarga ega. An'anaviy boshlama ertak voqealari sodir bo'lgan epik vaqt va makon haqida ma'lumot beradi; personajlarni voqealar tizimiga olib kiradi; ertak qahramonlarini badiiy jihatdan tavsiflaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzayeva S. O'zbek xalq romanik dostonlari poetikasi xususida. - Andijon. 2000, 35-b.
2. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. T.; Fan, 1981, Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. T., Fan, 1964, Jabbor Eshonqul, O'zbek folklor: Obraz va talqin. Qarshi, Nasaf, 1998., Jo'rayev M. O'zbek xalq ertaklarida "Sehrlil" raqamlar. - Toshkent. 1991., Jalolov G'. O'zbek xalq ertaklari poetikasi. -Toshkent. 1976.
3. Jabbor Eshonqul. Folklor.Obraz va talqin. - Nasaf., 19R9, 1S-6.
4. Джалолов Г. А. Узбекский народный сказочный эпос. – С. 226-227.
5. Новиков Н. К. Художественной специфике. - С. 21.

Ruzimatova Gulzoda Sharipovna
o`qituvchi
UrDU
(Urganch, O`zbekiston)

ZAMONAVIY BOLALAR SHE`RIYATI YAXLIT ESTETIK HODISA SIFATIDA

Аннотация: *Ushbu maqolada zamonaviy o`zbek bolalar she`riyatining yaxlit estetik hodisa sifatidagi yangilanish xususiyatlari yoritib berilgan.*

Калит сўзлар: *badiiy adabiyot, bolalar adabiyoti, zamonaviy bolalar she`riyati, mikrokosmos, makrokosmos, subkultura, gedonistik funksiya.*

Аннотация: *В данной статье освещаются свойства обновления современной узбекской детской поэзии в качестве целостного эстетического явления.*

Ключевые слова: *художественная литература, детская литература, современная детская поэзия, субкультура, микрокосмос, макрокосмос, гедонистическая функция.*

Abstract: *This article describes the functions of the renewal of modern Uzbek children's poetry as holistic aesthetic phenomenon.*

Key words: *artistic literature, children's literature, modern children's poetry, microcosm, macrocosm, subculture, hedonistic function.*

Dunyo adabiyotshunosligida bugungi kunda bolalar she`riyatining turli janrlariga badiiy-estetik hodisa sifatida yondashib, poetik xususiyatlarini, yaratilish asoslarini, ijtimoiy-psixologik omillarni, ijodkor badiiy mahoratini ochish, bolalar va kattalar o`rtasida kechadigan munosabatlarning badiiy talqini masalalariga alohida e`tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, milliy bolalar she`riyatini yuksaltirishda ijtimoiy-ma`naviy qarashlarning o`zgarishi, voqelikdan ijodiy ta`sirlanish, bola mikrokosmosi va makrokosmosining aks etishi, bolalar she`riyatiga bolalar subkulturasini bilan chambarchas bog`liq badiiy-estetik hodisa sifatida qarash masalalarini yoritish, ta`limiy-tarbiyaviy vazifa bilan birga lirikaning gedonistik (zavqlantirish) vazifasini ham unutmaslik, zamonaviy bolalar she`riyati taraqqiyot tamoyillarini, unda shakliy-uslubiy yangilanish turlarini aniqlash ushbu yo`nalishni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar sharoitida zamonaviy o`zbek adabiyotini rivojlantirishda, jumladan, o`zbek bolalar adabiyotidagi yangilanish jarayonlari, yetakchi taraqqiyot tamoyillari va badiiy tafakkur hamda ijodiy uslubdagi poetik izlanishlarni o`rganishga katta e`tibor qaratilmoqda. «Ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma`rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san`atni anglashga o`rgatish, ularning estetik olamini sog`lom asosda shakllantirish bo`yicha oldimizda muhim vazifalar turibdi»⁹. Bunday keng ko`lamli yangi ijodiy vazifalarini belgilash va keng kitobxonlar

⁹ Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир (Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маъруза) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2017 йил, 4 август.

ommasining, xususan, yosh avlodning badiiy-estetik didini tarbiyalash nuqtayi nazaridan yanada chuqurlashtirish ehtiyoji borligidan dalolat beradi. Shu ehtiyoj tufayli zamonaviy bolalar she'riyatining o'ziga xos badiiy-estetik, badiiy-kompozitsion, uslubiy, lingvopoetik jihatlar bo'yicha tadqiq qilish, zamonaviy bolalar shoirlarining mahoratini ko'rsatib berish ham bugungi adabiyotshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ilk qadamlari XX asr boshlarida yaratilgan alifbolar, adabiyot va o'qish kitoblaridan boshlangan, jahon bolalar adabiyotining eng sara namunalaridan o'rganib, mumtoz adabiyotimizning barhayot anhanalarini davom ettirgan, yahni o'z milliy zaminida rivojlangan, mahlum bir taraqqiyot bosqichlariga erishgan, professional ijodkorlariga ega bo'lgan o'zbek bolalar she'riyatining eng sara namunalari bugungi kunda jahon bolalar adabiyotining oltin fondiga kiradigan asarlar bilan bemaol bellasha oladi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Eng asosiysi, u o'z zimmasiga yuklatilgan muqaddas va mashuliyatli vazifa – kelajakni yaratishi kerak bo'lgan tom maonodagi komil insonni shakllantirish manfaatlariga doimo sadoqat bilan xizmat qildi va qilyapti. Demak, bu adabiyotning kelajagi yanada porloq bo'ladi, deyish uchun ham to'la asos bor. Ayni paytda mazkur asarlarni badiiy-estetik, badiiy-kompozitsion, uslubiy, lingvopoetik, psixologik aspektlarda tadqiq etish yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar ham dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Mustaqillik ne'matlari deganda, avvalo, xalqimizning yillar taloto'pidan omon kelayotgan umrboqiy milliy, ma'naviy-madaniy, adabiy qadriyatlarining yana qayta tiklanishini tushunmog'imiz kerak. Bugungi kunda milliy qadriyatlarimizga munosabat har qachongidan o'zgacha. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimiz ertangi kunining egalari bo'lgan yosh avlod dunyoqarashi tom ma'noda yangilanayotgan ekan, bu jihat badiiy adabiyotda ham to'laligicha aks etmog'i ham tabiiydir. Shu boisdan: "...Bolalar adabiyoti yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan badiiy, ma'rifiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratishga bevosita xizmat qiladi... uning ahamiyati ushbu xususiyatlar bilan o'lchanadi"¹⁰.

Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida bolalar adabiyotidagi yangilanish jarayonlari, yetakchi taraqqiyot tamoyillari va badiiy tafakkur hamda ijodiy uslubdagi poetik izlanishlarni o'rganishda milliy-mahalliy ijodkorlarning ijodiy izlanishlarini o'rganish ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy o'zbek bolalar she'riyatining yaxlit estetik hodisa sifatidagi yangilanish jarayoni va omillari quyidagilarda yaqqol ko'rinadi: jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar badiiy tafakkur yangilanishining tashqi omillari, ijodkor dunyoqarashi va iste'dodi esa badiiyatni yangilovchi ichki omillar sifatida namoyon bo'lmoqda; Rustam Nazar, Ollabergan Po'lat, Erpo'lat Baxt, Sodiqjon Inoyatovlar ijodida bolalik olami, bola obrazida milliy-mahalliy va umuminsoniy qadriyatlar ifodasi, bola obrazining realistlik, yumoristik va ramziy-majoziy talqini turli poetik vositalar orqali tubdan yangicha idrok etilyapti, bolalar she'riyatidagi shakliy-uslubiy izlanishlar zamonaviy o'zbek bolalar she'riyati rivojida o'ziga xos bosqich boshlanganini anglatadi; bolalar she'riyatiga xos poetik yangilanishlar mahalliy va o'zbek

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Китоб махсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизimini ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида”ги Фармойиши // Халқ сўзи, 2017 йил, 13 январь

bolalar adabiyotining badiiy yuksak namunalaridan, madaniy meros va folklor an'analaridan ijodiy foydalanish asnosida kechmoqda; bolalar she'riyatidagi ijodiy yangilanishlar, turli poetik obraz va motivlar, ramz va boshqa badiiy vositalardan foydalanish jarayoni ijodkor mahorati hamda tafakkuridagi o'zgarishlar mahsuli hamda shakliy-uslubiy izlanishlar yangilanish mezonlari sifatida ko'rinadi; bolalar xarakteri tayyor g'oyaviy qoliplar asosida emas, chinakam badiiylik mezonlariga tayanilgan holda poetik idrok etilmoqda; zamonaviy o'zbek bolalar she'riyatining taraqqiyotida jahon bolalar adabiyoti, o'zbek mumtoz adabiyoti va xalq og'zaki ijodi namunalari bilan birga mahalliy ijodkorlarning ijod mahsullari ham ijodiy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy bolalar she'riyatining maydonga kelish, tarkib topish, turlar va janrlar bo'yicha o'ziga xosliklarini o'rganish, uning badiiy-estetik, ma'rifiy-ma'naviy va ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatini tadqiq etish yosh avlod ma'naviy kamoloti va millat kelajagini belgilashda muhim o'rin tutadi. Zero, bolalar adabiyotiga e'tibor insoniyat ma'naviy kamolotiga munosabat sifatida jamiyat rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lib, har bir milliy adabiyotda o'ziga xos jihatlari bilan alohida ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир (Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маъруза) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2017 йил, 4 август.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида”ги Фармойиши // Халқ сўзи, 2017 йил, 13 январь.
3. Jumaboev M. Bolalar adabiyoti. Darslik. O'qituvchi, 2003.

Адизова Сарвиноз Ҳалимовна
преподаватель узбекского языка,
Латипова Саодат Аъзамовна
преподаватель узбекского языка школы №2 Шафирканского района
Бухарской области, Узбекистан
(Шафиркан, Узбекистан)

ТРАДИЦИОННОСТЬ В ПОЭЗИИ МУХАММАДА ЮСУФА

Резюме. В статье описана традиционность в поэзии Мухаммада Юсуфа.

Ключевые слова: поэт, эпос, стихотворение, поэзия, литература, фольклор.

TRADITION IN THE POETRY OF MUHAMMAD YUSUF

Resume. The article describes the tradition in the poetry of Muhammad Yusuf.

Keywords: poet, epic, poem, poetry, literature, folklore.

Мухаммад Юсуфнинг ҳар бир яратилган асари ўзбек адабий меросида бебаҳо хазина сифатида эътироф этилади. Ёзувчи яратган ҳар бир асар буюк фалсафаси, бадиий тасвир воситаларининг кенг қўламлилиги, тилининг соддалиги ва ранг-баранглиги, мусиқий оҳангдорлиги билан китобхонни онг-у шуурини сеҳрлагандай бўлади. Ҳар қандай улкан ижодкорнинг буюклиги ўзининг онабағир фольклорини пухта билиши, унинг барҳаёт анъаналарини ижодий ўзлаштириш орқали ўлмас асарлар яратишдаги маҳорати билан белгиланади. Фольклорга меҳр-муҳаббат, унинг анъаналаридан мадад олиш Мухаммад Юсуф ижодининг етакчи тамойилларидан бирини ташкил этади. Мухаммад Юсуф адабиётнинг халқчиллигини, оптимистик руҳини таъминлашни, энг аввало, фольклорда кўрди.

Ким Қашқарни қилди макон,
Ким Энасой томонда,
Жалолиддин – Курдистонда,
Бобуринг – Ҳиндистонда,
Бу қандай юз қаролиғ деб,
Ётарлар зимистонда,
Тарқаб кетган тўқсон олти
Уруғимсан, Ватаним...

Ёзувчи асарларида халқ оғзаки ижоди жанрларидан унумли фойдаланиш усули бир тарафдан, ўзбек фольклорини қайта-қайта мутола қилганининг муайян таъсири бўлса, иккинчи томондан ўзбек халқ оғзаки ижодининг бебаҳо мероси бўлмиш “Алпомиш” халқ эпосининг таъсири остида уйғонди.

Ватан ҳақида умимий руҳда ёзилган шеърлар адабиётимизда истаганча топилади. Мухаммад Юсуф шеърларининг улардан фарқли жиҳати, бу ҳассос шоирнинг ватан ҳақақидаги шеърларини ўқиганингизда бевосита Ўзбекистон ҳақида сўз

кетаётганини сезиб турсазис. Шоир шеърни “Ўзбекистон” дея номлаши, унга бериладиган таъриф ёрқинроқ ҳис қилиниши учундир:

Ялпизлари	Зумрад далам,
Кўкка туташ,	Ипак карвон,
Тунлари зар,	Олмос қалъам.
Тонги маржон.	Кузда кетган қушлари ҳам,
Юлдузлари-қотган куёш,	Баҳор кўмсаб қайтган айвон-
Куёшлари куйдирамжон.	Ўзбекистон, Ўзбекистон!
Олтин тупроқ,	

Муҳаммад Юсуф ватанни шунчаки мадҳ қилмайди. Ватан тарихида ўчмас из қолдирган, юртпарвар улуғларини эслаб, хотирани уйғотади. Элим деган эр миллат байроғини юракка қадашини “Ватан мадҳи” шеърда поэтик қиёсда шундай айтади:

Ўпинг, кўзингизга суринг тупроғин,
 Ҳар сўзин муқаддас дуодек севинг.
 Қаданг юракларга миллат байроғин
 Ватанни Нажмиддин Кубродек севинг.

Шоир тарихий шахс Нажмиддин Кубро номини эшлаш билан шонли тарихга ишора қилса, “дуо” архаик сўзини қўллаш билан шеърнинг таъсирчанлигини орттираётир. Дуо ҳар бир ўзбек учун муқаддаслиги аён.

Муҳаммад Юсуфнинг ватан, халқ тарихи ҳақидаги шеърларида кўнгли жилва қилиб, туйғу самимийлиги силқиб тургани, мантиқий изчиллик кучли бўлгани учун ҳам ўқувчинида дилига ўрнашади. Ўзбекистон халқ ёзувчиси, таниқли адиб Муҳаммад Али “Шоирнинг сози тинмайди” мақоласида шоирнинг ватанпарварлик мавзусидаги шеърлари ҳақида жуда топиб қуйидагиларни битади: “Муҳаммад Юсуф шеърятининг энг олий фазилати, фикримча, бу унинг соф ва пок самимиятида мужассамдир. Самимият, халқона руҳ унинг шеърларини жилолантириб, безаб, уларга бетакрор кўрку тароват бағишлайди. Энг яхши фазилатларидан яна бири – лоқайдликдан йироқлик, ҳаётга бефарқ эмаслик. Куйканак кўнгили, аммо йиғлоқлик, қўл қовуштириб тақдирга тан бериб ўлтириш унга ёт. У кўрган, завқланган ёки нафратланган нарсасини дарҳол ифодалашга интилди, қўлига қалам олди.

Миллий ғурурни камол топтиришда ватан учун, халқ учун ифтихор туйғусини ўстиришда Муҳаммад Юсуф шеърлари улкан маънавий озиқдир. “Қуёшистоним”, Ўзингдан қўймасин, халқим”, “Қайда бор”, “Ватан ягонасан”, “Ўзбекман”, “Ўзбек палвонларига”, “Муҳаммадқодир”, “Чаманистоним” каби кўплаб шеърларида, “Юлдузлар билан сирлашган, тилла кўнгироқли карвон ўзбек”ман деган шоир кўнглида юртга меҳр, фахр туйғуси нақадар юксаклигини кўрамиз. Истиқлолга етишгач, тарихимиздан ифтихорланишнинг ўзи камлик қилади. Энди ўзбек деган ном жаҳонга таралиши, дунёни қучиши керак. Шоирнинг мана шундай эзгу нияти “Дунёларни кучди ўзбек деган ном” шеърда аксини топган:

Бошин не тошларга урди бу диёр,
 Неча вайрон бўлди, қурди бу диёр.

Тожмаҳал меъмори, Нилнинг мироби
Имом Бухорийлар юрти бу диёр.
Бизни йўқлаганга биздан ҳам салом.
Дунёларни кучди ўзбек деган ном!

Ўзбек халқ оғзаки ижодида, мумтоз адабиётимизда, XX аср ўзбек шеърлятида дostonларнинг гўзал намуналари яратилган. Демак, ўзбек ўқирманига дoston ёзиб манзур қилиш осон эмас. Дoston ёзиш шоирдан улкан малака талаб қилади. Энг муҳими шоирнинг дoston шаклида айтадиган сўзи, асарга яраша бадий юк бўлиш керак. Муҳаммад Юсуф бешта дoston яратди. “Эй, дил”, “Қора куёш”, “Кўҳна қудуқ”, “Темирлар нидоси”, “Осмоннинг охири” каби асарларида Муҳаммад Юсуф талантининг яна бир қирраси–дostonнавислиги зухурланган. Муҳаммад Юсуф дostonлари кўпроқ лирик планда. Лирик қаҳрамоннинг кечинмалари ифодаси етакчидир. Шоир воқеабандликдан кўра ичкин туйғуларни ифодалашни доминанд қилгани ҳам, унинг қарашларидан, айтмоқчи бўлган фикрларига мос шакл излаганидан. Муҳаммад Юсуф айни вақтда эпик, драматик дoston унсурларини ҳам қўллайдики, бу унинг дoston жанри табиятини яхши билганлигининг далолати. “Ўтмишингни ўйлаб ўртанар жоним, тошларни йиғлатган дostonларинг бор” сатрларини битган шоир дostonларида бир ўғлон сифатига халққа, ватанга бўлган меҳри силқиб туради. Шоирнинг руҳоний маданияти, дилидаги фикрлар дostonларида янада теран акс этади.

Муҳаммад Юсуф дostonларида ҳар бир сўзнинг ўз ўрни бор. Шоирнинг сўз қўллаш маҳорати мазмун моҳиятига мос сўзларни керакли жойда ишлатишида кўринади. Шоир дostonларида Ватанга бўлган муҳаббатни, эл-юрт олдидаги фарзандлик бурчини ҳамиша ҳис қилиб яшаш туйғусини, ўз қадримизга ўзимиз етишимиз, бўламан деган эл ботирим деб яшаши даркорлигини таъсирли мисраларда қалбга кўр соладиган қилиб ифодалайди. Ватан сувратини кўнглимизда янада жилолантириб, бир-биримизни авайлаб меҳрла умр кечириш истагини ловуллади. Юрт тинчлиги энг улуғ неъматлиги ва бунинг қадрига етиш масъулятини сездиради. Муҳаммад Юсуф дostonлари ва шеърлари унинг истеъдодининг кўлами, шеърлятнинг катта – кичик жанрларида, ҳар қандай мавзуда бадий хижатдан пухта, фикрий теран асарлар ёза олишининг исботидир.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Muhammad Yusuf “Saylanma” she’riy to’plami 2014.

Алимкулова Гулсара Хайдаровна
ЧГПИТО, магистрант 1 курса,
Касимова Адиба Бегалиевна
Доктор Философии
(Чирчик, Узбекистан)

СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ИМЕНИ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОГО НА МАТЕРИАЛЕ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Oʻzbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligiga keng qamrovli dolzarb masalalar boʻyicha ochiq va ishonchli fikr almashish platformasi sifatida qaraydi. Mamlakatimiz tashkilotda qator yoʻnalishlar, jumladan, savdo, investitsiyalar, transport, turizm, fan, taʼlim, xavfsizlik kabi sohalar boʻyicha oʻz ishtirokini yangi sifat bosqichiga koʻtarishni rejalashtirgan.

Toshkentda birinchi marta oʻtkazilgan MDH Hukumat rahbarlari kengashining majlisida aʼzo davlatlar oʻrtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga doir 20 ga yaqin masala koʻrib chiqildi.

Kengaytirilgan tarkibdagi muhokamalarda Hukumat rahbarlari xalqaro kartellarga qarshi samarali kurashishda dunyo hamjamiyati kuchlarini birlashtirishga oid bayonotni muhokama qildi. Bayonotda MDH davlatlarida xalqaro kartellarga qarshi kurashishda vaziyatni yaxshilash boʻyicha chora-tadbirlar koʻzda tutilgan. Ishtirokchilar Hamdoʻstlik mamlakatlari

iqtisodiyotining barqaror o'sishida hamkorlikdagi chora-tadbirlarni amalga oshirishdan manfaatdor ekanini ta'kidladi.

Hukumat rahbarlari 2011-yil 18-oktabrda qabul qilingan Erkin savdo zonasiga oid shartnoma nizomlari ijrosiga doir ma'lumotni ko'rib chiqib, shartnomada savdo munozaralarini hal etish bo'yicha ko'zda tutilgan mexanizmlar tomonlarning shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari bajarilishiga doir kelishmovchiliklarni tartibga soladigan o'zaro manfaatli samarali vosita hisoblanishini ta'kidladi.

Hamdo'stlikka a'zo davlatlarning neft va gaz mashinasozligi, melioratsiya va tovarlarning bojxona narxlarini masalalari kabi sohalar bo'yicha hamkorlik, jumladan, ularning ijrosiga doir dastlabki tadbirlar rejasini qo'llab-quvvatlanadi.

Tovarlarining bojxona qiymatini belgilash va nazorat qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumot almashish bo'yicha kelishuv loyihasi Hamdo'stlik makonida iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun ahamiyatli sanaladi. Ushbu hujjatga a'zo davlatlarning bojxona chegaralari orqali o'tadigan tovarlarning deklaratsiya qilingan bojxona qiymati ishonchligini ta'minlashda hamkorlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan.

Bojxona to'lovlarini to'lashdan bosh tortish harakatlariga qarshi kurashishga qaratilgan hujjat MDH davlatlari chegaralaridan o'tadigan tovarlarning bojxona qiymatini samarali nazorat qilish imkonini beradi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz Hamdo'stlik faoliyatidagi ishtirokini sezilarli darajada faollashtirdi. O'zbekiston MDH Iqtisodiy Kengashi, Hamdo'stlikning Parlamentlararo assambleyasi va 20 dan ortiq tarmoq organlariga qo'shildi. Maqsadlari milliy manfaatlarga javob beradigan boshqa tarmoq organlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Hamdo'stlikka a'zo davlatlar O'zbekistonning asosiy savdo sheriklari hisoblanadi. 2020 yilning 9 oyida respublikaning MDH davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 8 059,5 million dollarni va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 29,3 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston tomoni MDH davlatlari bilan savdo-iqtisodiy hamda bojxona hamkorlikni O'zbekistonning mavjud iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalanish, shu jumladan, ta'minot va ishlab chiqarish mahsulotlari assortimentini diversifikatsiyasini kengaytirish asosida rivojlantirishdan manfaatdor.

O'zbekiston MDH davlatlari bilan transport va tranzit sohasida, shu jumladan, transport koridorlarini rivojlantirish bo'yicha o'zaro imtiyoz va preferensiyalar berish, shuningdek, yangi o'zaro manfaatli transport yo'nalishlarini shakllantirish va rivojlantirish sohasida hamkorlikni chuqurlashtirishga katta ahamiyat beradi.

Koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq jahondagi murakkab vaziyatga qaramay O'zbekiston raisligi davrida bir qator muhim tadbirlar bo'lib o'tdi. Ular orasida Hukumat rahbarlari kengashi, iqtisodiy kengash, tashqi ishlar vazirlari kengashi, MDH davlatlari hududlarini o'ta xavfli yuqumli kasalliklar importi va tarqalishidan sanitariya muhofazasi muammolariga bag'ishlangan Muvofiqlashtiruvchi kengash, ilmiy-texnikaviy va innovatsion sohalarida hamkorlik bo'yicha davlatlararo kengash va boshqalarni alohida ta'kidlash lozim.

Xususan, MDHni yanada rivojlantirish bo'yicha yangilangan Konsepsiya, Hamdo'stlikni 2030 yilgacha iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi, shuningdek, harbiy va chegara sohasidagi

hamkorlik, bo'xona hamkorligi, innovatsiya, transport, madaniyat va sport, turizm va yoshlar hamkorligi sohasidagi 9 dasturiy hujjat qabul qilindi.

Joriy yilning 18 dekabr kuni Mustaqil davlatlar hamdo'stligi rahbarlari kengashining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida videokonferensiya shaklida bo'lib o'tgan MDHda O'zbekiston raisligining yakuniy tadbiri bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Hamdo'stlik doirasida ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish bo'yicha bir qator takliflarni bildirdi, shu jumladan:

- "yashil" va soddalashtirilgan yo'laklar amaliyotini keng joriy etish;
- Hamdo'stlik doirasida elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha yagona platformani ishga tushirish va "Yo'l xaritasi" ni qabul qilish;
- Industrial sanoat kooperatsiyasining kompleks dasturini ishlab chiqish;
- transport koridorlarining raqobatbardoshligini oshirish, qoidalar va standartlarni muvofiqlashtirish, muvofiqlashtirilgan tarif siyosatini olib borish va o'zaro imtiyozlar berish;
- barcha sanitariya talablariga rioya qilgan holda o'zaro asosda havo qatnovini iloji boricha tezroq tiklash, bu ishbilarmonlik, gumanitar va turistik almashinuvni tiklashga yordam beradi;
- mehnat muhojirlarining hujjatlarini o'zaro tan olishning yagona mexanizmini yaratish va bu borada alohida dastur qabul qilish;
- sanitariya-epidemiologik vaziyat samarali monitoringini olib borish, favqulodda vaziyatlarni kuzatish va tezkor ta'sir ko'rsatish tizimini shakllantirish;

Bugungi kunda MDH erkin savdo zonasining rivojlanishi va to'laqonli faoliyat ko'rsatishi, yana-da ko'proq iqtisodiy hamkorlik qilish uchun qulay sharoitlar yaratish, sanoat kooperatsiyalarini rivojlantirish, tovarlar oqimining tuzilishini diversifikatsiya qilish bo'yicha faoliyatni faollashtirish va tovar aylanmasi, jumladan qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tovarlar va boshqa talab yuqori bo'lgan mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish, bo'xona tartibini soddalashtirish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini o'zaro yetkazib berish chog'ida "yashil yo'laklarni" yana-da kengroq joriy qilish masalalari asosiy o'rinda turadi.

O'zbekiston MDH Erkin savdo hududining to'qqizinchi a'zosi bo'lgan.

Erkin savdo hududi tashkil etish haqidagi bitim 2011 yilning 18 oktyabrida sakkiz davlat-Rosiya, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Tojikiston va Ukraina tomonidan imzolangan edi. O'zbekiston esa Ozarbayjon va Turkmaniston bilan birga keyinroq shartnomaga qo'shilish istagini bildirgan.

Rossiya dohil 8 MDH davlatlari o'rtasida tuzilgan ushbu Savdo hududi bo'xona to'lovlarini imkoni boricha tushirishni maqsad qilgan. Shartnoma erkin savdoni emas, balki Erkin savdo hududini tartibga soladi. Unda a'zo davlatlar o'rtasida bosqichma-bosqich turli mahsulotlarning eksport va importiga qo'yilgan cheklavlarni olib tashlash nazarda tutilgan.

Sho'ro davrida xomashyo, energiya va ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zaro yetkazib berish tizimi amal qilgan va bu tizim sobiq sho'ro jumhuriyatlaridagi iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlab kelgan.

1991 yilda SSSRning parchalanishi bilan iqtisodiy aloqalarning uzilib qolishi hanuzgacha bu davlatlarning iqtisodiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelishi aytiladi. Sababi mustaqil davlatlarning ko'pchiligi, neft va gaz hamda boshqa qazilma boyliklar xorij, jahon bozorida o'z o'rnini topolmagan. Post sovet mahsulotlariga talab ham faqat sobiq sho'ro davlatlarida mavjud, xolos.

Erkin savdo hududi sho'ro davrida amal qilib kelgan iqtisodiy rishtalarning qisman tiklanishiga olib kelishi kutilmoqda. Bu esa sobiq sovet davlatlaridagi ishlab chiqarish salohiyatining yuksalishi, ish o'rinlari yaratilishi asnosida Rossiyaga mehnat muhojirlari oqimining ham kamayishiga olib kelishi mumkinligi bashorat qilinmoqda. Shu tariqa sobiq sho'ro hududi yagona iqtisodiy hududga aylanayotir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2013/05/130531_latin_free_economic_zone
2. "Bojxona tizimi haqida", 2006 - yil.
3. <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasining-2020-jilda-mustaqil-davlatlar-hamdostligidagi-raislgi-kontseptsiyasi>
4. Anne Krueger, "Trade Creation and Trade Diversion Under NAFTA," NBER Working Paper 7429 (1999).
5. Constantine Michalopoulos and David Tarr, Are Customs Unions Economically Sensible in the Commonwealth of Independent States (Washington: World Bank 2004).

SECTION: TECHNICAL SCIENCE. TRANSPORT

Qiryigitova Sevara Batirovna

Jizzax Politehnika instituti

Kimyoviy Texnologiya fakulteti

**"Materiallarning kimyoviy qarshiligi va zanglashdan himoyalash" yo'nalishi 701-
guruh magistranti
(Jizzax, Uzbekistan)**

METALL BUYUMLARNI KORROZIYADAN HIMOYA QILISH USULLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada metall buyumlarni korroziyadan himoya qilish usullari, korroziya sabab kelib chiqadigan salbiy oqibatlarni oldini olish xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: korroziya, metal, buyum, uskuna, texnologiya

Metall va uning qotishmalaridan tayyorlangan asbob-uskunalar, quvurlar, rezervuarlar va boshqa konstruksion materiallar ishlashlari davomida korroziyalanib (zanglab, yemirilib, parchalanib) xalq xo'jaligiga katta zarar keltiradi. Masalan, AQSH ning neft-gaz sanoati korroziya natijasida; 1975- yil 75 milliard dollar; 1984- yil esa 150 milliard dollar ziyon ko'rgan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Respublikamiz mustaqilligidan keyingi sanoat tarmoqlarining keng miqyosida rivojlanishi natijasida zamonaviy texnologiyalar usullari jihozlar va uskunalar ishlab chiqarishda foydalanilmoqda. Jihoz va uskunalaridan foydalanish davomida ularning ish qobiliyatini saqlash, ishonchli ishlashini ta'minlash uchun ularni korroziyadan himoya qilish dolzarb vazifalardan biridir.

Korroziya - metallarning korroziyon muhitlar bilan kimyoviy yoki elektrokimyoviy o'zaro ta'siri natijasida yemirilish jarayonidir. Korroziyon muhit- metallarning korroziyon jarayonlar sodir bulishiga olib keladigan agressif atmosfera, kislotalar eritmaları, ishqorlar, tuzlar va boshqa muhitlardir. Ko'pgina metallar agressif muhitlar ta'sirida termodinamik noturg'un bo'lganligi uchun oksidlangan holatda o'tadi va yemiriladi. Metallarda korroziyon jarayonlar kechishi natijasida masalalari kamayadi, zaruriy texnologik xossalari; mexanik mustahkamligi; plastikligi; qattiqligi kabi xossalari o'zgaradi. Korroziya detallarning va mexanizmlarning ish qobiliyatining pasayishi va va ishdan chiqishiga olib keluvchi asosiy yemiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Korroziya natijasida yo'qotishlarni bevosita va bilvosita usullarga bo'lish mumkin. Bevosita korroziyadan yo'qotishga buyumlarni himoyalash uchun qilinadigan sarf – xarajatlar va metallning ish qobiliyatini yo'qotish natijasida to'liq ishdan chiqishi hozirgi vaqtda yiliga 10-15% ini tashkil etadi.

Bilvosita korroziyadan yo'qotishga jihozlarning ish unumdorligi kamayishi natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatida va hajmi kamayishi, hamda metallarning sarfining oshishi kiradi. Neft va gaz sanoatida korroziya natijasida ko'pgina jihozlarning ish unumdorligini kamayishi va ishdan chiqishi kuzatiladi. Ayniqsa quvurlar, jumraklar va rezervuarlar shular jumlasidandir. Metallarning korroziyaga qarshilik ko'rsatish qobiliyati korroziyabardoshlik

deyiladi. Metall va ularning qotishmalari har xil haroratli sharoitlarda va har xil tashqi muhitlarda turlicha korroziyabardoshlikka ega buladi. Korroziyaga qarshi himoya usullari konstruksion, texnologik va foydalanish davridagi tadbirlarga bulinadi va uning usullari korrozion eksperimental tadqiqotlar asosida ishlab chiqiladi.

Termik va kimyoviy-termik ishlov berish po'latlarning korroziyabardoshligini termik ishlov berish usuli bilan oshirish uning tarkibidagi metal bir turdagi murakkab karbidlarni alfa(qattiq eritma) va bitta(intirmetal birikmalar)ning bo'lmasligiga erishish bilan bog'liqdir. Po'latlar sirtki qatlamini termik va kimyoviy ta'sirlar bilan birgalikda olib borish kimyoviy-termik ishlov berish deyiladi.

Kimyoviy-termik ishlov berishda C,N,AL,Cr,Si kabi elementlar bilan pulat sirti boyitilib, sirt qatlam xossalari, tarkibi va strukturalari uzgartiriladi. Korroziyabardoshligini oshirishning quydagi kimyoviy-termik usullari mavjud:

Gazli yoki syyuq muxitda azotlash:

Xromlash: Alymini bilan boyitish:

Rux bilan boyitish:

- Galvanik usulda olinadigan qoplamalar asosan metallarni korroziyadan himoya qilish uchun qo'llaniladi. Galvanik qoplamalar himoyalash ta'siriga ko'ra anodli yoki katodli qoplamalar bo'lishi mumkin.

- Metallizasion qoplamalar gazotermik va elektr metallizasiya usullarida, metall sirtiga erigan metallarni purkash yo'li bilan olinadi. Gazotermik purkashda issiqlik energiyasi manbai sifatida asitelin, propan va b. Gazlarning kislorod bilan aralashmasi yonishi natijasida hosil bo'lgan gaz alangasi xizmat qiladi.

- Detallarning sirtini korroziyadan himoya qilish, sirt yemirilishini kamaytirish va qoplamaning zaruriy mexanik mustahkamligini talab qilinganda yupqa qatlamli plastmassa qoplamalar qo'llaniladi. Plastmassalar bilan qora va rangli metallar, beton, keramika, yog'och, mva materiallar sirtini qoplash mumkin.

Ushbu usullar orqali metall buyumlarni korroziyadan himoya qilish orqali respublikamiz iqtisodiyotiga yetkaziladigan zarar va uning oqibatlari bilan kurashgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.M. Turobjonov, D. Yusupov, M.A. Tursunov, A. Ikromov, A.S. Mustafayv, K.Sh. Hamroyev "Yangi korroziya ingibitorlarni yaratish, xossalari ni tadqiq qilish, tajriba-sanoat ishlab chiqarilishini o'zlashtirish". O'zbekiston kimyo jurnali 4/2009y
2. Xomchinko G.P., Xomchinko I.G. Kimyo. Toshkent, 2007y
3. www.ziyonet.uz

Казакбаева Мухаббат Турабаевна
Ассистент,
Қуандиқов Бауржон Айдар ўғли
Талаба,
Хакимова Зилола Фозил қизи
Талаба
Тошкент давлат транспорт унвеситети
(Тошкент, Ўзбекистон)

ҚУРИЛИШ МАЙДОНЛАРИДА ГЕОДЕЗИК ТАРМОҚЛАРНИ РЕЖАЛАШ СИФАТИНИ БАҲОЛАШ

Аннотация: Ушбу мақолада Замонавий қурилишни геодезик таъминлашдаги асосий босқичлар, қурилиш объектида планли геодезик тармоқларини яратиш ишлари ҳақида ҳамда планли геодезик тармоқларни қурилиш қўйимларини инobatга олган ҳолда лойиҳаланиши ҳақида баён этилади.

Калит сўзлар: триангуляция, трилатерация, полигонометрия, чизиқли – бурчакли ва қурилиш тўрлари, Давлат геодезик тармоқлари, зичлаштириш тармоқлар.

Kazakbayeva Muhabbat Turabayevna
Assistent,
Quandiqov Baurjon Aydar ogli
Student,
Hakimova Zilola Fozil qizi
Student
Tashkent State Transport University
(Tashkent, Uzbekistan)

ASSESSMENT OF QUALITY OF PLANNING OF GEODESIC NETWORKS ON CONSTRUCTION SITES

Annotation: This article describes the main stages of geodetic support of modern construction, the creation of planned geodetic networks at the construction site, as well as the design of planned geodetic networks, taking into account the construction costs.

Key words: Triangulation, trilateration, polygonometry, linear-angular and construction networks, State geodetic networks, compaction networks.

Казакбаева Мухаббат Турабаевна

Ассистент,

Куандиков Бауржон Айгар угли

Студент,

Хакимова Зилола Фозил кизи

Студент

Ташкентский государственный транспортный университет

(Ташкент, Узбекистан)

ОЦЕНКА КАЧЕСТВА ПЛАНИРОВКИ ГЕОДЕЗИЧЕСКИХ СЕТЕЙ НА СТРОИТЕЛЬНЫХ ПЛОЩАДКАХ

Аннотация: В государстве описаны основные этапы геодезических наблюдений из современным строительством, работы по созданию плановых геодезических сетей на строительной площадке, а также проектирование плановых геодезических сетей с учетом затрат на строительство.

Ключевые слова: Триангуляция, трилатерация, полигонометрия, линейно-угловые и строительные наборы, Государственные геодезические наборы, настройки плотности.

Замонавий қурилишни геодезик таъминлашда, асосий босқич – бу қурилиш объектида планли геодезик тармоқларини яратиш ишлариدير. Планли геодезик тармоқларни қурилиш қўйимларини инобатга олган холда лойиҳаланади. Планли геодезик тармоқлар қуйидаги усулларда барпо этилади: триангуляция, трилатерация, полигонометрия, чизиқли – бурчакли ва қурилиш тўрлари. Уларни барпо этишда асос сифатида давлат геодезик тармоқлари пунктлари хизмат қилади. Планли тармоқларни барпо этишда кўпгина факторлар инобатга олиними керак, булар асоси аниқлиги, тўрни барпо этиш тезлиги, пунктларни максимал сақланиши, меҳнат сарфининг камлиги.

Юқорида келтирилган усулларнинг ҳар бири ўзига яраша ютуқ ва камчиликларига эга. Қурилиш бош плани тузилшига қадар, тўрлар сифатини баҳолаш лозим бўлади.

Замонавий саноат қурилишининг ажралиб турадиган жихати - бу қурилиш монтаж ишларининг юқори даражада механизациялашганлиги, илғор технологиялардан фойдаланилиши, режалаш ва лойиҳалашнинг аниқ ва самарали усулларини қўлланилиши. Қурилиш ишларини қисқа муддат ичида амалга оширилиши. Булар муқобил лойиҳалаш ва планли геодезик баландлик тармоқларининг барпо этиш ва усулларини ишончилигини таъминланишини талаб қилади. Замонавий қурилишда геодезик тармоқлар 2 турга бўлинади: геодезик асос ва геодезик режалаш тармоқлари.

Геодезик асос буюртмачининг ҳисобидан, қидирув – лойиҳа ташкилотлари яратади. Ушбу тармоқлар қурилиш ҳудудларида топографик съемкаларани амалга оширишга хизмат қилади, агар топографик план мавжуд бўлса, у холда бошланғич режалаш ишларида бино ёки иншоотларнинг жойга кўчириш ишларида фойдаланилади. Буюртмачилардан бундай тармоқлар қабул қилганда, қурилиш ташкилотларининг

геодезия мутахассислари бу тармоқни норматив хужжатларнинг талабларига мувофиқлиги яъни, қурилишни таъминлашга текширилади. Қурилиш жараёнида бу тармоқлар қурилиш ташкилотларнинг геодезистлари томонидан қайта тикланиши ва тўлдирилиши мумкин. Уларнинг аниқлиги ҚМҚни 1.03.26 – 2004 “Қурилишда геодезик ишлар” талаблари билан тартибга солинади. [3]

Икинчи тармоқ тури – умумий конструктив жихатидан ўхшаш бўлган алоҳида бино ёки уларнинг гуруҳларини асосий ўқларини режалаш ишларини амалга ошириш учун керак бўлади.

Режалаш ишларини олиб бориш учун, триангуляция, трилатрация, чизиқли - бучакли тармоқларни зичлаштириш полигонометрия ва теодалит йўли кўринишида барпо этилади, Буларни ичида геодезик тўртбурчак энг қулай ҳисобланади. Чунки бу усулда икки қарама – қариши бурчак ва барча томонлари ўлчанганлиги сабабли ўлчаш ишларида вақт тежаланилади. Бу усулда ромбга яқин бўлган тўртбурчакларни ўтмас бурчакларни ҳам ўлчаш тавсия этилади. Бундай ҳолда бошқа иккита ўткир бурчакларни аниқлаш аниқлиги ўлчашдан олинган ўлчаш билан бир хил бўлади. Бироқ тўртбурчаклардан режалаш тўрларини барпо этишда светодолюномер асбобидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ, аммо бунини доим ҳам қурилиш шароитларида қўллаб бўлмайди. Буларни иноватга олсак геодезик тўрни учбурчаклар кўринишида барпо этиш қулайдир, сабаби бунда фақатгина базис узунлиги ўлчаш учун компарирланган рулетка ва 2° - 5° аниқликдаги теодалити керак бўлади.

Давлат геодезик тармоқлари, зичлаштириш тармоқлари шахар, қишлоқ ва sanoat қурилиш тўрларидан планли ва баландлик геодезик асоси сифатида қурилиш объектида режалаш ишларида ҳам қўлланилади.

1:500 масштабни съёмкада II - IV класс давлат тармоқларининг бир пункти меъёрига кўра 20 – 30км² тўғри келади. Шу билан бир вақтда планли баландлик геодезик асосларини қуришда ҚМҚ 1.02.17 – 09 йўриқномаси ҳисобга олиниши керак, чунки замонавий йирик sanoat қурилишлари ҚМҚ да ўрнатилган кетма - кетликда олиб борилади. Пункт марказлари қурилиш участкасига маҳкамланади. Йирик sanoat объектилари қурилишида таянч геодезик тўрлари бир неча босқичда барпо этилади. Юқори босқич тармоқларнинг пунктлари қуйи босқич тўрларни қуришда асос бўлиб хизмат қилади. [3][4]

Ностандарт қурилишлар учун босқич сонлари – якуний ва бошланғич босқичлардаги ўртача квадратик хатоликларнинг m_n/m_1 нисбатига боғлиқ ҳолда аниқланади. Аниқликни пасайтириш коэффицентини шундай белгилиланадики, тармоқларни тенглаштирилганда юқори разряд хатоликлар кичик разряд қурилишидаги ўлчаш натижаларига салбий таъсир кўрсатмаслиги керак. Танланган қийматдорлик даражаси q қуйидаги тенгсизлик билан ифодаланади

$$P_F \geq (1 - q)^2 P_{F_1}, \quad (1)$$

бу ерда P_{F_1} - бир разрядга тегишли тармоқларни ўлчаш хатоликларининг таъсирига боғлиқ бўлган ҳолда; P_F - кўрилатган функция вазни, бошланғич маълумотлар ва ўлчаш хатоликларининг биргаликдаги таъсирига асосланган функция вазни; P_{F_1} ва P_F

ни аниқлаш учун 2та тенгламалар системасини ечиш керак. Биринчи тенгламалар системасини фақатгина берилган разряддаги тармоқни ўлчаш учун тузлади. Иккинчиси эса – иккала разряддаги тармоқлар учун ўлчашларга тузатмаларни аниқлаш учун қўлланилади.

Параметрик тенглаштириш усулида, биринчи ва иккинчи системаларнинг тузатмалар тенгламаси қуйидаги кўринишга эга

$$\begin{aligned} V_1 &= A_1x + L_1; \\ V_1 &= A_1x + Ax + L_1; \\ V_1 &= x; \end{aligned} \quad (2)$$

бу ерда V_1 , A_1 , V , A - ўлчашдаги тузатмаларнинг векторлари ва тузатмалар тенгламаларининг коэффицентларининг матрицiasi.

Коррелотлар усулида тескари вазнларни $1/P_{F_1}$ ва $1/P_F$ аниқлаш учун умумий шартли тенглама ҳосил бўлади.

$$B_1V_1 + BV + W = 0, \quad (3)$$

бу ерда B_1 ва B - паст ва юқори разрядли тармоқлар учун тузатмалар шартли тенгламасининг матрицалари; W – боғланмасликлар.

Қурилиш майдонларида геодезик тармоқлар эркин ва эркин бўлмаган ҳолда бўлиши мумкин.

Ҳоҳида, давлат тармоқлари билан алоқаси бўлмаган тармоқларни эркин тармоқлар бундай алоқага эга тармоқларни эса эркин бўлмаган тармоқлар деб ҳисобланади. Режалаш тармоқлари учун бундай тариф хар доим ҳам мос келмайди. Бундай ҳолларда битта бевосита ўлчанган томонга эга пунктлардан бирини координаталари ва томонларидан бирининг дирекцион бурчаги бўлган тармоқга эркин тармоқ ҳисобланади, шунингдек, бу қийматлар ўрнига иккита ихтиёрий қўшни пунктларнинг координаталари берилган бўлиши ҳам мумкин.

Ортиқча бошланғич маълумотларга эга бўлган тармоқлар – эркин бўлмаган тармоқлар деб аталгани маъқул. Геодезик режалаш тармоқларини таклиф этилган турларининг тавсифи аниқ геометрик маънога ва тенглаштирувчи ҳисоблаш хусусиятига эгадир.

Шу тариқ, бошланғич пунктнинг бир гуруҳига эга бўлган тармоқларни эркин тармоқлар ва бошланғич пунктнинг икки ва ундан ортиқ гуруҳларига эга бўлган тармоқларни эса эркин бўлмаган тармоқлар деб атаймиз. Одий тармоқларга, бир - бирига қўшни учбурчак ва тўртбурчакли тармоқларни киритиш мумкин. Мураккаб тармоқларга эса кесишучи томонларга эга бўлган учбурчак ва тўртбурчакли тармоқларни киритиш мумкин.

Маълумки, эркин тармоқларни тенглаштиришда фақат шартли тенгламанинг учта асосий тури бўлиши мумкин: фигура, горизонт ва ён, эркин бўлмаган тармоқларда, юқорида айтиб ўтилганларга қўшимча равишда базислар, дирекцион бурчак – азимутлар ва координаталар шартли тенгламалари қўшилиши мумкин.

Геодезик режалаш тармоқлари кўпунча эркин бўлади сабаби бир бинони режалашда ўқларнинг ўзаро жойлашиши аниқроқ аниқланади икки қўшни бинонинг ўқларини ҳолатини аниқлашга нисбатан, чунки, улар бир – бири билан конструктив ва технологик боғлиқ бўлмайд.

Каркасли баландлик тармоқлари II ва III класс нивелирлаш бўйича барпо этилади. Каркасли тармоғ тугунлар услуби билан кетма – кет яқинлашув методи бўйича тенглаштирилади. Хар бир йўл бўйича вазн $P_i = 1/L_i$ га тенг деб қабул қилинади, вазин қийматлари эса қуйидаги формула орқали аниқланади

$$P_i^0 = P_i / \sum_1^n P_i, \quad (4)$$

Баландлик режалаш тармоқлари алоҳида нивелир йўли орқали, каркасли тармоқлар пунктларига таянган холда барпо этилади. Режалаш тармоқлари қурилаётган иншоотлар яқинига барпо этилади, натижада қурилиш тўри реперлари хосил бўлади. Режалаш тармоқлар белгиларининг мустахкамлиги каркасли тармоқлар реперлари билан назорат қилинади. Баландлик режалаш тармоқлари IV класс геометрик нивелирлаш орқали барпо этилади. Нивелирлаш йўли рухсат этилган боғланмаслик қиймати $20\sqrt{L}$ мм дан ошмаслиги керак. Аниқланаётган белгининг тўғрилигини баҳолаш учун рухсат этилган четлашишлар δ_1 ва δ_2 билан асосланади. Улар баландликни иншоотдаги нуқта узатиш хатоликларини тавсифлайди. Ишончилиги эхтимолини P қиматига тенг деб оладиган бўлсак, қуйидаги тенгсизликлар билан бир станциядаги ўлчашнинг ўртача квадратик хатосини топамиз:

$$\mu \leq \delta_1 \sqrt{\rho_1/t}; \mu \leq \delta_2 \sqrt{\rho_2/t} \quad (5)$$

Маҳаллий режалаш тармоқлари қуриладиган иншоотларни ўзига хос томонларини, қурилиш участкасини топографик, гидрогеологик шарт – шароитларини ҳисобга олишни талаб қилади.

Маҳаллий планли режалаш тармоғи геодезик асос пунктларига нисбатан юқори аниқликда барпо этилади. Бундай тармоқлар пунктлари қоидага кўра иншоотнинг ёрдамчи режалаш чизиклари, асосий ва бош ўқларининг створларини маҳкамлайди. Маҳаллий режалаш тармоқлари эркин тўр кўринишида барпо этилиши ностандарт бўлиши билан фарқланади.

Геодезик қурилиш тўрлари қурилиш майдонларида турли геометрик фигураларда ва қурилиш шароитига кўра турли аниқликларда барпо этилади. Қурилиш тўрларини фақатгина муҳим аҳамиятга эга бўлган иншоотлар бунёд этилаётган ҳудудларда яратиш мақсадга мувофиқ бўлади. Саноат қурилишида қўшни пунктларнинг ўзаро жойлашув хатоликлари 1: 10000 аниқликда бўлиши мумкин [3].

Қурилиш тўрлари ортиқча материал ва вақт сарфламасдан ўқларни режалаш, иншоотларни қуришда геодезик ишларни ва қурилишни ихтиёрий вақтида съемкалар бажариш имконини беради.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республикадаги лойиҳа қидирув ташкилотларининг фоолиятни такомиллаштириш тўғрисида”ги қарори. 2017 йил.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “ Республикадаги лойиҳа-қидирув ташкилотларининг фоолиятини такомиллаштириш тўғрисида” Қарори 2010й 26-март.
3. ҚМҚ 1.03.26-2004 “ Курилишда бажариладиган геодезик ишлар”.
4. ШНҚ 1.02.17-09 “Геодезик съёмка тармоқлари қойдалар тўплами”,
5. ШНҚ 1.02.17- 09 “Таянч геодезик тармоқлари қойдалар топлами”

SECTION: ARCHITECTURE

Meliyeva Chingul Otaqulovna
katta o'qituvchi,
Xolmirzayev Oybek
magistrant

Samarqand Davlat Arxitektura – Qurilish Institututi
(Samarqand, Uzbekistan)

VERTIKAL BOG'LAR TARAQQIYOTINI O'RGANISH VA SAMARQAND SHAHRI LANDSHAFT ARXITEKTURASIGA TADBIQ QILISH TAMOILLARI

Annotatsiya. *Vertikal (tik) yo'nalishdagi ritmlar ham bo'lib, ular vaqt davomida o'simlikning o'sib, ulg'ayib borishi bilan archa, pixtalar, listvenitsalar va boshqa xvoy tipidagi daraxtlarning novdalarini g'uj barg qilib kurakcha shaklida o'stirib yoki daraxtlarni kuzab ularga qandil, katta shamdon, chilchiroqlar shaklini berish orqali hosil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ark-qal'a, rabod, shaxriston, hududlar, Saroy, ma'muriy, madaniy binolarning katta majmualari, Samarqand-madaniyat chorrahasi.*

Аннотация. *Существуют также ритмы вертикального (крутого) направления, которые формируются со временем либо путем выращивания ветвей ели, пикст, лиственис и других деревьев гавайского типа в виде почек в виде почек, либо путем обрезки деревьев, придавая им Форму люстр, больших подсвечников, веснушек*

Annotations. *There are also rhythms of a vertical (steep) direction, which are formed over time either by growing branches of Spruce, pixtas, listvenises and other Hawaiian-type trees in the form of buds in the form of buds, or by pruning trees, giving them The Shape of chandeliers, large candlesticks, freckles*

O'rta Osiyodagi tarixiy shaharlarning bunday tuzilishi shahar asosiy yo'llarining kesishgan joydagi chorsularning radikal va aylana yo'llar bilan to'ldirilishi, shaharlarning bir necha qismlarga bo'linishini ta'minladi. Shu bilan birga jamoat binolarining yangi turlari paydo bo'ldi.

Ko'p sonli diniy marosimlar o'rniga yagona islom dinining tashkil topishi bilan turli dinlarning ibodatxonalarini masjidlariga aylantiriladi. Biroq hali bu davrda diniy mazhablar saqlangan edi. Masalan, so'fiylik mistik mazhabida mazhab a'zolari uchun zikr tushish joyi bo'lgan, madaniy binolarning yangi turi - «xonaqo»lar, din peshvolarining maqbaralari - «mozorlar» barpo etilgan.

Samarqand shahri O'zbekiston Respublikasining yirik, ma'muriy-siyosiy, ilmiy, o'quv va madaniyat markazi hisoblanib, 2001 yilda shaharning tarixiy markazi "Samarqand-madaniyat chorrahasi" nominatsiyasi ostida YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Yangi

bosh rejani ishlab chiqishning muhimligi shaharsozlik rejasini ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy shartlarining tubdan o'zgarishlari bilan bog'liqdir.

Samarqand shahrining bosh rejasining asosiy ko'rsatkichlari Samarqand mahalliy tizimini turistik, ma'muriy-xo'jalik, ilmiy, madaniy va sanoat markazi kabi uning yanada barqaror rivojlanishini ko'zda tutadi.

Shaharsozlik va shaharning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi masalalari iqlim o'zgarishiga, uning barqaror rivojlanishi, shaharsozlikning zamonaviy talablariga asosan yetkazish maqsadida ijtimoiy va tabiiy-ekologik majmuasi kabi shaharni va shahar atrofi hududini rivojlantirishni hisobga olib, ishlab chiqish va umumrespublika tizimi bilan birgalikda hal etiladi.

Tadqiqot yo'nalishi, vertikal bog'lar taraqqiyotini o'rganish va Samarqand shahri landshaft arxitekturasiga tadbiiq qilish tamoillari.

Samarqand hududida turizmni rivojlanishi, grek va rim filosoflari aytib o'tganlaridek, yangi asrgacha bo'lgan IV asrdan boshlab shahar Maroqand deb nomlangan, shaharning rivojlanishi oldingi davrlarining boy tarixiy merosi bilan asoslangan.

Shahar hududida, asosan tarixiy-arxitektura qo'riqxonaga chegaralarida, 460 dan ortiq madaniy meros ob'ektlari jamlangan. Ular rasmiy ravishda davlat hisobiga va muhofazasiga olingan.

Markaziy hududda ko'pgina mehmonxonalar, turistik firmalar, restoranlar, do'konlar, banklar, tibbiyot markazlari mavjud.

Rejaviy tarkibda radiallik ustunlik qiladi, magistral ko'chalar qayta ta'mirlashga, ko'kalamzorlashtirishga va obodonlashtirishga, shuningdek, hozirgi holatidagi kengligini yanada kengaytirishga ehtiyoj yuqori.

Loyiha yechimi. Samarqand shahrining 2040 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan yangi bosh rejasining asosiy qoidalari Samarqand viloyatining hamda O'zbekiston Respublikasining asosiy turistik markazining ma'muriy-xo'jalik, ilmiy, madaniy va sanoat markazi kabi uni barqaror rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Samarqand shahrining bosh rejasi ilgari bosh reja kiritilgan asosiy tamoyillarni rivojlantiradi va Samarqand shahrini istiqbolli rivojlanishi qurilishining (2025 yil) va hisobot muddatiga (2040 yil) bazaviy asoslarni va asosiy parametrlarni belgilaydi.

Samarqand shahrining muhim funksional hududi turli tarixiy davrlarning arxitektura meroslari ob'ektlarini o'z ichiga olgan hisoblanadi.

Bosh reja bilan shaharning rejaviy tuzilmasining va qurilish ob'ektlarining arxitektura-badiiy qiyofasi izchilligi ta'minlanadi:

Shaharning arxitektura-bo'shliq kompozitsiyasi va uning markaziy zonasi turli tarixiy davrlarning arxitektura ansambllarini zamonaviy urbanizatsiyalangan shahar muhiti bilan o'ziga tobe bo'lgan o'zaro aloqalarini shakllantirishga, arxitektura vositalari va landshaft bilan turistik yo'nalishlarni o'ziga xos yozilgan asarini tashkil etish, shaharning turistik hududlarini boyitadigan, zamonaviy turizmni urg'ulari bilan to'ldiradigan shahar muhitining amaldagi va loyihaviy ob'ektlari bilan shakllantiradi.

Vertikal (tik) yo'nalishdagi ritmlar ham bo'lib, ular vaqt davomida o'simlikning o'sib, ulg'ayib borishi bilan archa, pixtalar, listvenitsalar va boshqa xvoy tipidagi daraxtlarning novdalarini guj barg qilib kurakcha shaklida o'stirib yoki daraxtlarni kuzab ularga qandil, katta shamdon, chilchiroqlar shaklini berish orqali hosil qilinadi.

Tirik yashil to'siqlar balandligi bo'yicha: baland–3 metrgacha, o'rta–2metrgacha, pastqam–1 metrgacha va yashil bordyurlar ko'rinishida–0,5-0,7 metrgacha bo'ladi.

Yashil to'siqlar tarkibiga ko'ra bir, ikki va ko'p xildagi o'simliklardan shakllantirilib, tuzilishiga ko'ra bir xil balandlikda (tekis) yoki turli balandlikda, ya'ni pog'onali ko'rinishda ishlanishi mumkin. Pog'onali yashil to'siqlar uchun bir necha xil butalar qo'llaniladiki, ular balandligi va rangi bo'yicha bir-biridan farq qiladi.



Pergolalar va barso–butalar daraxtlarga, metall va boshqa sinchlarga chirmashadigan o'simliklardan tashkil topgan yopiq xiyobon. Pergolalarning tavsiya etilishi–mo'tadil soyalarda hordiq chiqarish, bog' va parklarning turli xil maydonlarini bir-biriga bog'lashdir. Pergolalar asosan muntazam parklarning jihozidir. Chirmashib o'sadigan o'simliklar sifatida–yovvoyi uzum, qumloq (xmel), turk loviyasi, dukkakli ipomeya va boshqalar ishlatiladi.

Samarqand shahrini bosh rejasini ishlab chiqishda qulay ekologik sharoitlarni yaratish maqsadida tabiiy landshaft elementlarini saqlab qolish va ko'paytirish zarurligi hisobga olingan.

Bosh reja bilan shahar atrofida yashil mintaqalarni tashkil etish rejalashtirilgan.

Ekologik va estetik nuqtai nazardan muhim rolni Samarqandni o'rab turuvchi qishloq qo'rg'onlarining bog'lari va uzumzorlari egallaydi. Ekologik muvozanatni buzilishini oldini olish va yashil qishloq hududlari qurilmalarini sifati past qurilishlar bilan qurishni oldini olish uchun, shahar atrofi belbog'i hududi, uning hududida har qanday faoliyatni mos ravishdagi muvofiqlashtirish chora-tadbirlari bilan Samarqandning "Yashil belbog'i" maqomini olishi kerak.

Kompleks yondoshuv tarixiy shaharni ob'ekt-yodgorliklar kabi emas, yaxlit, o'zaro birlashgan struktura kabi ko'rib chiqilishini nazarda tutadi.

Zamonaviy shaharlar tabiiy hududlarni shuqadar tez egallab olishadiki, hokimiyat va me'morlar megapolislarda foydali maydonlarni egallamasdan qanday qilib ko'kalamzorlashtirish haqida jiddiy o'ylay boshladilar. Yechim topildi - uylarning jabhasini vertikal bog'larga aylantirish. Ba'zi megapolislarda siz allaqachon osmono'par binolarni topishingiz mumkin, ularning devorlari yam-yashil bilan qoplangan. Bundan tashqari, bu nafaqat atrofdagi makonni bezash uchun emas. O'rmonlarni vertikal devorlari va tomlariga joylashtirish, so'zning bevosita ma'nosida, havo sifatini yaxshilaydi va binolarning o'zida energiya samaradorligini va mikroiklimni sezilarli darajada oshiradi.

Binolarni vertikal bog'dorchilik texnologiyasi va prinsiplari.



Shveysariyaning Lozanna shahrida "Sidar minorasi" (La tour des Cedres) nomli vertikal iskala qurilishi boshlandi.

Ultra zamonaviy baland binolarni yaratish bilan mashhur bo'lib kelayotgan vertikal bog' dizaynlari shahar rivojlanishi natijasida vayron bo'lgan yashil maydonlarni tiklashga qaratilgan.

Gorizontallik maydonlarni iloji boricha bo'shatish va shu bilan birga o'simliklarni yo'qotmaslik uchun me'morlar, landschaft dizaynerlari va botaniklari e'tiborini tabiiy resurslarning yo'qolishini ularni ko'chirish bilan qoplaydigan kontsepsiyalarni ishlab chiqishga qaratdilar. balkonlar, teraslar va tomlar.



Megapolislarda vertikal o'rmonlar tobora ko'payib bormoqda

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. O.M. Salimov. Magistrlik dissertatsiyasini yozish bo'yicha uslubiy qo'llanma. T., 2003. 24 bet.
2. X.Sh. Po'latov, A.S. O'rolov. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta qurish. O'quv qo'llanma. T., 2002. 85 bet.
3. M.K. Axmedov. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. T.,1995., 139 bet.
Internet
1. Samarqand shahrining 2040 yilgacha bo'lgan davrga.regulation.gov.uz
2. <https://www.kramola.info/vesti/neobyknovennoe/top-7-tehnologiy-po-vertikalnomu-ozeleneniyu-zdaniy>

УДК 379.85

Аликулова Гавҳар
магистрант,
Махмудова Наргиза
магистрант
Самаркандский Государственный архитектурно-строительный институт
(Самарканд, Узбекистан)

ПАМЯТНИКИ ДРЕВНЕГО ГОРОДА УРГУТ

Аннотация. Ушбу мақола Ургут топонимининг келиб чиқиши тўғрисида турлича қарашлар ҳамда туризмни ривожлантириш учун Ургутнинг тарихий зиёрат жойлари тўғрисида маълумотлар келтирилган.

Ключевые слова: Инфраструктура, индустрия туризма, Культурный туризм, национальной, иностранные инвестиции, регион.

Annotation. The article presents various views on the origin of the Urgut toponym and information about the historical places of pilgrimage of Urgut for the development of tourism.

Key words: Infrastructure, tourism industry, cultural tourism, national, foreign investment, region.

Ургутский район расположен в предгорьях юго-восточной части Самаркандской области, на высоте около 1000 метров над уровнем моря. Ургутский район граничит с Кашкардарьинской областью с одной стороны и соседней Республикой Таджикистан с другой.

Существуют разные взгляды на происхождение топонима Ургут. Известный востоковед В.Л. Вяткин отмечал, что со времен правления мангитов село Аркут, которое упоминается в исторических документах, стало называться Ургутом. По мнению некоторых ученых, Ургут-Уркент (Орда, высокий город). В 1967 году под руководством профессора Самаркандского государственного университета покойного Р. Кунгирова организовал топонимическую экспедицию в Ургут. Эта команда также заключает, что это Ургут-Уркент. Значение топонимического названия Ургут до сих пор не определено. В этой области существуют разные взгляды и споры.

Ургутский район основан в 1926 году, имеет площадь 1120,28 кв. Км, имеет население более 427 тысяч человек. В частности, представители узбекской, русской, таджикской, армянской, татарской и уйгурской национальностей живут в гармонии как дети одного из родителей.

На основании древних источников было доказано, что Ургут является священным местом с 100000-летней историей. Об этом свидетельствуют древние поселения и святыни в районе. Ургут отличается от других районов своими уникальными национальными традициями, народными промыслами и этнографическими особенностями.

Это очень привлекательная особенность для местных и иностранных путешественников. В районе созданы все условия для спокойного, спокойного и веселого отдыха туристов. Транспортная сеть хорошо развита, что позволяет им комфортно путешествовать по местам путешествий и отдыха.

В Ургуте туристы могут посетить святые места, познакомиться с национальными традициями и ремеслами, а также отдохнуть в самых красивых уголках природы. Протяженность туристических маршрутов 5-8 км в первом направлении и 10,2 км во втором направлении, рассчитанные на 1-2 дня ходьбы со средней скоростью.



Расположенная среди высоких гор пещера Яхдон известна как исток Ургуцая. Поскольку холодная вода выходит из глубин пещеры, микроклимат в ней остается на одном и том же умеренном уровне как летом, так и зимой. Туристы могут увидеть все величие знаменитых пиков Аллайдорон, поднимающихся с горных дорог.

Эта знаменитая древняя святыня находится в деревне Гоос, к востоку от Ургута. За годы независимости по инициативе администрации района были построены дополнительные здания по инициативе администрации района в соответствии с требованиями национальной архитектуры. Рядом с святыней находится краеведческий музей, богатый экспонатами.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ПФ. 2017 йил 7 февраль.
2. Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г.Р. Туризм асослари. Тошкент, 2014.
3. Эйтингон А. И. Экологический туризм: Конспекты лекций. М.: Турист, 2001.
4. Сергеева Т. К. Экологический туризм: Учебник. М.: Финансы и статистика, 2004.
5. Encyclopedia of Tourism / Ed. J. Jafari. London; New York: Routledge, 2000.

Чоршанбаев Файзулла Зиятович
Шаҳар қурилиши ва ҳужалиги катта ўқитувчи,
Хамралиева Сурайё Жаборовна
магистрант
(Самарқанд, Ўзбекистан)

НУРОТА ВОҲАСИ МЕЪМОРИЙ ЁДИГОРЛИКЛАРИНИНГ АРХИТЕКТУРАСИНИ ЎРГАНИШ ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Аннотация. *Нурато ёки Нури Бухоро номи билан тарих саҳифаларидан ўрин олган мазкур тарихий шаҳар ҳақида Абу Бакр Наршахий маълумот бериб, уни Бухоро таркибидаги тарихий жой сифатида қайд этади. Наршахий IX-X асрларда яшаб ўтганлигини назарда тутадиган бўлсак ва унинг бу ҳудуд ҳақида ўша даврда маълумотлар ёзиб қолдирилганлигини ҳисобга олсак, у ҳолда Нурнинг қадимийлигига шак-шубҳа қолмайди.*

Аннотации. *Абу Бакр Наршахи сообщает об этом историческом городе, который назван в честь Нурато или нури Бухоро, и записывает его как историческое место в Бухоро. Если предположить, что наршахи жили в IX-X веках и учесть тот факт, что об этой территории в то время писались сведения, то в древности света сомнений не возникнет.*

Калит сўзлар: *Нурота, Наршахий Нур, кориз, хуудлар, иншоотлар, Нур, Кўхитанг, Пашшот қалъаси, Девори Пироста.*

Юртимизнинг бой тарихга эга бўлган Нурота шаҳри географик жихатдан Ўзбекистоннинг марказида жойлашган бўлиб Нурота тумани шимолий-шарқдан Жиззах, жанубий-шарқ ва шарқдан Самарқанд вилоятлари, ғарб ва жанубий-ғарбдан Навоий вилоятининг бошқа туманлари билан чегарадошдир. Туман маркази бўлмиш Нурота шаҳри ўзига хос бой ва бетакрор табиати, зилол ҳамда муқаддас булоқлар билан машхур. Шу билан бирга шаҳарнинг тарихи ҳам узоқ ўтмишга бориб тақалади.

Нурато ёки Нури Бухоро номи билан тарих саҳифаларидан ўрин олган мазкур тарихий шаҳар ҳақида Абу Бакр Наршахий маълумот бериб, уни Бухоро таркибидаги тарихий жой сифатида қайд этади. Наршахий IX-X асрларда яшаб ўтганлигини назарда тутадиган бўлсак ва унинг бу ҳудуд ҳақида ўша даврда маълумотлар ёзиб қолдирилганлигини ҳисобга олсак, у ҳолда Нурнинг қадимийлигига шак-шубҳа қолмайди. Ўша даврда ҳам бу маскан зиёратчилар ташриф буюрадиган қадамжо бўлган. Зиёратгоҳнинг ғарбий қисмидаги муқаддас чашма ва чашмадаги муқаддас ҳисобланган балиқлар киши эътиборини ўзига тартади. Булоқдан юқорида, унинг ғарбий бурчагида сағана ва қабртош қўйилган. Бу ёдгорлик Нурий нисбаси билан машхур Саййид ад-Дин Абу Хасанга тегишли.



Меъморий ёдгорликлар асосан Шайбонийлар даврининг махсулидир ва кейинги даврларда яъни манғитлар сулоласи ҳукмронлик қилган вақтда таъмирланган. Наршахийнинг ёзишича, Нурда жомеъ масжиди ва работлар бўлган. Зиёратга келувчиларнинг асосий қисми Бухоро аҳолиси, шунингдек, бошқа жойлардан ҳам бу ерга кўплаб кишилар ташриф буюришган. Ҳозирги вақтда ҳам бу ерга келувчиларнинг аксарияти Бухоро ва унинг атрофидандир. Наршахий Нур зиёратига бориб қайтганларни хожилар фазилатига эга бўлиши тўғрисида ҳам ёзиб қолдирган. Нурнинг зиёратгоҳ бўлиши, бу жойдаги ерда муқаддас қадамжоларнинг мавжудлиги билан боғлиқдир. Муқаддас булоқ, балиқлар, тарихий обидалар, Саъид ад-Дин Абул Хасан Нурий, Ар-Румий сингари тарихий шахсларнинг қабрлари мавжудлиги, шунингдек араблар истилоси даврида Мовароуннахрга келиб қолган ва шу тупроқда фонийликдан боқийликка кетган ҳамда Нурда дафн этилган тобеинлар қабрлари борлиги шундан далолат беради.

Нурнинг қадимий тарихини Искандар Зулқарнайн истилоси билан боғлашади. Нур атрофидаги қишлоқлардан бирида унинг ва онасининг рамзий мақбараси мавжуд ва бу жой ҳам муқаддас зиёратгоҳ саналади. Бироқ македониялик истилочининг Нурга асос солганлиги ҳақида аниқ далиллар йўқ, фақат ривоятлар, халқ оғзаки ижоди махсули бўлган айрим узук-юлук афсонавий ҳикоялар мавжуд.

Аввало, шаҳарнинг номланиши ҳақида Ҳозирча илмий асосланмаган тахминларга кўра, шаҳарга Македониялик Александр буйруғига кўра асос солинган бўлиб, у ўрта асрларда «Нур» «Нури Бухоро» номлари билан машҳур бўлган. Ўрта асрлар муаррихлари Наршахий, Жувайний, Истахрий асарларида кўҳна шаҳар – «Нур» деб тилга олинган. «Нур» атамаси кўҳна шаҳарнинг шахристон қисмидаги чашмага нисбатан пайдо бўлганлиги эҳтимолдан ҳоли эмас. Чунки тоғ этагидаги чашмадан баҳор ва киш ойларида сув буғланиб юқорига кўтарилиб туради. Бу сув буғига эрталаб кўёш нурлари таъсир этиб камалак ҳосил бўлади ва ердан нур кўтарилаётгандек кўринади..

Бактрия, Хоразм, Маргиёна ва Сўгдиёна ҳудудларидан Ахмонийлар даврига оид суғориш иншоотларининг излари аниқланган. Кўпчилик тадқиқотларнинг фикрича, тоғ олди текисликлари ва дашт ҳудудларини суғоришда ишлатилган коризлар – ер ости каналлари айнан мана шу даврда пайдо бўлган. Хусусан, Полибий салавкийлар подшоси Антиох III нинг Парфия даштлари орқали ўтган харбий юришлари ҳақида маълумот берганда ушбу дашт ҳудудлари бир қанча қудуқлари бўлган ер ости каналлари орқали суғорилиб, бу каналлар «форслар даврида» бунёд этилгани ҳақида ёзади.

Ўзбекистоннинг мана шундай мураккаб суғориш иншоотларидан фойдаланилган туманларидан бири Нуротадир. Бу ерда коризлардан Ҳозирги кунда ҳам фойдаланилади. Юқорида таъкидлаганимиздек, кориз – ер ости сув иншоотидир. Бундай суғориш иншоотини қуриш ниҳоятда оғир ва мураккаб бўлган. У машаққатли қўл меҳнатидан ташқари ер ости сувларининг тўпланадиган қатлами, йил мавсумларида бу сувлар сатҳида рўй берадиган ўзгаришлар ва кориз чиқариладиган жой рельефидаги нишабликни жуда аниқ белгилашни талаб этади. Нуротада ҳозирги кунда ер юзасига сув чиқариб турган кориз «Калта кориз» деб номланиб, унда 50 та қудуқ бор. Бу ерда юзаки текширув ўтказган киши ҳам қадимги деҳқонлар санъатига қойил қолмай иложи йўқ.

Суғорилишнинг кориз усули мил.авв. VII-IV асрларда тоғ олди текисликлари ва даштларида кенг фойдаланилганига эътибор қаратсак, Нурота атрофлари ахмонийлар давридаёқ ўтроқ аҳоли томонидан ўзлаштирила бошланганлигини кузатиш мумкин. Нуроталик қадимги бободеҳқонлар анча мураккаб бўлишига қарамай ушбу суғориш усулидан фойдаланганлар. Бу сувлар етиб келган жойларда эса ерларни ўзлаштириб турар-жойлар ва манзилгоҳлар барпо этганлари шубҳасиздир.

Тадқиқот гуруҳимиз уч кун давомида Нурота қалъаси, шахар девори деб тахмин қилинаётган Девори Пироста ҳамда Нурота атрофидаги Пашшот қалъаси қолдиқларида қидирув-текширув ишлари олиб борди. Ушбу ёдгорликлар ва улар атрофларидаги сополлар йиғиб олинди. Дастлабки хулосаларга кўра сополларнинг энг қадимгиси милодий IV-V асрларга (яъни, сўғд-эфталит даврига) оиддир. Янада қадимгирок деб тахмин қилинаётган сополлар эса қиёсий ўрганишни талаб этади.

Нурота қалъасининг тузилиши, деворлар ва улардаги миноралар (бурж) қисман тадқиқ этилди. Қалъа деворининг ички йўлакларига элтувчи кириш йўллари (махаллий аҳоли уларни ёрлар деб тасаввур қилади) сақланиб қолган. Қалъа девори пахса асосида хом ёштдан қад кўтарган ҳамда вақти-вақти билан таъмирлаб турилган. Хом ёштларнинг ўлчамлари Сўгдиёнадаги мил.авв. VI-IV асрларга оид Узункир, Ерқўргон, Чордара каби ёдгорликлардаги ёштларга анча яқин эканлиги аниқланди. Булар ҳозирча даслабки хулосалар бўлиб, аниқ хулосалар бериш учун жиддий тадқиқотлар ўтказиш зарур.

Нуротанинг ислом даври тарихи ҳақида манбаларда кенгроқ ёритилган ва узоқ мозийдаги воқеа ва жараёнлар шу жой билан алоқадордир. Унинг ўтмишига эътибор қаратадиган бўлсак, бу ерда Салжукнинг авлодлари Тугрулбек, Довуд ва Ёабгулар кўним топишган. Жанд аҳолиси билан зиддият юзага келгандан сўнг, уч ака-ука ўз лашкарлари, шунингдек, подаси билан Нур атрофида келиб ўрнашади.

Жамол ал-Каршининг «Мулҳакат ас-сурах» асаридаги маълумотларда келтирилишича Нурота атрофларидаги салжукийлар Бухоро амири томонидан

хайдалган. Лекин ҳақиқатда салжукийлар қорахонийлар сиқуви остида бу жойларни тарк этганлар.

1220 йилда Чингизхон Ўтрор орқали Бухоро томонга юриш қилганда Нуротани жангсиз эгаллаган. Чингизхон Нурга Тохир Баходир бошчилик қўшинни жўнатган ва мазкур мўғул ҳарбий қисмлари 1220 йил январь ойида Ўтрор ва Нур орасидаги карвон йўли орқали келиб, шаҳар аҳолисига таслим бўлишни талаб этган. Нур аҳолиси эса Тохир Баходир билан музокара юритиб, ўз элчиларини Чингизхонга жўнатган. Мўғул хони шаҳарни ҳарбий кўшинда Тохирга нисбатан нуфузи баланд Субутойга топширишни буюрган. Субутой буйруғи билан аҳоли ўзи билан хаётий эхтиёжлари учун зарур буюмлар, мол, озиқ-овқат олиб шаҳарни тарк этган. Шундан сўнг шаҳар талон-тарож қилинган. Чингизхон ташрифи вақтида эса талон-тарож қилинган нарсалар аҳолига қайтарилган ва нуроталиклар 1500 динор миқдорида товон тўлашлари талаби қўйилган. Мўғуллар нуроталиклардан маҳаллий ҳоким Эл ҳожи бошлиқ 60 кишилик ҳарбий қисм тузиб, Дабусия кальасининг қамалига жўнатган.

Руслар истилоси даври, XIX асрнинг 60 йилларига оид манбаларда Нуротанинг беки Абдал Гаффор ҳақида илик сўзлар ёзилган. 1886 йилда Россия ва Бухоро орасидаги чегара Нурота чўли ҳудудидан ўтказилган вақтда Абдал Гаффор билан бирга Зиёвуддин ва Хатирчининг бекалари ҳам иштирок этишган.

Хуллас, Нуротада олиб борилган қисқа муддатли қидирув-текширув экспедицияси бу ҳудудда кенг қамровли тадқиқотлар ўтказиш лозимлигини кўрсатади. Нурота, шубҳасиз республикамиздаги қадимги шаҳарлардан биридир. Ушбу фикрни ҳар томонлама илмий асослаш кейинги бўлажак тадқиқотлар натижаларига боғлиқ. Бугунги кунга келиб Туризм Нурота мажмуоиси зиёроғоқ манзилиги айлантрилган.





СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. О.М. Салимов. Магистрлик диссертациясини ёзиш бўйича услубий қўлланма. Т., 2003. 24 бет.
2. Х.Ш. Пўлатов, А.С. Ўролов. Архитектура ёдгорликларини таъмирлаш ва қайта қуриш. Ўқув қўлланма. Т., 2002. 85 бет.
3. М.К. Ахмедов. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Т., 1995., 139 бет.
4. қўлланма. Т., 2010. 31 бет.

Интернет

1. <http://nur-ota.uz/fotolavhalar/1808-chashma.h>

POLISH SCIENCE JOURNAL

Executive Editor-in-Chief: PhD Oleh M. Vodiany

ISSUE 6(39)
Part 1

Founder: "iScience" Sp. z o. o.,
NIP 5272815428

Subscribe to print 22/06/2021. Format 60×90/16.
Edition of 100 copies.
Printed by "iScience" Sp. z o. o.
Warsaw, Poland
08-444, str. Grzybowska, 87
info@sciencecentrum.pl, <https://sciencecentrum.pl>



ISBN 978-83-949403-3-1



9 788394 940331